


O'smirlar uchun hikoyatlar,
rivoyatlar va masallar



MAJOZ VA HAQIQAT

UO'K: 398.21(=5)
KBK: 82.3(5)
M 15

Б
М 15

Ahmedov, M.

Majoz va haqiqat [Matn] : hikoyat va rivoyatlar / to'plovchi
M. Ahmedov. – Toshkent: «Kitobdornashr», 2018. – 160 bet.

UO'K: 398.21(=5)

KBK: 82.3(5)

Ushbu kitobdagi hikoyat va rivoyatlarning har biri ibrat ko'zgusi hamda hikmat xazinasi bo'lib, xalq donishmandligini o'zida mujassam etgan, asrlar davomida tildan tilga o'tib sayqal topgandir.

Bu kitob o'quvchilarga munosib tuhfa bo'ladi, deb umid qilamiz.

To'plovchi:
M.Ahmedov

ISBN 978-9943-5481-3-8

SamVMI Axborot-
resurs markazi
Inv No

© «Kitobdornashr», 2018

370388

GUNOH – GUNOHGA SABAB BO'LADI

Buxoro shahrida bir meshkobchi bo'lgan ekan. U qariyb o'ttiz yildan beri o'ziga to'q zargarning uyiga suv tashib, tirikchilik qilarkan. Bir kuni u odatdagidek zargarning uyiga suv olib kelibdi. Bu paytda zargarning go'zal va oqila xotini hovli supurayotgan ekan. Meshkobchi kutilmaganida meshni yerga qo'yibdi-yu, chopib borib ayolning qo'lidan tutib, yuzidan bo'sa olibdi. So'ngra hech narsaga qaramay, ko'chaga qarab chopibdi.

Zargar qosh qorayganida uyiga qaytibdi. Kechki ovqatdan keyin xotini undan so'rabdi:

– Bugun Xudoga yoqmaydigan biror ish qildingizmi?

Zargar «Xotinim bir nimaning isini payqadimikan» deya undan shubhalanibdi va bo'lgan voqeani shartta aytibdi-qo'yibdi:

– Choshgohda bir ayol do'konim oldida to'xtadi va: «Durustroq zirak topilmaydimi?» – deya so'radi. Men yoqut ko'zli tilla zirakni unga uzatdim. Ayolning ovozi mayin va qo'llari ko'p nafis ekan. Ixtiyorimni

yo'qotib, uning qo'ldan tutib, o'pib oldim. Shundan boshqa gunoh ish qilganim yo'q.

Zargarning xotini tabassum qilib debdi:

– Bugun choshgohda odatdagiday meshkobchi suv olib keldi, lekin kutilmaganda xunuk bir voqea yuz berdi. O'ttiz yildan beri halol xizmat qilib, biron marta noto'g'ri ish qilmagan odam bugun qo'limdan tutib, yuzimdan o'pib oldi.

Bu gapdan zargarning achchig'i chiqibdi, lekin xotinini qattiq yaxshi ko'rganidan jahlini bosibdi, o'zining qilmishidan pushaymon bo'libdi. Er-xotin ancha vaqtgacha indamay o'tirishibdi.

Meshkobchi ertasiga yana zargarnikiga suv olib kelibdi va ayolning oyog'iga yiqilib, tavba-tazarru qilibdi:

– Ey marhamatli sohiba! Meni kechir! Kecha shayton yo'ldan ozdirdi, yo'qsa, bunday gunoh ishga aslo qo'l urmagan bo'lardim.

Ayol xafa bo'lmabdi. Meshkobchiga tassalli berib:

– Senda hech qanday ayb yo'q. Ma'lum bo'lishicha, shayton aslida seni emas, mening erimni yo'ldan urgan ekan, – debdi.

OQIBATLI QO'SHNI

Abdurahmon arafa kuni kechqurun uyda edi. Kimdir hovli eshigini taqillatdi. Chiqib qarasa, qo'shnisi ekan. Qo'shni kambag'al va serfarzand odam edi.

– Ey xoja, mana, ertaga hayit. Lekin kissamda qora chaqa ham yo'q. Biroz pul berib turolmaysizmi? – dedi u yalinib.

– Qani, ozroq kutib turing-chi, – dedi u qo'shnisiga va darvozani yopmay uyiga qaytib kirdi. Xotini bilan maslahatlashdi. Ayoli:

– Bor-yo'g'i yigirma besh dirham aqchamiz bor ekan. Mayli, bir qismini qo'shniga beraylik, qolganini o'zimiz ishlataylik, – dedi.

– Yo'q! – dedi Abdurahmon xotiniga. – Qo'shniga aqchaning bir qismini emas, hammasini beraylik, shunda ulkan savobning bir qismi emas, hammasi yonimizga qoladi.

ZUKKO QOZI

Bir odam qora kunimga yarab qolar, deya daraxt tagiga ming misqol tilla ko'mib qo'ydi. Ma'lum vaqtdan keyin borib qara-

sa, hech vaqo yo‘q – daraxt tagi qazilgan, hatto ildizlari qirqib olingan edi. U kishi dod-faryod qilganicha qozining oldiga bordi va bo‘lgan voqeani aytib, yordam so‘radi:

– Uyingga boraver, ikki-uch kundan keyin kelib xabar ol. Lekin bu gapni boshqalarga ayta ko‘rma, – dedi qozi unga.

Da‘vogar ketgach, qozi xos-u avomning najotkori hisoblangan shu yerlik tabibni chaqirtirib so‘radi:

– Falon daraxtning ildizi rostdan ham foydalimi?

– Shunday, taqsir. Uning xosiyati zo‘r, foydasi esa cheksiz, – deya javob berdi tabib.

Qozi tabib shu daraxt ildizini muolaja sifatida yozib bergan kishini chaqirtirdi. Qonun va hikmatni pesh qilib, u bilan jiddiy so‘zlashdi. Shundan keyin o‘sha odam daraxt ostiga ko‘milgan oltinlarni egasiga qaytarib berdi.

MUNOSIB QAYLIQ

Arabistonda ilm-u hikmatda benazir Shan ismli hakim o‘zimga o‘xshagan biror bilimdon qiz topilmagunicha uylanmayman, deb ahd qilgan ekan. Munosib qayliq

axtarib olamni bir necha bor kezib chiqsa hamki, ko'nglidagidek yor topolmabdi.

Yana shu niyatda sayohat qilib yurganida bir odam unga hamroh bo'libdi.

Shan hamrohiga:

– Siz meni ko'tarasizmi yo men sizni ko'taraymi? – debdi.

– Ajib betamiz odam ekansan-ku, – debdi hamrohi. – Sallamni zo'rg'a ko'tarib yuribman-u, seni qanday qilib ko'taraman?

Shan indamabdi. Biroz yo'l yurganlaridan keyin barq urib yashnab turgan bir bug'doyzorga yetibdilar. Shan ekinzorga qarab:

– Bu bug'doyzorning donini yeb bo'lishdimikin? – deya hamrohidan so'rabdi.

– Toza jinni ekansan-ku! Bug'doyni hali o'rib olmay turib yeb bo'ladimi?!

Shan bu safar ham indamabdi. Bir qancha yo'l yurganlaridan keyin ular tobut ko'tarib borayotgan olomonga duch kelishibdi.

– Bu odam o'ldimikan yo haliyam tirikmi-kan? – deya yana hamrohidan so'rabdi Shan.

– Ajabo, umrim bino bo'lib sen kabi ahmoqni ko'rmagandim. Janoza o'qilib, qabristonga olib borilayotgan o'likni bu tirikmi deb so'raydimi?! Qo'y, menga boshqa gapirma, ahmoqona so'zlaringdan ko'nglim ozib ketyapti, – debdi hamrohi.

Shunday qilib, ikki hamroh «churq» etmay yo'lda davom etishibdi.

Yo'lovchi manziliga yetganidan keyin qilgan qo'polligimni ko'nglidan chiqaray, deb Shanni uyiga olib kirib, mehmon qilibdi. O'sha odamning husn-u malohat, aql-u farosatda tengsiz bir qizi bor ekan. U otasidan:

– Hamrohingiz kim edi, yo'lda nimalarni gaplashib keldinglar? – deya so'rabdi.

– Ey qizim, – debdi otasi, – yo'lda qip-qizil bir ahmoqqa ro'baro' kelib qoldim. Kurakda turmaydigan, poyma-poy, mantiqsiz savollarni beraverib, toza ta'bimni xira qildi.

– U nima dedi? – deya so'rabdi qizi yana.

– Men bilan ko'rishishi bilanoq: «Siz meni ko'tarasizmi yo men sizni ko'taraymi?» – deb so'radi. O'zim zo'rg'a borayotgan bo'lsam, uni qanday ko'tara olardim, qizim? Bir bug'doyzorga yetganimizda: «Buning donini yeb bo'lishdimikan?» – deya so'rab qolsa bo'ladimi? Qabristonga olib ketilayotgan tobutni ko'rib esa: «Buning ichidagi tirikmikan yo o'likmikan?» – deya so'radi.

Dono qiz otasiga:

– Uning ko'nglini og'ritib, bekor qilibsiz. Bu so'zlar uning juda katta hakim va bilimdon ekanidan dalolat beryapti.

Birinchi savolining ma'nosi yo'lning zahmatini kamaytirish uchun biror narsa so'zlab berasizmi yo men aytib beraymi deganidir. Yerga g'alla ekkan odam esa biror sudxo'rdan qarzidor bo'lishi, qistovdan tezroq qutulish maqsadida bug'doyni o'rishi bilanoq sotib, qarzini uzishini, mulohaza qilib ko'rilsa, ekin pishishidan oldin yeb ketilgandek gap. Tobutdagi murda o'likmi yoki tirikmi, deb so'rashining ma'nosi esa: marhum eslashga arzigulik biror xayrli ish qildimikan yoxud johil va fosiqligidan o'lishi bilanoq hammaning esidan chiqdi-ketdimikan degani bo'ladi.

Siz darhol uning oldiga chiqib, uzr so'rang, ziyofat bering va aytgan so'zlarini sharhlang. Aks holda, u sizni johil va ahmoq deb o'ylashi mumkin.

Shundan so'ng qizning otasi Shan huzuriga chiqib:

– Yo'lda parishonxotirlik qilib, savollaringga durustroq javob berolmagandim. Hozir esa hammasiga birma-bir, batafsil javob berishim mumkin, – debdi.

Javoblarni eshitgan Shan:

– Quloqlaringa ishonmayman. Yaxshisi, bu javoblarni sizga kim o'rgatganini aytib, – debdi.

Qizning otasi nima deyishini bilmay, uyalib qolibdi va rostini aytishga majbur bo'lib:

– Aql-u farosatda tengi yo‘q bir qizim bor, so‘zlaringning mag‘zini menga u chaqib berdi, – debdi.

Bu gaplarni eshitgan Shan anchadan beri qidirib yurgan gavharini topganini bilib suyunib ketibdi. Otasining roziligi bilan dono qizni nikohlab olibdi va murod-maqsadiga yetibdi.

MUNOSIB HUKM

Bir kuni ikki kishi qozining oldiga arz bilan kelishibdi. Birining qo‘lida – bolta, ikkinchisinikida – arra.

– Haqiqat qiling, qozikalon, – dedi bolta ko‘targan odam.

– Biz ikkimiz bir odamga o‘tin qilib berish uchun mardikor tushgan edik. Daraxtni o‘zim kesib, o‘zim yorib taxladim. Sherigim bo‘lsa arrasini qo‘ltiqлагanicha «Ha, ur!», «Ha, barakalla!» deb turdi xolos. Shuning uchun ham xo‘jayin pulni menga berdi. U bo‘lsa pulning yarmi meniki, deb yopishib oldi. Shu adolatdanmi?

– Bunga sen nima deysan? – dedi qozi arra qo‘ltiqlab turgan kishiga.

– Sherigim to‘g‘ri gapirdi. Haqiqatan ham o‘tinni o‘zi kesib, o‘zi yordi. Men esa uni ruhlantirib turdim. Natijada u juda ko‘p o‘tin yordi.

– «Ha, ur!», «Ha, barakalla!» deya necha marta ruhlantirding?

– Yuz, yo‘g‘-e, ikki yuz martalar, – deb javob qildi arra qo‘ltiqlagan mardikor.

– Juda soz, – dedi qozi, – unday bo‘lsa, hamyonni olgin-da, ikki yuz bor osmonga otasan. Har otganingda «Ha, yaxshi», «Ha, barakalla» deb turasan.

– Mayli, – dedi suyunib arra qo‘tiqlagan mardikor.

Shundan keyin qozi hamyonni uning qo‘liga tutqazdi. U xaltani ikki yuz bor osmonga otdi va har safar «Ha, yaxshi», «Ha, barakalla!» deb turdi. Lekin itday horidi. Keyin qozi hamyonni egasiga uzatib, tanbalga dedi:

– Tangalarning ovozi eshitdingmi?

– Eshitdim, – deb javob qildi u.

– Unday bo‘lsa, ko‘p yaxshi. Tangalar do‘stingniki, ulardan chiqqan ovoz esa senga bo‘la qolsin.

XASISLAR USTOZI

Ko'fa shahrida xasisligi tillarda doston bo'lgan bir boy yashagan ekan.

Bir kishi unga:

– Basrada behisob mol-dunyosi bo'lgan bir boy bor. Ammo xasislikda sen unga shogird ham bo'lolmaysan, – debdi.

Ko'falik xasis uni ko'rish, undan ta'lim olish ishtiyoqida yo'lga tushibdi. Basraga borib uning oldiga kiribdi va o'zini tanishtiribdi.

Basralik xasis uni mehmon qilmoqchi bo'libdi.

– Xush kelibsan, sen bahuzur o'rnimda dam ol, men bozorga borib, xarid qilib kelay, – deb chiqib ketibdi.

Basralik xasis novvoyning oldiga borib:

– Yaxshi noning bormi? – deb so'rabdi.

– Bugun shunaqangi mazali non yopdimki, mol yog'idan qolishmaydi, – debdi novvoy.

– Molning yog'i nondan lazzatliroq bo'lsa, o'shaning o'zidan ola qolay, – debdi xasis.

Baqqolning do'koniga borib:

– Mol yog'ining yaxshisi bormi? – deb so'rabdi.

Baqqol debdi:

– Bugun shunaqangi ajoyib mol yog'i olдимki, ta'midan xuddi zaytun yog'i deysan.

– Zaytun yog‘i mol yog‘idan yaxshiroq bo‘lsa, nega o‘shandan olmayin? – deb xasis yog‘furushning do‘koniga boribdi.

– Zaytun yog‘i bormi? – deb so‘rabdi.

– Shunday bir zaytun yog‘i borki, tiniqlikda suvdan qolishmaydi, – debdi yog‘furush.

– Unaqada pulni bekorga sarf qilib nima qilaman, uyimda ikki xum suv turibdi-ku, – deb xasis uyiga qaytib ketibdi.

Basralik xasis kosani suvga to‘ldirib, mehmonning oldiga keltirib qo‘yibdi.

– Ey birodar, shundan o‘tadigan lazzatli taom yo‘q ekan, – deya novvoy, baqqol va yog‘furushning gapini aytib beribdi.

Ko‘falik xasis:

– Senga tan berdim, xasislikda boshqalarga ustoz bo‘lar ekansan, – debdi va u bilan xayrlashib chiqib ketibdi.

DO‘ST HOLIDAN BEXABARLIK

Bir kishi do‘stining yoniga kelib, to‘rt yuz dirham qarz bo‘lib qolganini aytib, undan yordam so‘radi. Do‘sti unga darhol aytilgan miqdordagi pulni topib berib jo‘natdi-yu, uyga qaytib kirib, yig‘lab yubordi. Xotini unga:

– Bunchalik qiynalar ekansiz, nega unga pul berdingiz? – dedi.

– Do‘stimning holini bilmaganim, u esa uyimga yordam so‘rab kelishga qadar majbur bo‘lgani uchun yig‘layapman, – deb javob berdi u.

SODDA MUG‘OMBIR

Bir sodda kishi to‘quvchiga shogird tushibdi. Bir kuni usta kosada asal keltirib do‘koniga qo‘yibdi. O‘zi bir ish bilan chiqib keta turib shogirdiga:

– Bu kosadagi narsa zahar, tag‘in yeb qo‘ymagin, o‘lib qolasan-a, – debdi.

– Yo‘g‘-e, men nima qilaman uni, – debdi shogird.

Usta ketganidan keyin shogird bola do‘kondagi laxtaklarni sotib, non olibdi-yu, o‘sha non bilan asalni «bir to‘yganim – challa boy bo‘lganim», deya paqqos tushiribdi.

Usta qaytib kelib: «Laxtaklar qani?» deb so‘rabdi. Shogird bola shunday javob beribdi:

– Jon usta, meni urmang, rostini ayta-man. Siz ketgach, o‘g‘ri meni g‘aflatda qoldirib, laxtaklarni o‘g‘irlab ketibdi. Kel-sangiz, albatta, meni urasiz deb qo‘rqib,

o'lsam o'la qolay dedim-da, o'sha kosadagi zaharning hammasini ichib yubordim. Lekin hanuz o'lganim yo'q. Endi nima qilsangiz, o'zingiz bilasiz.

VASIYAT

Mol-davlatda o'z zamonasining tanhosi o'lim to'shagida yotar ekan, hayotdan umid uzishga majbur bo'libdi. Bolalarini atrofiga yig'ib, shunday vasiyat qilibdi:

– Farzandlarim, mol-dunyo orttirish, birim ikki bo'lishi uchun ne-ne zahmatlar chekdim, uzoq safarlarda bo'lib, yo'l azobini tortdim. Endi sizlar boyligimni ehtiyot qilinglar. Birov dadalaringni tush ko'rdim, qiyma bilan holvaga havasi kelibdi desa, zinhor uning aldoviga uchmanglar.

Birinchidan, men unday gapni aytmayman, ikkinchidan, o'lik hech narsa yemaydi. Agar mening o'zim ham tushlaringga kirib, shunday iltimos qilsam, hech qanday iltifot ko'rsatmanglar, chunki tush degan narsa pala-partish bo'ladi. Undan keyin, tirikligimda yemagan narsamni o'lganimdan keyin havas qilarmidim?!

TAVBASIGA TAYANDI

Bir sodda kishi eshak sotib olmoqchi bo'lib bozorga ketayotgan ekan, yo'lda birov uchrab:

– Yo'l bo'lsin? – deb so'rabdi.

– Eshak sotib olish uchun bozorga ket-yapman, – deb javob beribdi u.

– Xudo xohlasa, degin! – debdi haligi odam.

– Eshak bozorda, pul cho'ntagimda turibdi-ku, nega «Xudo xohlasa» derkanman? – debdi sodda odam.

Lekin u bozorga borishi bilan pulini kissavurga oldirib qo'yibdi va umidsizlanib uyiga qaytib kelayotganida yana o'sha odamga duch kelibdi. Haligi kishi:

– Qayerdan kelyapsan? – desa, u:

– Xudo xohlasa, bozordan kelyapman, pulimni o'g'irlatdim, Xudo xohlasa, eshak ololmay quppa-quruq qaytib kelyapman-da! – dermish.

HOTAMDAN SAXIY

Hotami Toydan so'rashibdi:

– O'zingdan saxiyroq odamni ko'rganmi-san?

Hotam javob qildi:

– Ha, ko‘rganman.

Kunlardan bir kuni bir yetimchaning uyiga kirib qoldim.

Uning o‘n bosh qo‘yi bor ekan. Darhol ulardan birini so‘yib, pishirib oldimga qo‘ydi. Undan bir bo‘lagi menga ma‘qul bo‘lib, kesib yedim va: «Xudo haqqi, ko‘p lazzatli ekan», – dedim.

Shundan keyin o‘sha yigit tashqariga chiqdi va qo‘ylarini birin-ketin so‘yib, menga ma‘qul bo‘lgan yerini pishirib oldimga qo‘yaverdi. U bor qo‘yini men uchun so‘yganidan xabarsiz edim. Tashqariga chiqib, otga minayotganimda eshik oldida juda ko‘p qon to‘kilganini ko‘rdim. Saba-bini surishtirsam, xizmatkorlarimdan biri dedi:

– Yigit sen uchun barcha qo‘ylarini so‘yib yubordi.

Yigitni koyib dedim:

– Nega bunday qilding?

Yigit tavoze bilan javob qildi:

– Xudoga ming karra shukurki, men qo‘ygan taom sendek oliy zotli mehmonga ma‘qul bo‘libdi. Shunday holda xasislik qilsam, nima degan odam bo‘lardim?

Keyin Hotami Toydan so‘radilar:

– Buning evaziga o‘sha yigitga nima berding?

San'at Ashkora
resurs markazi
Inv No 37888

Hotam javob qildi:

– Uch yuzta tuya va besh yuzta qo'y berdim.

Hotamga dedilar:

– Demak, sen o'sha yigitdan saxiyoq ekansan.

Hotam javob berdi:

– Yo'q, saxiqlikda unga yetolmadim, chunki men behisob boyligimdan faqat bir qisminigina unga berdim, u bo'lsa, mendan borini ayamadi.

UCHINCHI AHMOQ

Ikki sodda kishi hamroh bo'lib yo'lga chiqqan ekan. Ulardan biri:

– Kel, yo'lni qisqartirish uchun orzularimiz haqida gaplashib ketamiz, – debdi.

– Mayli, – debdi sherigi ham. – Qani endi, Yaratgan menga mingta qo'y ato qilsa-yu, bu qo'ylarning juni, suti va qo'zilar tufayli boyib ketib, hasadchilarni dog'da qoldir-sam.

– Qani endi, Yaratgan menga mingta bo'ri ato qilsa-yu, men ularni sening qo'ylaring ichiga qo'yib yuborsam va bo'rilar qo'ylaringni bitta qoldirmay jig'ildonidan o'tkazsa, – debdi ikkinchisi shunda.

– Bunday orzu qilishga Yaratgandan qo‘rqmaysanmi? – debdi «qo‘ylarning egasi». – Nahot, shuncha bo‘rini mening qo‘ylarim orasiga qo‘yib yuborib, halol nasibamdan mahrum qilsang? Do‘stlik va hamrohlikning oqibati shumi?!

– Shuncha sut, shuncha qo‘zi-yu echkini boshqalar bilan baham ko‘rmay, yolg‘iz o‘zing yegani uyalmaysanmi? – debdi «bo‘rilarning egasi».

– Mendan gina qilishga sening haqqing yo‘q! – debdi «qo‘ylarning egasi». – Men bir nochor odamman. Buning ustiga, ko‘plab kambag‘al urug‘-aymog‘im borki, ularni sanab ado qilib bo‘lmaydi.

– Xo‘sh, nochor ekaning uchungina ichi qoraliging bilan murosayi madora qilishim kerakmi?

Unisi u debdi, bunisi bu debdi, xullasi kalam, o‘rtada janjal boshlanib, rosa mushtlashishibdi va holdan toyib yo‘l chetiga o‘tirib qolishibdi. Shu payt uzoqdan eshakkaga katta bir idishda asal yuklab, shahar tomon borayotgan chol ko‘rinibdi. Ular:

– Kel, shu mo‘ysafid o‘rtamizda qozilik qilsin, – deb o‘rinlaridan turishibdi va salom-alikdan so‘ng bo‘lgan voqeani aytib berishibdi.

Chol bularning so‘zini eshitib bo‘lgach, belidan pichog‘ini chiqaribdi-da:

– Agar ikkovlaring ham ahmoq bo‘lmasalaring, mening qonim xuddi mana shu asalday tuproqqa qorishib ketsin, – deb bir pichoq urish bilan sanochni ikkiga bo‘libdi va bor asal tuproqqa qorishib ketibdi.

SOHIBQIRON VA HOFIZ

Xo‘ja Hofizning:

«Agar ko‘nglimni shod etsa o‘shal Sheroz jononi, Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni», – degan mashhur baytini eshitgan Amir Temur Sherozga kelganida shoirni huzuriga chorlab:

– Men Samarqand va Buxoroni obod-u ma‘mur qilish maqsadida bir umr jang-u jadal olib borib, dunyoning yarmini egallagan bir paytimda sen bu ikki durdona shaharni bir xol uchun hadya etishga qaydan jur‘at topding?! – debdi.

Shoir bunga javoban o‘zining juldur usti-boshiga ishora qilib:

– Azbaroyi qo‘lim ochiqligidan shu ahvolga tushdim-da, – debdi.

Bu javobdan Sohibqironning qahri mehrga aylanib, Hofizga qimmatbaho tuh-falar bergan ekan.

NAVOIYNING JAVOBİ

Navoiy o'zining eng yaqin hamrohlari qurshovida qandaydir yig'indan qaytib kelayotib, Husayn Boyqaro saroyining g'alamis a'yonlaridan biriga duch kelibdi. Navoiy hamrohlaridan ajralib chiqib, unga ta'zim qilibdi.

– Axir, bu odam sizning dushmaningiz edi-ku, hazratim? – deya so'rashibdi shogirdlari.

– To'g'ri, biroq shunday dushmanlarim bo'lmaganida edi, men sizday do'stlarni qadriga yetmagam bo'lardim, – debdi dono ustoz.

BIR PULLI SHE'RLAR

Bir kuni Alisher Navoiy iste'dodli, lekin biroz yalqov bo'lgan shoir Osafiyyga nasihat qildi:

– Men senga hayron bo'lamanki, o'tkir zehning va baland tab'ing bo'laturib, she'r bilan kam shug'ullanasan, hamma vaqtingni foydasiz ishlarga sarf qilasan.

– Hozirgi kunlarda borgan sari ko'proq she'r yozish bilan mashg'ul bo'layotirman,

– dedi u bunga javoban. – Masalan, o‘tgan kecha ikki pullik sham yonib bitgunicha, ikki yuz bayt yozibman.

– Demak, u she‘rlarning har yuz bayti bir pul ekan-da, – debdi Navoiy kulib.

KINOYA TAGIDAGI HAQIQAT

Bir vaqtlar Astrobod shahri Navoiyning adolati tufayli farovon va obod edi. Bir kuni shahar ob-havosida g‘aroyib o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Amir huzuridagi ba‘zi amaldorlarga qarab:

– Bugungi ob-havo antiqa bo‘ldi, – dedi.

Ulardan biri javob tariqasida shunday dedi:

– Shahrimizning bir kunida to‘rt faslning xususiyati zohir bo‘ladi.

– Shuning uchun ham bu shaharda bir kun bir yildek o‘tar ekan-da, – dedi Navoiy hozirjavoblik bilan.

BIR SURATTA‘RIFI

Mashhur musavvir Kamoliddin Behzod Alisher Navoiyning majlisiga bir surat keltirdi. Suratdagi manzara shunday edi:

turli-tuman daraxtlar bilan qoplangan bir orasta bog‘. Daraxt butoqlarida rang-barang tovlanib turuvchi xushsurat qushlar. Har tarafda ravon ariqlar va ochilgan zangori gul butalari. Alisher Navoiyning bir asoni tutib turgan holatlari tasvirlangan. Oldilariga sochish uchun tilla to‘la tovoqlar qo‘yilgan.

Hazrati Alisher mulohaza va mushohada qilib suratda uning ko‘ngil bog‘i tasvirlanganini ko‘rdilar. Shavq-u zavq bilan «Go‘zal, juda soz» deb yubordilar.

Keyin majlisda hozir bo‘lganlarga yuzlanib, so‘radilar:

– Azizlar, bu sharaflashga loyiq surat haqida nima deysizlar?

Mirning ustodi va Xurosonning e‘tiborli kishilaridan biri bo‘lgan mavlono Fasihiddin dedi:

– Do‘stlar, men bu ochilgan ra‘no gullariga qo‘l cho‘zib, birini uzsam-u, dastorim tepasiga taqib qo‘ysam, deyman.

Navoiyning do‘sti mavlono Sohibdoro dedi:

– Menda ham shunday orzu bor edi. Ammo qo‘l uzatsam, daraxt tepasidagi qushlar uchib ketarmikan degan andishadaman!

Xuroson ahlining peshvolaridan bo‘lgan mavlono Burhon dedi:

– Men mulohaza qilib, qo‘limni ham, og‘-
zimni ham tiyib turmoqchiman va hech
narsa demoqchi emasman. Mabodo, hazra-
ti Mirning jahllari chiqsa, yuzlari va qosh-
larini chimirmasinlar yana!

Buni eshitgan mavlono Muhammad
Badaxshiy shunday dedi:

– Ey mavlono Burhon! Beadablik sa-
nalmaganida, hazrati Navoiyning qo‘lla-
ridan bu asoni olib, boshingizga tushirgan
bo‘lardim!

Hazrati Navoiy dedilarki:

– Azizlar, ko‘p yaxshi gaplar aytil-
di. Ilo-
ji bo‘lganida, shu sochish uchun qo‘yil-
gan tovoqlardagi oltinglarni do‘st-u yorlar
boshidan sochar edim!

Shundan keyin u kishi Kamoliddin Beh-
zodga egar-jabduqli ot, munosib sarmo,
majlis ahlining har biriga esa faxrli libos-
lar in‘om qildilar.

TAMAGIR

Bir kishi tamagirlikda mashhur ekan.
Undan:

– Sen qay darajada tamagirsan? – deb
so‘rashsa, shundoq javob beribdi:

– Tamam shu darajadaki, qaysi uydan tutun chiqsa, menga ovqat pishirishyapti, deb o‘ylayman. Shu umidda o‘rnimdan tura-man va qotgan nonlarni yig‘aman. Qachon meni sho‘rvaga taklif qilishsa, shu nonlarni to‘g‘rab yeyman, deb kutib o‘tiraman. Agar umidim puchga chiqsa-yu, hech kim meni sho‘rvaga taklif etmasa, nochor bir kosa suv keltirib, o‘sha nonlarni ivitib yeyman.

Agar sopolfurushdan birov kosa yo lagan sotib olayotganini ko‘rsam, bu kosa va yo laganda menga ovqat pishirib bersa kerak, deb o‘ylayman.

Misgarlik rastalaridan o‘tib ketayotgan bo‘lsam-u, misgarining mis lagan yo mis kosa yasayotganini ko‘rsam, biron kun idish egasi menga shu idishda ovqat yuborar degan umidda hunarmanddan lagan bilan kosa-kattaroq qilib yasagin deb iltimos qila-man.

Ko‘chada ketayotgan bo‘lsam, tomdanmi, darchadanmi qo‘shni qo‘shniga biror narsa tashlasa, mening etagimga ham tushib qo‘lishi mumkin, deb etagimni ko‘tarib yuraman.

Agar ko‘chadan kelin olib o‘tayotgan bo‘lsalar, adashib kelinni menikiga olib kirmas-mikinlar degan umidda darrov hovlini su-purib-sidirib, suv sepib, eshiklarni ochib qo‘yaman.

XASISLAR

Uch xasis bitta xonani ijaraga olishibdi. Lampa moyini har doim birga xarid qilisharkan. Bir kuni lampa moyi olgani bittasining puli yetmabdi. Ikkitasi nima qilibdi deng? Pul bermagan hamxonalarining ko'zini bog'lab, chiroqni yoqishar, faqat chiroqni o'chirib, yotishga hozirlanganlarida uning ko'zini ochishar ekan.

XASISNI DAVOLASH USULI

Bir xasis qattiq og'rib qolibdi. Terlasa tuzalar ekan. Shuncha dori-darmon berishsa ham terlamabdi. Xizmatkorlari nima qilishni bilmay hakimga murojaat etishibdi.

– Uning oldida yog'li qatlama yenglar. Buni ko'rib, hech qanday dorisiz ham darhol terlab ketadi, – debdi hakim.

MUTTAHAM DA'VOGAR

Bir kuni janjallashgan ikki kishi qozining oldiga kelibdi. Biri ikkinchisidan

katta mol da'vo qilibdi. Unisi esa men bu kishini umrimda ko'rmaganman, qanday qilib qarzdor bo'lishim mumkin, deb tonib turib olibdi. Qozi da'vogardan so'rabdi:

– O'sha molni qayerda bergan eding?

Da'vogar debdi:

– Falon sahrodagi bir daraxtning ostida.

– O'sha daraxtni topa olasanmi?

– Bo'lmasam-chi, debdi da'vogar, – cho'l-ning o'rtasidagi bitta-yu bitta daraxt.

– Xo'p, – debdi qozi, – borib o'sha daraxtdan toza barg olib kelgin. Chunki barglar gapning rostini aytadi.

Da'vogar barg olib kelgani ketibdi. Sherigi esa qolibdi. Qozi boshqa kishilarning arzini eshitishga kirishibdi va unga e'tibor ham bermabdi. Ancha vaqt o'tganidan keyin gapning o'rtasida qozi unga luqma tashlabdi:

– O'sha daraxtga yetib bordimikan?

– Hali yetmagan bo'lsa kerak, – debdi haligi kishi, – u yer ancha uzoq.

Qozi debdi:

– Barakalla. Endi iqrор bo'la qolgin, chunki ma'lum bo'ldiki, sen u daraxtni bilar ekansan.

U kishi xijolat bo'libdi. Qozi tadbir bilan uning ko'nglini yumshatib, olgan qarziga iqrор qilibdi. Shu asnoda da'vogar ham daraxt barglarini olib kelibdi.

– Barglar guvohlik berib bo‘ldi, – debdi qozi da‘vogarga. – Bu kishi olgan narsasini qaytarib beradi.

Haligi kishi da‘vogarni o‘z uyiga olib bo-ribdi va izzat-ikrom ko‘rsatib, olgan molini qaytaribdi.

KUCH YETMASA, HIYLA QIL

Bir qarg‘a tog‘dagi daraxtga in quribdi. Uning yaqinida bir ilon yashar, qarg‘a bola ochishi bilan ularni yeb qo‘yaverar ekan. Bir kuni qarg‘a ilonning yoniga keldi:

– Yodingda saqla: «Kim zulm qilichi-ni ishlatlsa, xuddi shu qilichdan o‘zi ham halok bo‘ladi!»

Qarg‘aning bu nasihati ilonga ta’sir qil-madi. Shundan keyin qarg‘a do’sti sha-g‘olning yoniga keldi:

– Ilonning zulmidan bir iloj qilib qutul-moqchiman.

Shag‘ol so‘radi:

– Qanday qilib qutulmoqchisan?

Qarg‘a dedi:

– Ilon uxlagan vaqtda tumshug‘im bi-lan ko‘zlarini o‘yib olaman, zora shundan keyin jondan aziz bolalarim uning balo-sidan xalos bo‘lsalar.

Shagʻol dedi:

– Bu toʻgʻri ish emas, dushmanga qarshi shunday bir tadbir koʻrki, oʻzingga zarar yetmasin. Sen parvoz qilib, uy va koʻchalariga nazar sol. Agar koʻzing biror qimmatbaho narsaga tushsa, uni olib qoch. Lekin shunday uchginki, odamlar seni koʻrib tursinlar va qimmatbaho narsani qaytarib olish uchun orqangdan ergashsinlar. Sen ilon uyasiga haligi narsani tashla. Shunda odamlar ilonni oʻldirib, qimmatbaho buyumni olib ketadilar va sening joning omon qoladi.

Qargʻa uchib borib, bir hovliga qoʻndi. Bir xotin marvaridini yerga qoʻyib, yuz-qoʻlini yuvar edi. Qargʻa marvaridni olib qochdi va shagʻol aytganidek, uni ilon uyasiga tashladi. Qargʻaga ergashib kelgan kishilar ilonni oʻldirishdi va marvaridni olib ketdilar.

BADNAFS TULKI

Yoʻlda ikki qoʻchqor suzishar edi. Ular bir-birlarini yarador qilgan va jarohatlari-dan qon tomardi.

Bir tulki kelib, tomgan qonlarni yalay boshladi. Ikki qoʻchqor yana shoxlarini

to'g'rilab, bir-birlariga tashlanganlarida, tulki o'rtada qolib, majaqlanib ketdi.

ANDISHA

Saxiylikda nom chiqargan bir boyning oldiga kambag'al kelib sadaqa so'rabdi. Tasodifan kambag'al hassasining uchi bilan boyning oyog'ini bosibdi va hatto hassaga tayanibdi ham. Qo'li ochiq boy sadaqa beribdi va kambag'al ketibdi. Bo'lgan voqeani ko'rib turgan odamlar undan so'rashibdi:

– Hassasi bilan oyog'ingni bosganida nechuk chidading?

– Oyog'imni bosganini aytsam, sadaqamni olishdan uyaladi deb qo'rqdim, – debdi saxiy boy.

BALOYI NAFS

Bir lo'li daryo sohiliga kelib qarasa, bir to'da ko'rlar uni kechib o'tolmay hayron bo'lib turibdilar. U dedi:

– Ey birodarlar, men sizlarga yo'l boshchi bo'lib, daryodan o'tkazib qo'ysam, nima berasizlar?

– Har birimiz o‘n dinordan beramiz, – dedi ulardan biri.

Bir bitimga kelishgach, lo‘li dedi:

– Bo‘lmasa, hammangiz bir-biringizning etagingizdan mahkam tutib tizilinglar, men oldinda yurib yo‘l boshlayman.

Ular turnaqator bo‘lib suvga kirdilar. Suvning o‘rtasiga borganda, orqadagi bir ko‘r faryod qilib qoldi:

– Ey yo‘lboshchi, birodarlarimizdan birini suv oqizib ketdi.

– Eh, afsus, – dedi lo‘li, – o‘n dinorim oqib ketdi.

Sal yurmay yana biri faryod qilib qoldi.

– Hoy yo‘lboshchi, tag‘in birimizni suv olib ketdi.

– Vo darig‘, – dedi lo‘li, – yigirma dinorim kuydi.

Ko‘rlar g‘avg‘o ko‘tarib, dedilar:

– Ey johil, bu qanday gap axir, bu ahvolda bitta-bitta hammamiz oqib ketamiz-ku?!

– Sizlarga nima, – dedi lo‘li, – oqib ketishingiz hech gap emas, ikki o‘rtada men kuyaman. Har biringiz oqib ketganda men o‘n dinorga tushaman. Shuncha ziyon ko‘rib, men indamayapman-u, sizlar nega shovqin ko‘tarasizlar?

O'G'RILAR SULTONI

Halab shahridagi karvonsaroyning o'rtasida chuqur quduq bor edi. Undan suv olib, karvonsaroy ahlini ta'minlab turardilar. Karvonsaroyning shundaygina yonboshida esa hammom joylashgan edi.

Halab o'g'rilaridan biri hammomning o't yoqadigan xonasidan lahm kavlab, karvonsaroydagi quduqning ichidan chiqdi va yarim kechada do'st-yorlari bilan kelib, o'sha yo'lak orqali karvonsaroyga tushdi. Qo'liga tushgan barcha mollarni shipshiydam qilib, badar ketdi.

Ertalab karvonsaroyda g'avg'o ko'tarildi, butun shahar oyoqqa turdi. Shahar hokimi va mirshablari to'planib, mulohaza qildilar. Hech bir shubhali joy topilmadi, chunki karvonsaroyning darvozasi berk, devorlari mustahkam edi. O'g'rilar darvozani ochib kirgan bo'lishi mumkin va bunda darvozabonning qo'li bor deb uni oilasi bilan tutib, azob bera boshladilar. Qanchalik qiynamasinlar, darvozabon bo'yniga olmas va zor-u tavallo bilan begunoh ekanini arz qilardi. Bu yerda o'sha o'g'ri ham hozir edi. U o'yladi: «O'g'rilikni-ku, men qildim. Ammo mana bu begunoh bechoralar-

ning azob chekishiga qarab o'tirish yaxshi emas». Keyin o'g'ri dadil o'rtaga tushdi:

– Hoy mirshablar, ularni qo'yib yuboring, bu ishga ularning daxli yo'q. Mollarni men o'g'irlaganman.

Mirshablar ro'paralarida baland bo'yli, xushqomat bir yigitni ko'rdilar. Uning boshida qora parchadan bosh kiyimi va belida xanjari bor edi.

– O'zing iqror bo'lganingga qoyilmiz, mard ekansan, – dedi mirshablar, – endi aytgin-chi, o'g'irlagan mollaringni qayerga qo'yding?

– Karvonsaroydagi quduqning ichiga, – dedi o'g'ri. – Hammasi hali joyida. Qani, bitta arqon olib kelib, mening belimga bog'lang, olib chiqay. Mollarni egasiga topshirib bo'lganimdan keyin podshoh menga qanday jazo bersa ham qabul qilaman.

Bu mardona so'zlarni eshitgan xaloyiq uning shijoatiga tahsin o'qidilar. Mirshablar esa arqon keltirib berdilar. Yigit arqonning bir uchini beliga bog'lab, quduqqa tushdi. Arqonning ikkinchi uchini esa bir necha kishi ushlab turdi. Yigit quduqqa tushdi-da, belidan arqonni yechib, lahm orqali chiqib ketdi.

Mirshablar anchagacha kutib turdilar, yigitdan darak bo'lmaganidan keyin arqonni

tortib qarasalar... Darhol ikkinchi bir kishini belidan bog'lab quduqqa tushirdilar. U kishi quduq tubida qandaydir lahm borligini aytdi. Unga lahmga kirib, qayerdan chiqish mumkinligini aniqlashni buyurdilar. U kishi hammomning o'txonasidan chiqdi-da, aylanib mirshablarning qoshiga keldi va butun tafsilotni gapirib berdi.

Hammaning og'zi ochilib qoldi. Chunki bu o'g'ri shunday zo'r san'at ko'rsatgan ediki, uning natijasida mol ham o'g'irlandi, begunohlar ham jazodan qutuldi, o'zi ham jonini qutqarib qoldi.

ZIYORAT

Bir kar bemor qadrdonini ko'rib kelmoqchi bo'lib, yo'lga tushdi. Yo'l-yo'lakay bo'ladigan suhbatni o'zicha o'ylab bordi: Borib: «Ahvoling qalay?» desam, «Ancha yaxshi bo'lib qoldim», deydi. Keyin: «Nima yeyapsan?» desam, «Bergan ovqatlarini», deydi. Men: «Juda yaxshi bo'libdi-da», deb aytaman. Keyin: «Tabibing kim?» desam, biror ulug' tabibning nomini aytadi, men esa bundan xursandligimni aytaman.

Kar shu xayollar bilan bemorning oldiga kirib bordi. Ittifoqo, bemor bir narsadan xafa bo'lib turgan edi. Kar borib so'radi:

– Ahvollar qalay, birodar?

– Yomon. Agar shu tarzda tursam, o‘limim yaqinga o‘xshaydi.

– Ayni muddao, ayni muddao. Xo‘sh, nima yeyapsan?

– Zahar ichyapman, – dedi jahli chiqib bemor.

– Juda yaxshi, birodar, juda yaxshi! Qo‘rqmasdan ichavergin, tezda qutulasan. Tabibing kim?

– Azroil! – dedi bemor g‘azablanib.

– O-o, qutlug‘ bo‘lsin, ana, qutulib qolibsan hisob. Buyog‘i kam qolibdi, parvo qilma.

MAJOZ VA HAQIQAT

Bir kishi quturgan tuyadan jonini qutqarish uchun jar ustiga egilgan ikki shoxga osilib, jar yoqasiga oyoq qo‘yadi. Lekin oyoq‘i ostidagi indan to‘rtta ilon bosh chiqarib turganini ko‘rib qoladi.

Jarning ostiga nazar tashlasa, u yerda ulkan bir ajdaho og‘zini katta ochganicha uning tushishini kutib turganiga, yuqoriga qarasa, oq va qora sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to‘xtovsiz kemirayotganiga ko‘zi tushadi.

Bu ahvoldan qutulish chorasini o'ylab turganida shunday yonginasida asalari uyasini ko'radi va barmog'ini asalga botirib yalay ketadi.

Asalning shirinligi uning boshini shu darajada aylantirib qo'yadiki, natijada u o'zining qanday ahvoldaligini unutadi: oyoqlarini to'rt ilonning boshiga qo'ygani va bu ilonlar uni har lahzada chaqib olishi mumkinligi, sichqonlar shoxlarni kemirib bitirishi va shox sinsa, u ajdaho komiga tushishi muqarrarligi xayolidan ko'tariladi. Jaholat pardasi aql nurini to'sib qo'yadi va oz fursat o'tmay, u jarga qulab halok bo'ladi.

Bu dahshatli va chuqur jar hech qachon tashvishi tugamaydigan hayot, oq va qora sichqonlar – odamlarning umrini kamaytirish uchun tinimsiz almashib turgan kecha va kunduz, to'rt ilon – borliqning asosini tashkil qiluvchi to'rt unsur bo'lib, ulardan birortasi o'z muvozanatini yo'qotsa, inson darhol mahv bo'lib ketadi.

Asal – azobi ko'p, foydasi kam bo'lgan, odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdirib, ularga najot yo'lini berkitib qo'yadigan o'tkinchi dunyo, ajdaho esa hech kim qochib qutula olmaydigan o'limdir.

MAYMUN VA DURADGOR

Bir maymun duradgorning yog‘och ustida o‘tirib, pona bilan uni yorayotganini ko‘rdi. Duradgor bir ponani qoqqanidan keyin ikkinchisini chiqarib olar, uni boshqa yerga qoqar va shunday qilib yog‘ochni yorib borardi.

Buni ko‘rgan maymun duradgor tushlikka ketganida o‘ziga daxli bo‘lmagan ishga aralashib, uning ishini davom ettirmoqchi bo‘ldi. U orqasini yog‘ochning yorig‘iga qilib, yuzini ponaga qaratib, yog‘och ustiga minib oldi. Maymunning dumi yog‘ochning yorig‘iga tushib turgandi, u ponani sug‘ura boshladi.

Maymun ponani chiqargan ham ediki, dumini yog‘och qisib qoldi.

Maymun hushidan ketdi, to duradgor yetib kelgunicha shu ahvolda yotdi. Duradgor esa kelib, maymunni urib o‘ldirdi.

SUVCHI MANTIG‘I

Ahmadboyning bir suv tashuvchi quli bor edi. Bir kuni undan so‘radi:

– Qani aytgin-chi, ikkimizning o‘rtamizda o‘xshashlik bormi?

– Bor, – dedi xizmatkor suvchi, – bu oila-da eng badbaxt odam ikkimiz hisoblanamiz.

– Bu gapga qanday daliling bor?

– Dalilim shuki, – dedi suvchi, – kuni bilan sen hammani non bilan ta'minlashga urinib tentiraysan, men bo'lsam suv bilan ta'minlashga. Boshqalar esa, sen bilan mening g'amimizni yemaydilar, bizni xizmatkorlari deb biladilar.

Shuncha mehnatimiz evaziga hatto bizga «balli» ham demaydilar, aksincha, hami-sha qildan qiyiq topib, arz qiladilar. Men bilan sen ularning ham tirikchiligini, ham minnatini ko'taramiz.

NAVOIY VA HUSAYN

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh kotib ekan. Podshoh hamma vaqt Navoiyning deganlariga quloq solar ekan.

Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro saroyga kirib ketayotib, Navoiyga qarabdi-da, ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Navoiy ham shu barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi. Husayn Boyqaro boshini chayqabdi-da, saroyga kirmay qaytib ketibdi.

Bu voqeani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari imo-ishoraning sababini soʻrabdilar. Navoiy:

– Oʻzlaring topinglar, – debdi. Shogirdlar oʻylab-oʻylab topisha olmabdi. Ulardan biri Navoiyni soʻzlatish maqsadida siyohdonni agʻdarib yuboribdi.

Shunda Navoiy:

– Abdullatif, nega buncha xayolparishon boʻlmasangiz? Siyohdon agʻdarildi-ku, – debdi.

– Kechiring, ustoz, – debdi shogirdi. – Haligi muammoning sababini oʻylab, xayolim qochibdi.

Navoiy aytishga majbur boʻlibdi:

– Husayn Boyqaro: «Boshga baloni nima keltiradi?» deb soʻradi, men «til» deb javob berdim.

Shogirdlar Navoiyning ziyrakligiga yana bir marta tan beribdilar.

OʻRGIMCHAK VA PASHSHA

Pashshaoy Oʻrgimchak toʻraga taqlid qilib yashardi. Oʻrgimchak toʻraning katta-katta tiniq koʻzlari, magʻrur salobati, uzoq vaqt ogʻir sukut ichra tura olishi, oʻzining ipak yoʻllaridan nazokat bilan qa-

dam tashlashi, mardligi – hamma-hammasi Pashshaoy uchun namuna edi. Buni u hech kimga aytmas, bu haqida gapirishni ham o‘rinsiz deb bilar, O‘rgimchak to‘raning nomiga nomunosib so‘zlar ishlatib qo‘yishdan qo‘rqardi.

Yo falak! Bir kuni... Pashshaoyning yurakchasi yorilib ketay dedi. U oliy hazratlari tomonidan ziyofatga taklif etilgan edi.

Bormasinmi, oh?! Bordi! Bu yerda hamma narsa go‘zal edi! Pashshaoy hayajonlanar, O‘rgimchak to‘ra bilan yolg‘iz o‘tirganidan tili tutilib gapira olmas, nafasi siqilib borar edi. U buni bildirmaslikka tirishar, lekin borgan sari negadir holdan toyayotgan edi.

Pashshaoy o‘zining tuzoqqa tushib qolganini, o‘layotganini juda kech payqab qoldi. Juda kech... Lekin shunda ham miq etmadi, faqat joni chiqayotgan paytda bir so‘z deya oldi, xolos:

– O‘lsang ham, eng ishongan kishingning aldovidan o‘lma ekan!...

Bir kuni tulki ovqat izlaganicha har tomonni keza boshladi. Tasodifan bir tovuqqa ko'zi tushib, uni tutishga bel bog'ladi.

Shu payt qulog'iga baland bir ovoz eshitildi. U chor-atrofga qarab, daraxt tepasida turgan yo'g'on gavdali, semiz bir narsani ko'rdi. Ishtahasi ochilib ketdi. O'sha semiz narsaga erishish maqsadida yuz ranj-u kulfat bilan daraxt tepasiga chiqdi va unga chang soldi. O'sha narsaning ichi bo'm-bo'sh bo'lib, havodan o'zga narsa yo'q edi. Tulkining ochko'zligi tufayli nog'ora uning ko'ziga semiz hayvon bo'lib ko'ringani ma'lum bo'ldi. Shamol ta'sirida daraxt shoxlari tebranib, unga urilar va chiqayotgan ovoz hayvon tovushiga o'xshab ketardi. Tulkining dili hasrat o'tidan kuyib, nado-mat yoshlarini to'kdi. So'ngra o'ziga dedi:

– Esiz, bu havodan shishgan narsani deb tayyor ovimni qo'ldan chiqardim, foydasiz bu yo'g'on gavdadan esa hech manfaat yetmadi!

TO'TI BILAN PODSHOH HIKOYASI

Qadim zamonda bir podshoh va uning yoqtirgan to'tisi bor ekan. Podshoh to'tisini yaxshi ko'rar, usiz bir soat ham turolmas ekan. To'ti ham podshohga juda mehribon bo'lib, har turli shirin so'zlar aytib, xursand qilar ekan.

Bir kuni to'ti podshohdan so'rabdi:

– Mening Hindiston degan yurtida ota-onam, aka-ukalarim, opa-singillarim bor, falakning gardishi bilan sizning dargohingizga kelib qolgan edim. Shukurlar bo'lsin, aql-idrokim, yaxshi xulqim, shirin so'zim orqasidan sizday podshoh bilan hamsuhbat bo'ldim. Endi iltimosim shuki, meni qafasdan bo'shatib, yigirma kunga javob bersangiz, olti kun borishim, olti kun kelishimga ketsa, bir hafta ota-onam, aka-ukalarimni ko'rib, diydoriga to'ymog'im uchun yetar.

Podshoh:

– Yo'q, senga javob bersam-u, kelmay qolsang, juda xafa bo'laman, – debdi.

To'ti:

– Podshohim, sizning menga ko'rsatgan iltifotingiz yomon yo'lga boshlamaydi, va'da – ulug', muqaddas narsa, uni buzish

yaramaydi. Va'dani buzmoq og'ir gunoh. So'z beraman – so'zimda turaman, – debdi.

– Xo'p, bo'lmasa, qaytish sharti bilan ikki haftaga ruxsat beraman, – debdi podshoh.

– Xayr, endi qanday bo'lsa ham chiqay, – deb to'ti o'n besh kunga ruxsat olibdi. Devorga qo'nib, xayrlashibdi. Janub tomonga qarab uchib ketibdi. Podshoh orqasidan qarab qolibdi. U to'tining qaytib kelishiga ishonmas ekan.

To'ti olti kun deganda Hindiston mamlakatiga borib, ota-onasi diydoriga yetibdi. Bechora to'ti juda xursand bo'lib tog'dan tog'ga, bog'dan bog'ga, shoxdan shoxga sakrab, uchib, o'ynab-kulib, ota-onasi-ning diydoriga to'yibdi, qarindosh-urug'larinikida mehmon bo'lib, kunlar qanday o'tganini bilmay qolibdi.

Endi yana qafas tomonga, tutqunlikka shoshilmog'i kerak ekan. Ota-onasi, aka-ukalaridan ajralish juda og'ir bo'libdi. Bir tarafda esa va'daga vafosizlik xavfi turarkan. Bechora to'tining shodligi g'amga almashibdi. Qanotlari so'libdi. Yana qaytib kelib, ota-onasini ko'rish nasib qiladimi yo'qmi o'zi ham bilmas ekan. Qarindosh-urug'lari xayrlashgani to'planihibdi. Hammasining ko'zi to'tida ekan.

Qarindoshlari ortga qaytmaslikni maslahat berishibdi. To'ti shunda:

– Yo'q, qaytaman deb va'da berganman, va'daga vafo qilinmasa, uning qadri bo'ladi-mi?

Shunda bir to'ti aytibdi:

– Va'da bergan podshohingda insof bo'lsa, seni uch yil qafasda saqlab, faqat ikki haftaga ruxsat berarmidi? Seni sevar ekan, unga seviklisini qafasda tutmoq yarashadimi? Dunyoga qafasda turmoq uchun keldingmi? Bir kishining xushvaqtligi deb erkinlikni qo'ldan berma! Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiqdir, podshoh bilan sheriga yaqin bo'lmoq hikmatdan emasdir.

Podshohning to'tisi aytibdi:

– Menga bir yo'l ko'rsating, ham erkinlikka chiqay, ham va'da yolg'on bo'lmasin.

Ona to'ti aytibdi:

– Unday bo'lsa, men ham bir maslahat beraman. Bizning joyda bir meva bor, bir donasini yegan qari chol yigitlik holiga qaytur. Kampir esa qiz kabi yoshlik holiga kelur. Podshohga shundan uch donasini olib borgin va evaziga o'zingni butunlay ozod qilishini so'ra, shoyad insofga kelib, butunlay ozod etsa, – debdi.

Bu gap to'tiga ma'qul tushibdi. Shu chog'da uch dona meva olib kelibdilar.

To'ti uni changalida mahkam ushlab, saroy tomonga qarab uchibdi. Qarindoshlari zo'r umid bilan orqasidan qarab qolishibdi.

To'ti olti kun deganda podshohning saroyiga yetib kelibdi. Podshoh bilan ko'rishib, olib kelgan tortig'ini unga beribdi, mevalarning xosiyatini birma-bir aytibdi. Podshoh juda xursand bo'libdi. Uni ozod qilmoqqa va'da beribdi. Bir donasini xotiniga berib, ikki donasini vazirga ko'rsatmoq uchun bir piyolaga solib qo'yibdi. Ertasiga vazirga ko'rsatib, mevaning xosiyatlarini aytibdi. Vazirning hasadi kelibdi. Ichida xafa bo'libdi. Ishni boshqa yo'lga burmoqlikni ixtiyor qilibdi:

– Siz bu parrandaning olib kelgan mevasini yemay turing, podshohim, oldin bir tajriba qilib ko'raylik, durust bo'lsa, yemoq qochmaydi, – debdi.

Bu gap podshohga ma'qul tushibdi. Vazir vaqtini topib, piyoladagi ikki dona yoshartiruvchi mevaga zahar aralashtirib qo'yibdi. Bir kundan keyin vazir aytibdi:

– Endi yoshartiruv mevasini bir tajriba qilaylik. Buning uchun qamoqxonadan ikki nafar odamni olib chiqib yediribdilar. Ikkalasi shu zahotiyoq o'libdi. Vazir afsus bilan debdi:

– Agar bu mevalarni siz yeganingizda nima bo‘lardi?

– Men ham o‘lardim, – debdi podshoh.

Bechora to‘tini qafasdan olib, kallasini uzib tashlabdilar.

Bir kuni podshoh bir odamni qatl etmoqchi bo‘libdi.

Bu kishi kekxa ekan. Unga qolgan bir dona mevani yemoqni buyuribdi. Haligi odam mevani yegan ekan, oqargan sochlari qorayib, tishlari butun bo‘lib, ko‘zlari-ning nuri ortib, yigirma yashar yigit holiga kelibdi. Podshoh vazirdan shubhalanib, piyolani tekshirsa, zahar qo‘shilgani bilinibdi. Podshoh vazirni ham qatl ettiribdi. Bechora to‘tining begunoh o‘lganiga qayg‘uribdi. Shu tariqa to‘ti saroyga yaqin bo‘lganining «mukofoti»ni ko‘ribdi.

QUYONNING HIYLASI

Yovvoyi hayvonlar suvi mo‘l, o‘ti serob bo‘lgan bir o‘rmonda rohat-farog‘atda yashashar, lekin o‘sha yaqinda yashovchi bir sher ularning tinchini buzar edi. Bir kun hayvonlar yig‘ilib, sher qoshiga bordilar:

– Sen hamisha bizni ovlab, rohatingni buzasan, biz esa qo‘rquv ichida ya-

shaymiz. Bugun maslahatlashib, ham seni zahmatdan qutqarish, ham o'zimizning rohatimizni ta'minlash maqsadida shunday xulosaga keldik: agar sen hujum qilib, tinchimizni buzmasang, har kuni ovqat vaqtida senga ichimizdan bir jonivorni keltirib beramiz.

Sher rozi bo'ldi. Bir necha muddat ahvol shu yo'sinda davom etdi.

Bir kuni navbat quyonga yetdi. U do'stlariga dedi:

– Agar meni shoshirmasangiz, ham-mangizni bu qonxo'r, zolimning dastidan qutqaraman.

Hayvonlar dedilar:

– Qani endi, bu ish qo'lingdan kelsa?..

Quyong shoshmasdan sher oldiga ravona bo'ldi. Sherning ovqatlanadigan vaqtida yetib bormadi. Sher ochiqib qoldi, ko'zlari qonga to'lib, tishlarini g'ijirlatib turar edi. Quyonni ko'rgach, na'ra tortib dedi:

– Nega kech kelding, hayvonlar nima qilmoqdalar?

Quyong javob berdi:

– Podshoh omon bo'lsinlar, hayvonlar menga qo'shib yana bir quyonni yuborgan edilar. Yo'lda nogoh bir sher uchrab, shergimni olib qoldi. «Bu podshoh hazratlariga atalgan tortiq, qo'yib yuboring», – desam: «Bu yer mening joyimdir, men kuchda

ham, shon-u shavkatda ham u sherdan ortiqman, shuning uchun bu yerdagi ovlar avval menga tegishli», – deb lof urdi. Men sizga xabar qilish uchun qoshingizga qochib keldim.

Sher g‘azab bilan o‘rnidan sakrab turib:
– Uni menga ko‘rsat! – dedi.

Quyondingga o‘tib, yo‘lga tushdi, sher esa uning ortidan borardi. Quyond bir chuqur quduq labiga keltirdi. Quduq suvi nihoyatda tiniq edi, kimki unga qarasa, o‘z aksini aniq ko‘rardi.

Quyond dedi:

– O‘sha sher shu quduqda, lekin men undan qo‘rqaman, agar meni o‘z bag‘ringizga olsangiz, ko‘rsataman. Sher quyonni quchog‘iga olib, quduqqa qaradi. Quduqda o‘ziga o‘xshash bir sherni va uning quchog‘idagi quyonni ko‘rdi. Shunda quyonni yerga qo‘yib, o‘zini quduqqa otdi va halok bo‘ldi.

FAROSATSIZ O‘RDAK

Bir o‘rdak tiniq suvda oyni ko‘rib, uni baliq deb o‘yladi va suvga sho‘ng‘idi, lekin hech narsa topmadi. Bir necha marta sho‘ng‘ib charchaganidan keyin bu ishning bahridan kechdi.

Bir necha kundan keyin ko'lga rosmana baliqlar suzib keldilar, lekin o'rdak har gal baliq ko'rganida uni oynning aksi gumon qilib, tutib yeyishga harakat qilmadi. Shunday qilib, yanglish tajriba natijasida u hamisha och qolishga mahkum bo'ldi.

TUZOQQA O'ZITUSHDI

Bir qurbaqa ilonga qo'shni edi. Qurbaqa har bolalaganida ilon uning bolalarini yeb ketardi. Qurbaqaning bir qisqichbaqa do'sti bor edi. Bir kuni qurbaqa uning yoniga borib, dedi:

– Ey birodar, menga bir chora ko'rsat. Keyingi paytlarda bir zo'r va shafqatsiz dushman paydo bo'lib qoldi, u bilan olishib yengolmayman, o'zim bu yerga o'rganib qolganim uchun hech qayoqqa ketolmayman. Manzilim go'zal, ob-havosi musaffo, yeri zumraddek yam-yashil.

Qisqichbaqa dedi:

– G'am yema. O'zingdan kuchli dushmani hiyla bilangina yengsa bo'ladi.

Falon joyda larcha degan bir hayvon yashaydi. Sen bir qancha baliq tutib, ularni o'sha hayvonning uyasidan to ilonning iniga cha to'kib bor. U hayvon hid bilib uyasidan

chiqadi. Baliqlarni yeb-yeb, ilonning uyasiga-cha keladi va sen ilondan xalos bo'lasan.

Qurbaqa bu hiyla bilan ilondan qutilibdi.

Bir necha kundan so'ng haligi latcha ovqat izlab, baliq yegan yo'lidan keldi, lekin yemish topmay, qurbaqa va uning bolalarini yeb ketdi.

BIR KUNDA UCH MARTA HOSIL BERGAN DARAXT

Ahmadbek bir kuni ov bahonasida aylanib yurar ekan, yong'oq ekayotgan kekxa bir cholni ko'rib qolibdi.

– Hoy otaxon, nima qilyapsiz? – deya so'rasa, chol:

– Yong'oq ekyapman, – deb javob beribdi.

– Yong'oq kech hosilga kiradi. U qachon voyaga yetadi-yu, siz qachon uning mevasidan bahramand bo'lasiz?

– Men bu daraxtlarni o'zim uchun emas, orqamda qolayotganlar uchun ekyapman. Chunki boshqalar ekkani biz yeganimiz kabi, biz ekan daraxtdan ham boshqalar bahramand bo'lishadi.

Cholning javobidan nihoyatda ta'sirlangan Ahmadbek unga ming tanga in'om qilibdi.

– Siz menga mehnatingning samarasini ko‘rsanmi-yo‘qmi degan edingiz, – debdi qariya lutf qilib. – Ko‘rib turganingizdek, hech kimning daraxti menikichalik tez hosil bermagan.

Ahmadbek uning topqirligidan xursand bo‘lib, yana ming tanga hadya qilibdi.

– Boshqalarning daraxti bir yilda bir marta hosil bersa, sizning nazaringiz sharofati bilan mening daraxtim ikki marta hosil berdi, – debdi bunga javoban chol.

Cholning donoligiga qoyil qolgan Ahmadbek unga yana ming tanga bergan ekan.

IKKI DA‘VOGAR

Bir kuni Horun ar-Rashid qozi Abu Yusufdan:

– Yog‘li holva yaxshimi, bodomli holva? – deb so‘rsa, qozi:

– Men qozi bo‘laman. O‘z ko‘zim bilan ko‘rmaguncha hukm chiqarmayman, – debdi.

Horunning amri bilan darhol ikkala holvani ham olib kelibdilar. Qozi goh unisidan tatirkan, goh bunisidan.

Horun:

– Ha, nega indamaysan, chiqar hukmingni! – desa, qozi:

– Yo amiralmo‘minin, umrim bino bo‘lib bunaqa bir-biridan o‘tadigan da‘vogarlarni ko‘rmaganman. Biri haqida endi hukm chiqaraman desam, ikkinchisi hujjatini og‘zimga tutadi va men nima deyishimni bilmay qolaman! – debdi.

SICHQON BILAN QURBAQA

Bir qurbaqa o‘rmon chetida yashar, goh-goh buloq bo‘yiga chiqib o‘tirar va o‘zini bulbul fahmlab, yoqimsiz ovoz bilan sayrar hamda xushovoz qushlarning ensasini qotirar edi.

Bir kuni sichqon inida ish bilan mashg‘ul edi. Qurbaqaning xunuk ovozini eshitib, hayron bo‘ldi. Xonandaning yuzini ko‘rmoqchi bo‘lib tashqariga chiqdi va uning sovuq basharasi-yu, bema‘ni ashulasidan taajjublanib, qo‘llarini bir-biriga ura va boshini qimirlata boshladi. Qurbaqa bu holni ko‘rib, u menga tahsin o‘qiyotir, deb xursand bo‘ldi va sichqon bilan oshna bo‘lish orzusiga tushdi. Xullas, sichqon bilan qalin og‘ayni bo‘lib oldi. Ular bir-birlariga ajoyib hikoyatlar aytib berib, vaqtlarini chog‘ etar edilar.

Bir kuni sichqon qurbaqaga dedi:

– Qancha vaqtdan beri sen bilan suhbatlashgim kelib, buloq yoniga kelsam, sen suv ostida bo‘lasan, qanchalik baland ovoz bilan chaqirsam ham eshitmaysan.

Qurbaqa dedi:

– To‘g‘ri aytasan, men ham ko‘pdan beri shuni o‘ylayman. Ba‘zan men qirg‘oqqa chiqib seni topolmayman, sen boshqa teshikdan chiqib ketgan bo‘lasan. Men anchagacha muntazir bo‘lib o‘tiraman. Endi bu ishning tadbirini ham o‘zing ko‘rib, muammoni hal etsang.

Sichqon dedi:

– Eng yaxshi tadbir shuki, men bir uzun ip topaman, uning bir uchini sening oyog‘ingga, ikkinchi uchini o‘zimning oyog‘imga bog‘layman. Har vaqt suvning labiga kelib, ipni qimirlatsam, darhol chiqasan. Agar sen ham mening yonimga kelmoqchi bo‘lsang, ipni tortib, meni xabardor qilasana.

Ikkovlari ham bu tadbirni ma‘qul topib, ko‘p vaqtgacha shu usul bilan bir-birlaridan xabardor bo‘lib, ko‘rishib yurdilar. Bir kuni sichqon suv yoqasiga keldi. Qurbaqani chaqirib, suhbat qilay deb turgan edi, nogoh bir laylak balo-qazodek havodan tushib, qurbaqani ko‘tarib uchdi. Qurbaqa laylak tumshug‘ida, sichqon esa pastroq-

da osilgan holda uchib borar edi. Bu holni ko'rgan odamlar hayron bo'lib dedilar:

– Qiziq, laylak o'z odatiga xilof ravishda sichqonni olib ketyapti, axir, hech vaqt sichqon laylakka ov emasdi-ku.

Qurbaqa bilan do'stligining kasofatidan sichqon shu baloga muhtalo bo'libdi. Kimki nojinsga qo'shilsa, oqibati shunday bo'ladi.

JAZOLAR ZANJIRI

Bir o'rmonda bahaybat ona sher yashar, uning qiladigan ishi hamisha qon to'kish edi. Uning Qoraquloq degan muhozimi sherning sitamkorligi va qonxo'rliqi oqibatidan juda qo'rqardi. O'ylab-o'ylab uning xizmatidan ketishga qaror qildi.

Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqonning jahd-u jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoldi.

Daraxt tilga kirib, unga dedi:

– Ey dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqayapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogoh bir ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va uni yutib yubordi.

Qoraquloq bu voqeadan: «Dilozorning jazosi shunday bo'lar ekan», – degan xulosa chiqaribdi.

Shu vaqt boshqa tarafdin tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi.

Qoraquloq bundan ham saboq oldi.

Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to'ygach, boshini ichkariga tiqib olib yotgan edi, bir och tulki kelib qoldi. Tipratikanni ag'aratib, qorniga yozildi. Tipratikan yomg'ir yog'ayapti shekilli deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi. Bo'shashib, qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. Shu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan qornini to'ydirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib, hayron bo'lib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganida bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni yeb tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan uni o'ldirdi. Qoplonning joni hali uzilmay turib, bir otliq o'tib qoldi. Unga qoplonning terisi yoqib qolib,

ovchi bilan urisha boshladi. Keyin shartta qilichini sug'urdi-yu, ovchining boshini taniidan judo qildi va qoplonning terisini olib yo'lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan edi, oti qoqilib, yerga yiqildi va bo'yni sinib, jon taslim qildi.

XAVOTIR

Tulkidan:

– Qachongacha ovqat topolmay och yurasan, sherning xizmatini qilsang bo'lmaydimi? Barcha jonivorlar sherning mu-lozamatini qilib, ovqatidan bahramand bo'lyaptilar-ku? – deb so'rashibdi.

Tulki:

– Men kuni kelib sherning o'ziga ovqat bo'lib qolishdan qo'rqaman, – deb javob beribdi.

CHINGIZXONNI MOT QILGAN BAXSHI

Zolim Chingizxon o'zining to'ng'ich o'g'li Jo'jidan cho'chir edi.

Chunki Jo'ji go'zal rafiqasining qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolgan, uning ta'siri-

dan chiqolmasdi. Shu bois Chingizxon bu o'g'lining saltanat ishlaridan chetroq yurishini istardi. Jo'ji xoqonning to'rt o'g'loni orasida eng qobiliyatlisi edi. Chingizxon o'z qo'li bilan Jo'jini gumdon qilib yuborishga botinmasdi. Otalik mehri hukmdor hisob-kitoblaridan ustun kelaverardi. Ni-hoyat, Jo'ji ovga chiqqan qulay fursatdan foydalanib, Chingizxon uni o'ldirib kelish uchun pinhoni ravishda qotillarni jo'natadi. Jo'ji cho'loqlanib qochayotgan quyonning orqasidan quvlashga qiziqib ketib, pisib kelayotgan qotilni sezmay qoladi va ajalidan besh kun burun o'ladi.

Chingizxon o'g'lining o'limi to'g'risidagi xabarni eshitib, sir boy bermaydi. Aksincha, motamsaro ota qiyofasiga kirib:

– Agar kimda-kim Jo'jining o'lgani haqida xabar tarqatsa, uning og'ziga qo'rg'oshinni eritib quyaman! – deb do'q uradi.

Shu mahal do'mbirasini sozlab olgan yoshgina bir baxshi xoqon o'tirgan o'tovga kiradi-da, motam tutib o'tirgan Chingizxonga qarab «Cho'loq qulon – Jo'ji-xon» nomli termasini dona-dona ohangda kuylay boshlaydi. G'amgin musiqa uzoq davom etadi. Kuy bilan ijro etilayotgan g'am-anduhlarga bardoshi yetmay qolgan Chingizxon:

– Menga Jo‘jining o‘limini eslatishga haddi sig‘gan manavi betamizning og‘ziga qo‘rg‘oshin quyilsin! – deb amr qiladi.

– Shoshmang, xoqonim! – deb xitob qiladi baxshi.

– O‘g‘lingizning o‘limi to‘g‘risida men emas, manavi do‘mbira eslatdi. Uning og‘ziga qo‘rg‘oshin quyish kerak!

So‘z o‘yinida mag‘lub bo‘lgan Chingizxon musiqa asbobini jazolashdan boshqa chora topolmabdi.

ZO‘RAVONNING HALOKATI

Bir maymun o‘rtoqlaridan chetda, o‘rmonning bir burchida yashardi. Bu yerda anjir daraxtlari bo‘lib, u har kuni to‘ygunicha anjir yer, qolganini esa quritib, qishga g‘amlab qo‘yar edi.

Maymun bir kuni o‘z odati bo‘yicha anjir terayotganida tasodifan bir to‘ng‘iz ovchidan qochib, kelib qoldi. Maymunning ko‘zi to‘ng‘izga tushib, kayfi uchib ketdi. To‘ng‘iz ham maymunni ko‘rishi bilan salom berdi. Maymun esa istehzo bilan dedi:

– Agar ilgariroq odam yuborib, xabar bersalar, ziyofat tayyorgarligini ko‘rib qo‘yardik. Endi yaxshi kutib olmasak, aybga buyurmagaysiz.

To'ng'iz dedi:

– Men uzoq yo'ldan kelyapman, nima bo'lsa ham ishtaha bilan yeyman. Takalluf qilmay, bor narsangni olib kel.

Maymun anjir qoqib berdi. To'ng'iz ishtaha bilan yeb oldi, lekin to'ymadi. U maymunga dedi:

– Ey mezbon, qornim to'ymadi, nafsim qonmadi, boshqa daraxtdan ham qoqib ber.

Maymun og'rina-og'rina yana bir daraxtni qoqib berdi. To'ng'iz ko'p o'tmay ularni ham yeb tugatdi, keyin boshqa daraxtga ishora qildi.

Maymun dedi:

– Ey aziz mehmon, insofni unutma. Bir oylik ovqatimni senga berdim. Bundan ortiq karam ko'rsata olmayman.

To'ng'iz g'azablanib dedi:

– Sen necha yillardan beri bu o'rmonda yashab, mevalarini yeb kelasan. Endi o'rmondagi mevalarning barchasi mening nasibamdir.

Maymun dedi:

– Birovning mulkini zo'rlik bilan olish zulm hisoblanadi. Zo'ravonlikning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Zaiflarga ozor berish, begunohlarni ranjitish yaxshi emas.

To'ng'izning jahli chiqib:

– Men seni hozir daraxtdan tushirib, jazoyingni beraman, – dedi va daraxt-

ga tirmashdi. Yuqoridagi bir shoxga oyoq qo'ygan edi, shox sinib, to'ng'iz yiqilib tushdi va halok bo'ldi.

NAFSI YOMON BO'RI

Tulki bilan bo'ri ajralmas do'st bo'lishga ahd qilishdi. Bir kuni chor-atrofi pishiq va baland devor bilan o'ralgan bog' oldidan o'tib qolishdi.

Bog'ni xo'b aylanib, oxiri ko'zlari devordagi kichik bir tuynukka tushdi. Tuynuk tulkiga keng, lekin bo'riga torlik qilardi. Tulki osongina o'tib oldi-yu, lekin bo'ri rosa qiynaldi. Turli nav uzumlar va rango-rang mevalarni ko'rib, ko'zlari yonib, og'izlaridan so'laklari oqdi.

Shunga qaramay, tulki bog'dan chiqib ketishni o'ylab, ulardan kamroq, bo'ri bo'lsa, qorniga sig'ganicha yedi.

Shu payt bog'bon kaltak ko'tarib kelib qoldi va ularni quva ketdi. Xipchabel tulki lip etib teshikdan o'tib qochdi, lekin badnafs bo'ri tuynukka tiqilib qolib, xo'b kaltak yedi.

LOCHIN ISHINI QILMOQCHI BO'LGAN G'OZ

Bir kir yuvuvchi har kuni suv labida kir yuvar va o'sha suvda qurt-qumursqalarni tutib yeb yuradigan bir g'ozni ko'rar edi.

Bir kuni lochin semiz kaklikni tutib kelib, go'shtidan biroz yedi-da, qolganini tashladi. Buni ko'rib, g'oz o'ziga o'zi dedi:

– Bu qush kichkina jussasi bilan katta qushlarni tutib yeydi, men bo'lsam shu haybatim bilan mayda-chuyda narsalarga qanoat qilib yuribman. Endi kattaroq o'ljalarni tutishga harakat qilay.

Shu vaqt bir kabutar qo'nmoqchi bo'lgan edi, g'oz uning ketidan quvib qoldi. Ammo kabutar chap berib, uchib ketdi. G'oz suv labiga yiqildi, boshi bilan loyga botib qoldi. Qutulishga harakat qilib zo'r bergan sari battarroq bota boshladi, kir yuvuvchi yugurib kelib uni ushlab oldi-da, uyiga olib ketdi. Yo'lda uchragan bir do'sti undan so'radi:

– Qo'lingdagi nima?

Kir yuvuvchi dedi:

– Bu lochin ishini qilmoqchi bo'lgan g'oz. O'z ehtiyojidan ortiqcha narsa ketidan yugurib, o'z hayotini barbod qildi.

TULKINING FAROSATI

To'qayda yirtqich sher yashar, bo'ri bilan tulki erta-yu kech uning xizmatida ekanlar.

Kunlardan bir kuni sher bir jonivorni o'ldirib, bo'riga:

– Qani, buni taqsimla! – deb buyuribdi.

Bo'ri o'ljani uch qismga bo'lib, bir qismini sherning, ikkinchi qismini tulkining oldiga qo'yibdi, uchinchisini esa o'ziga olibdi. Bundan sherning fig'oni chiqib, o'z ulushini ham bo'rining oldiga otibdi. Bo'ri qo'rqqanidan dir-dir titrab, nima qilarini bilmay qolibdi.

Sher tulkiga:

– O'ljani boshqatdan taqsim qil! – deb buyuribdi.

Tulki o'ylab ham o'tirmay, har uchala bo'lakni olib, sherning oldiga qo'ydi. Sher tulkining farosatiga qoyil qolib:

– Sen bunday taqsimlashni qayerdan o'rgangansan? – deb so'radi.

– Bo'rining taqsimidan, – deb javob qildi tulki.

Bir podshoh yoshi anchaga borib qolganda o'g'il ko'rdi. Lekin xotini vafot etib, farzandi kasalmand bo'lib qoldi. Mamlakatning hech bir tabibi shahzodani davolay olmadi. Shahzodaning ichi, tishi, qulog'i va ko'zi og'rir edi. Podshoh amir va amaldorlarga farmon berdi:

– Shunday tabib chaqiringlarki, u o'g'limning dardiga shifo topsin.

Vahimaga tushgan saroy a'yonlari zo'r tabib qidirib yurib, bir cho'lga kelib qoldilar. Yarim tunda bir cho'ponning uyida mehmon bo'lishdi. Mehmondorchilik paytida ular cho'ponga podshohning farmonini aytishib, g'am chekishdi.

Narigi xonada bolasini emizib turgan cho'ponning xotini ularning gapini eshitib qoldi. U erini chaqirib, bir shisha suyuqlik berdi va dedi:

– Mana bu dorini ularga bering, shahzodaga yarim qoshiqdan ichirsinlar, ko'ziga surtib, qulog'iga ikki tomchidan tomizsinlar.

Vazir shishadagi dorini oldi va hamroh-lari bilan saroy tomon jo'nadi. Borib, podshohga bo'lgan voqeani aytdi.

Podshohning jahli chiqib, tutoqib ketdi:

– Bu doriga ishonmayman. Bordi-yu, o‘g‘limga bir nima bo‘lsa, men u ayolni qatl ettiraman.

Choparlar borib, cho‘ponning xotinini saroyga olib kelishdi.

U uch kun shishadagi dori bilan shahzodani davoladi. Uning ichi ham, qulog‘i ham, ko‘zi va tishlari ham tuzalib ketdi, o‘zi darmonga kirdi.

Podshoh o‘g‘lining tuzalganini ko‘rib, xursandchilikdan boshi osmonga yetdi.

– Men seni qanday rozi qilay? – dedi u cho‘ponning xotiniga.

– Shohim, menga mol-dunyo ham, shohona qasr ham kerak emas, ona hech qachon o‘z sutini sotmaydi, – dedi ayol.

Oqila xotinning bu gaplariga qoyil qolgan podshoh unga ta‘zim qildi.

SABRNING FOYDASI

Bir ulug‘ kishini tuhmat bilan zindonga tashladilar. U kishi bu holga toqat qilolmay, besabrlik yo‘lini tutib, bezovta bo‘laverdi. Uning yaqin do‘sti bor edi. Shu do‘stiga uning ahvoli haqida xabar berdilar. Do‘sti unga shunday mazmunda xat yozdi:

– «Ey birodar, taqdirga tan berib, sabr va chidam yo‘lini tut, bu kulfat va balo bo‘shingda bor ekan, o‘zingni qiynayverma! Balo va kulfat zindonda sabr va chidam yo‘lini tutsang, ulardan quyidagi xislatlar yuzaga keladi. Birinchisi, gunoh qilishdan qo‘rqasan. Ikkinchisi, sabotlilikni o‘rganasan. Uchinchisi, g‘aflat uyqusidan uyg‘onasan. To‘rtinchisi, ozodlik ne‘mati qadrini bilasan. Beshinchisi, yomon ishlardan yuz o‘girish, tavba qilish baxtiga erishasan. Ol-tinchisi, faqat yaxshilik qilish, yomonlik-dan uzoq bo‘lish fikriga tushasan!»

Zindondagi kishi do‘stining bu xatini o‘qib, sabr otiga mindi, o‘zini-o‘zi ortiqcha qiynash va bezovtalik yo‘lidan tiyildi.

NODONLIK OQIBATI

Bir nodon kishi ko‘z og‘rig‘iga mubtalo bo‘lib, davolanish uchun mol tabibiga murojaat qildi. Mol tabib ko‘zi og‘rigan hayvonlarga ishlatiladigan doridan haligi nodonning ko‘ziga quygan edi, uning ko‘zi ko‘r bo‘lib qoldi. Qarindosh-urug‘lari hokimga shikoyat qilib, tabibni javobgarlikka tortishni talab qildilar. Hokim ular-ga aytdi:

– Bu ishda mol tabib aybdor emas. U tovon to‘lamaydi. Asl aybdor – qarindoshingizning o‘zi. Agar u nodon bo‘lmasaydi, mol tabibiga murojaat qilmasdi.

BA‘ZAN ROSTDAN YOLG‘ON YAXSHI

Bir podshoh bir asirni o‘ldirishga farmon berdi. Sho‘rlik asir hayotdan umid uzib, podshohni so‘ka boshladi.

Podshoh:

– U nima deyapti? – deb so‘radi.

Sofdil vazirlardan biri:

– Ey podshohi olam: «Har kimki g‘azabin ichiga yutar, gunoh qilganning gunohin o‘tar», – deyapti deb javob berdi. Podshohning rahmi kelib, asirni afv etdi.

Sofdil vazirning payini qirqib yuradigan ikkinchi vazir gapga aralashib dedi:

– Biz kabi odamlar podshoh huzurida faqat rost so‘zlashimiz lozim. Bu asir podshohni haqorat qildi va sha’niga yomon gaplar aytdi.

Podshoh bu so‘zni eshitib, qovog‘ini solib dedi:

– Sen aytgan rost gapdan ko‘ra uning yolg‘oni menga ko‘proq ma‘qul tushdi.

Chunki uning yolgʻoni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi, sening rosting esa jinoyatga boshlash uchun aytiladi. Donishmandlar: «Fitna qoʻzgʻatuvchi rostdan maslahatli yolgʻon yaxshi», deganlar.

KAKLIK-LAR GUVOHLIGI

Bagʻdod shahrida bir kishi yashardi. U ovchilik bilan mashgʻul boʻlib, har tomonni kezib yurardi. Bir kuni oʻsha shahar amaldorlaridan biri ovga chiqdi. Ov asnosida charchab, yoʻl chetiga oʻtirib, ovqatlana boshladi. Nogahon haligi kishi ham bu yerga kelib qoldi va dasturxonga taklif etildi. U dasturxon chetiga oʻtirdi va kabob qilib qoʻyilgan ikki kaklikni koʻrib, oʻz-oʻzidan kula boshladi. Atrofda oʻtirganlar undan:

– Ey beadab, ulugʻ kishilar dasturxonda oʻtirib ovqat yeyishayotgan bir paytda bu bevaqt va ahmoqona kulgining sababi nima? Xayolingga qanday bemaʼni fikr kelib qoldi? – deb soʻradilar.

Shunda ularga qarab:

– Bu kulgim ostida ajoyib sir bor, – dedi u.

Dasturxon sohibi boʻlmish amaldorning jahli chiqdi va unga poʻpisa qilib:

– Qanaqa sir?! Gapir tez! – deb buyurdi.

O'zining yomon xislatini yaxshi fazilat deb bilgan boyagi kishi gap boshlabdi:

– Ey xoja, bugun ertalab changalzorda ov qilib yurgan edim, tasodifan hech kimi yo'q bir savdogarga duch kelib qoldim. Uning yonida oltini bor edi. Oltinini tortib oldim. O'zini esa mahkam bog'lab qo'ydim. Uning turli mol-u mato ortilgan otini ham o'zimga oldim. So'ng uni o'ldirishga shaylangan edim, u dod-u faryod qilib: «Meni o'ldirma, molimning hammasini ol! Barini senga berdim! Shaharda bola-chaqam bor! Uyim falon mahallada! O'tinaman, meni qo'yib yubor, bola-chaqalarimning oldiga boray!» – deb yalina boshladi.

Men uning faryodiga quloq solmadim. «Behuda gaplarni aytib, o'zingni urintirma! – dedim. – Baribir foydasi yo'q! Ustodlar: «Kesilgan bosh gapirmaydi», – deganlar. Agar sening so'zingga uchib, tirik qo'yib yuborsam, bu sir bir kuni oshkor bo'ladi».

Shu payt ikkita kaklik uchib kelib, yonimizdagi tosh ustiga qo'ndi. Najot yo'q ekani sezgan savdogar kakliklarga qarab: «Ey kakliklar, mana bu ablah meni begunoh o'ldirmoqda! Sizlar mening holimga guvoh bo'linglar!» – deb qichqirdi. Men unga qarab: «Ey ahmoq, parrandalar guvoh bo'lganini hech ko'rganmisan?» – de-

dim-da, uning boshini tanidan judo qildim va mol-mulkini olib ketdim.

Bu yerga kelib qarasam, o'sha ikki kaklik kabob bo'lib, dasturxon ustida turibdi. Yodimga savdogarning so'zlari kelib, kulgim qistadi. Kulgimning sababi shu vajdan edi.

Amaldor darhol taomdan qo'l tortib, unga qarab dedi:

– Ey badbaxt, bu kakliklar haqiqatan sening qotil ekaningga guvohlik berishdi. Chunki ularni ko'rmaganingda bu sir yopiq qolib ketar edi. O'zing o'z tiling bilan qotilligingga iqror bo'lding! Sen begunoh savdogarni nohaq o'ldirgansan! Sening dilingda zarracha rahm-shafqat va odamgarchilik yo'q! Buni tiling ham aytib turibdi!

Shundan so'ng qotilni mahkamaga topshirdilar.

MEHNAT BILAN TOPILGAN PUL

Bir kishining ulg'ayib ham biror ishning boshini tutmagan erka o'g'li bor ekan. Boshi yostiqqa yetganida so'nggi tilagini izhor etibdi:

– O‘g‘limning mehnat qilib pul topganini ko‘rsam, armonsiz ketardim.

Bu gapni eshitgan onasi erkatoyini chetga chaqirib, cho‘ntagiga pul solibdi.

– Boraqol, o‘g‘lim, ko‘chada o‘rtoqlaring bilan o‘yna-da, kech kirgach, otangga o‘zim ishlab topdim, deb shu pullarni keltirib ber.

O‘g‘il onasi aytganiday qilibdi. Ota esa pulni olibdi-yu, yonib turgan o‘choqqa otibdi.

O‘g‘li indamay chiqib ketibdi.

Ertasiga ham shu hol takrorlanibdi.

Uchinchi kuni ona debdi:

– Senga beradigan pulim qolmadi, bolam. Endi o‘zing ishlab, pul topib kelmasang bo‘lmaydi.

O‘g‘il kun bo‘yi birovlarining eshigida suv tashib, o‘tin yorib, arzimagan uchto‘rt tanga ishlabdi. Otasining qo‘liga olib kelib berib:

– Mana, ota, o‘zim ishlab topgan pul, – desa-da, chol uni ham o‘choqqa tashlabdi.

– Hoy, nima qilyapsiz?! Axir, bu pulni topish uchun kun bo‘yi ishladim-a! – deb o‘g‘il shosha-pisha qo‘lini yonib turgan olovga tiqib, pullarni olibdi. Ota jilmayib:

– Ana endi, bu pulni o‘zing ishlab topganingga ishondim, bolam, – debdi.

Bir kuni kechasi Misrdagi bir jome masjidiga o't tushib, yonib ketibdi. Musulmonlar bu ishni nasroniylardan ko'rib, ularning uylariga o't qo'ya boshlabdilar. Misr sultoni o't qo'yuvchilarni tuttirib, katta maydonga yig'ibdi. Ular qancha bo'lsa, shuncha chek tayyorlashni buyuribdi. Cheklarga dorga osish, qo'lni chopib tashlash, darraga tortish kabi jazo turlari yozilgan bo'lib, kimning chekiga nima tushsa, o'sha jazoni olar ekan. Bir odamning chekiga o'lim jazosi chiqibdi.

– Men o'limdan qo'rqmayman, – debdi haligi odam, – ammo keksa onam bor – uning mendan boshqa hech kimi yo'q.

Uning yonida turgan kishining chekiga darra urish tushgan ekan. U:

– Afsuski, mening onam olamdan o'tgan. Do'stim, sen onangning xizmatini qilib, duosini olishing kerak. Shuning uchun cheklarni almashamiz, – debdi-da, o'z chekini qo'shnisiga berib, o'zi uning chekini olibdi.

OVCHI VA QUSHCHA

Bir qushcha ovchining tuzog'iga tushib qolibdi.

– Meni nima qilmoqchisan? – so'rabdi qushcha.

– Nima qilardim, so'yib yeyman.

Buni eshitib, qushcha yolvora boshlabdi:

– Meni juvonmarg qilma, ey yaxshi odam! Meni yeganing bilan baribir to'yaysan – qorningga urvoq ham bo'lmayman. Undan ko'ra qo'yib yubor, men senga uchta foydali maslahat beraman – ular senga mening go'shtimdan ko'ra ko'proq foyda keltiradi.

Birinchi maslahatimni hozir – qo'lingda turganimda eshitasan.

Ikkinchi maslahatimni uchib, mana shu daraxtning shoxiga qo'nganimda tinglaysan. Uchinchisini esa huv anavi xarsangtoshga borib qo'nganimda aytaman.

– Qani, eshitaylik bo'lmasa, – debdi ovchi.

– Birinchi maslahatim shuki, qo'ldan boy bergan narsangga hech qachon afsuslanma.

Bu maslahat ovchiga juda yoqibdi va qushchani qo'yib yuboribdi.

– Ikkinchi maslahatim shuki, topilmaydigan narsani qidirib ovora bo'lma! – debdi qushcha daraxt shoxiga qo'nib.

– Chindan ham bo'lmasdi. Noiloj, bo-bir to'g'ram go'shtdan ardan so'radilar: xursand bo'lib.

– Uchinchil maslahatim shuki, ybir dar-saga umid bog'lama, – debdi qushcha uzo-roqdagi xarsangtosh ustida turib. Keyin maslahatlarining qanchalik ta'sir qilganini sinab ko'rish maqsadida qanotlarini qoqib, shunday debdi:

– Ey xom sut emgan banda! Meni so'yaningda-ku, ichimda kaptar tuxumiday bebaho marvarid bor edi!

Bu gapdan so'ng ovchi qushchani qo'yib yuborganiga pushaymon bo'lib, uni avray boshlabdi:

– Kel, qushcham, yonimga qayt. Seni toza kunjut-u buloq suvi bilan parvarish qilaman.

– Endi meni so'ymaganingga pushaymon bo'lyapsanmi? – debdi qushcha ovchiga. – Nima, men bergan pand-u nasihatlar darhol esingdan chiqdimi? Ovora bo'lma, endi meni hech qachon tutolmaysan. Sen chindan ham ichimda marvarid borligiga ishonib o'tiribsanmi? O'zim barmoq-day bo'lsam, kaptar tuxumiday marvarid ichimga qanaqasiga sig'sin?

Qushcha shunday debdi-yu, uchib ketibdi.

QILMISHIGA YARASHA JAZO

Bir odamning bir necha sog'in qo'yi bor edi. U sutga suv qo'shib, bozorga olib chiqib sotardi. Bundan xabar topgan cho'pon bir kuni xo'jayinini ogohlantirdi:

– Bunday qilmang, oqibati yomon bo'ladi.

Lekin u quloq solmadi – sutga suv qo'shib sotaverdi.

Bir kuni qo'ylar tog' yonbag'rida o'tlab yurardilar. Birdan dovul ko'tarilib, jala quydi. Tog'dan sel kelib, qo'ylarni oqizib ketdi. Kechqurun qishloqqa cho'ponning bir o'zi qaytib keldi.

– Qo'ylar qani? – so'radi xo'jayin.

– Sutga sen qo'shgan suvlar selga aylan-di va qo'ylaringni oqizib ketdi, – javob qildi cho'pon.

OTA MEHRI

Bir ota-bolani gunohkor bilib, yuz dar-radan urishga hukm qilishibdi. Avval ota-ni yotqizib, yuz darra urdilar – g'ing de-gan ovoz chiqmadi. Keyin o'g'ilni yotqizib, endi bir darra urgan edilar hamki, ota fig'on chekib yubordi. U shunaqangi nola

qilardiki, toqat qilib bo'lmadi. Noiloj, bolani urishdan to'xtab, undan so'radilar:

– O'zing yuz darra yesang-da, g'ing demading, nega endi o'g'lingni bor-yo'g'i bir darra urganlarida shuncha nola qilasan?

Ota dedi:

– Avval darra mening badanimga tekkan edi, shuning uchun chidadim. Endi esa jigarimga tegyaptiki, bunga sira toqat qilib bo'lmayapti.

OCHKO'ZLIKNING JAZOSI

Bir ovchi ohu ovlab qaytayotganida yovvoyi to'ng'iz hujum qilib qoldi. Ovchi kamondan o'q uzib uni yarador qildi. To'ng'iz jon talvasasida ovchining qornini yordi va o'zi ham halok bo'ldi.

Shu payt bir bo'ri kelib qoldi. Qarasa, ovchi, ohu va to'ng'iz o'lib yotibdi. U nihoyatda quvonib ketdi. Lekin ochko'zligi tutib, o'ziga o'zi dedi: «Bu o'ljalarni saqlab qo'yish kerak – og'ir kunlarimda yaraydi. Buguncha kamonga qoplangan teri bilan kifoyalanay».

Shunday qilib, bo'ri kamonni g'ajiy boshladi. Shu payt kamon ochilib ketib, bir uchi bo'rining bo'g'ziga qadaldi – u o'sha lahza-dayoq jon taslim qildi.

OCHOFAT

Bir qishloqi Bagʻdod shahriga kelibdi. Bunday qarasa, novvoy doʻkonida kishi-ning ishtahasini ochadigan nonlar taxlab qoʻyilgan ekan. U nonning hidiga koʻngli mast boʻlib, novvoy oldiga kelibdi-da:

– Hoy birodar, necha pul bersam, qornim toʻygunicha non berasan? – deb soʻrabdi.

Novvoy yesa bitta yo ikkita yeydi-da, deb oʻylab:

– Yarim dinor berib, toʻyguningcha yegin, – debdi.

Ochofat yarim dinorni berib, suv boʻyiga oʻtiribdi. Novvoy non keltiribdi, u esa suvga botirib yeyaveribdi. Novvoy razm solib qarasa, u hali-beri toʻyadiganga oʻxshamaydi. Shunda figʻoni chiqib:

– Hoy birodar, yarim dinorlik non yeyman degan eding, bu zaylda butun novvoyxonamdagi nonimni yeb bitiradiganga oʻxshaysan-ku, – desa, ochofat kishi:

– Muncha sabrsizlik qilasan? Men shu ariqdagi suv tamom boʻlgunicha yeyman, xolos, – debdi.

Qadim zamonda tug'ma ko'r bolakay bo'lgan ekan. U:

– Nega meni bunday yaratding? – deb Tangriga nola qilibdi.

Shu payt: «Sening otang ham, onang ham g'irt yolg'onchi bo'lib, birovning haqqidan hazar qilmas edi», – degan ovoz eshutilibdi.

Kunlardan bir kuni u nimagadir qoqilib yiqilibdi. Nimaga qoqilganini bilish uchun paypaslab qarasa, yarmi yerga ko'milgan toshdek og'ir bir narsa ekan. Bazo'r ko'tarib, yonidan o'tib borayotgan odamdand:

– Mana bu nima? – deb so'rabdi.

– Iye, oltin-ku! – debdi haligi odam hayratlanib.

– Ma, sen ola qol! – debdi bolakay.

– Iye, sen hali oltin nimaligini bilmaysanmi? – deb so'rabdi notanish kishi bat-tar hayratga tushib.

– Oltin haqida ko'p eshitganman, uning qadrini yaxshi bilaman. Biroq bu tillalar meniki emas, – debdi bola.

Yo'lovchi insof-diyonatli odam ekan:

– Oltinlar o'zingga buyursin, – deb yo'li-da davom etibdi.

Bola hayron bo'lib:

– Oltin yo'qotganlar bormi? – deya jar solibdi.

Hech kim indamabdi. Oxir-oqibat oltinlarni olib borib qoziga topshiribdi.

Bu voqeaning ertasiga ertalab bola uyg'onsa, ko'zlari ochilganmish...

SADAQANING FOYDASI

Podshohlardan biri o'z fuqarolariga sadaqa qilishni taqiqlab qo'yibdi. «Agar kimda-kim sadaqa beradigan bo'lsa, uning ikki qo'li kesib tashlansin!» – deb farmon chiqaribdi. Shundan keyin bu mamlakatda hech kim birovga sadaqa bermaydigan bo'libdi.

Kunlardan bir kuni qorni och, o'zi yang'och bir kishi bir eshikni taqillatib, sadaqa so'rabdi. Sohibjamol bir qiz chiqib, harchand:

– Bizda sadaqa bergan kishining qo'llarini kesib tashlaydilar, – demasin, haligi bechora:

– Xudo yo'lida so'rayman, iltimos, biror narsa ber, – deb turib olibdi.

Qizning unga rahmi kelib, ikkita non chiqarib beribdi.

Bu xabar darhol podshohga yetib boribdi – qizning ikki qo‘lini kesib tashlabdilar.

Oradan bir qancha vaqt o‘tib, podshoh onasiga:

– Men yana uylanmoqchiman, – debdi, – biror chiroyli qiz topsangiz.

– Yaqinimizda bir qiz bor – undan chiroylisini topib bo‘lmaydi, – debdi onasi.

– Faqat bir aybi bor-da...

– Qanaqa ayb ekan?

– Ikki qo‘li yo‘q.

Podshoh uni bir ko‘rish istagini bildirgan ekan, onasi borib boshlab kelibdi. Podshoh bir ko‘rishdayoq oshiq bo‘lib, unga uylanibdi. Bu – gadoyga ikkita non sadaqa qilgani uchun qo‘llari kesilgan o‘sha qiz ekan. Podshohning undan ajralmay qolganini ko‘rgan boshqa xotinlari hasad o‘tida yonib, turli fisq-u fasodlar tarqatishibdi, uni buzuqdan olib, buzuqqa solishibdi. Toqati toq bo‘lgan podshoh uni bolasi bilan bir biyobonga eltib tashlabdi.

Bolasini yelkasiga mindirib olgan bechora ayol biyobon bo‘ylab boshi oqqan tomonga ketaveribdi. Yura-yura bir daryoning oldidan chiqib qolibdi-da, chanqog‘ini qondirish uchun sohilga cho‘kkalabdi. Suv ichaman deb engashgan ekan, yelkasidagi bolasi daryoga tushib ketibdi. U dod-u far-yod solganicha qolaveribdi.

Shu payt yonidan ikki kishi o'tib qolib, undan:

– Nega yig'layapsan? – deb so'rashibdi.

– Bolam yelkamda edi, suvga tushib ketdi – qutqarishga ojizman, – debdi yig'lab ayol.

– Bolangni olib chiqib beraylikmi?

– Jon derdim...

Ikkovlon duo qilishgan ekan, shu lahza-dayoq bola sog'-salomat suvdan chiqib kelibdi.

Ular yana:

– Qo'llaring avvalgi holiga qaytishini xohlaysanmi? – deb so'rashgan ekan, ayol:

– Qani endi, buning iloji bo'lsa, – deya yig'labdi.

Ular yana duo qilishgan ekan, ayolning qo'llari o'z holiga qaytibdi.

Shundan keyin haligi kishilar:

– Bizning kimligimizni bilasanmi? – deb so'rashibdi.

– Xudo bilmasa, men bilmayman, – debdi ayol.

– Biz o'sha sen gadoyga sadaqa qilgan non bo'lamiz. Qilgan sadaqang qo'ling kesilishiga sabab bo'lgan edi. Lekin shuni bilib qo'yki, birovga qilingan yaxshilik hech qachon zoye ketmaydi, – degancha ular ko'zdan g'oyib bo'lishibdi.

Podshohlardan birining nihoyatda go'zal qizi bor ekan. Ikki mergan yigit bir vaqtda unga oshiq bo'lib qolibdi. Bularning muhabbatini sinamoqchi bo'lgan malika ikkalasining qo'liga bittadan mil-tiq berib, ovga chiqarib yuboribdi. Kechga yaqin ikkala yigit o'lja bilan xursand qaytishibdi. Biri o'zi otib kelgan to'ng'iz bilan bo'rini malikaning oyog'i ostiga tashlasa, ikkinchisi yoshgina ohu bolasi bilan bulbulni qo'yibdi. Malika ularni imtihon qilish maqsadida:

– Nega sen bo'ri bilan to'ng'iz-u, sen esa go'zal ohu bilan bulbul ovlab kelding? – deb so'rasa, biri:

– Avvalo, yirtqich hayvonlarni otib, boshqa jonivorlarni bevaqt ajaldan qutqardim, bu – savob. Bundan tashqari, ularning terisi odamlarga foyda, – deb javob beribdi.

Ikkinchisi esa:

– Katta narsani hamma ham nishonga olaveradi, men bulbul bilan uchqur ohuni merganligimni ko'rsatish uchun otdim, – deb javob qaytaribdi.

Bularning javobini eshitgan malika:

– Biringdan qahri qattiq jallod, biringdan insonlarga mehribon donishmand chiqadi. Lekin ikkoving ham menga loyiq emassan.

Chunki qahri qattig'ingda mehr yo'q. Mehr-shafqat boringda qahr yo'q. Bu ikki xislat mujassam bo'lmagan kishida haqiqiy muhabbat bo'lmaydi. Mehr ham, qahr ham sevgidan tug'iladi. Sevgi uchun mehrning o'zi yetmaydi. Yomon ko'zlardan, raqiblar ta'qibidan himoya qilish uchun qahr ham kerak! Qizlarga oshiq-u beqaror bo'lib, ularni sevishdan oldin haqiqiy muhabbat nima ekanini bilib kelinglar, – deb ikkovini ham qaytarib yuborgan ekan.

AQL SOLIG'I

Bir kuni ochko'z bir vazir podshohga xushomad qilibdi.

– Shohim, aql solig'i olishni hech o'ylab ko'rdingizmi? Dunyoda kimsa yo'qki, tentakman deb da'vo qilsa! Hamma bir-biridan oshirib soliq to'lashga tushadi!

Shoh mazza qilib kulibdi va:

– Darvoqe, oqilona tadbir! «Topag'on»-liging evaziga soliq solishni sendan boshlayman, – debdi.

YOMONLIKNING QAYTISHI

Podshohlarning oldiga kelib yuradigan bir kishi bor edi.

U har gal podshohning ro‘parasida turib, shunday derdi:

– Senga yaxshilik qilganga yaxshilik qil, yomonlik qiluvchiga esa yomonlik qilma, chunki qilgan yomonligi o‘ziga qaytgusidir.

Bu kishining podshoh huzurida obro‘-e’tiboriga bir kimsaning hasadi kelib, unga tuhmat yog’dirdi:

– Ro‘parangizda turib har xil gaplarni gapiruvchi o‘sha odam ortingizdan sizni og‘zi badbo‘y, deb yuribdi.

Podshoh so‘radi:

– So‘zlaring rostligini qanday bilishim mumkin?

U aytdi:

– Siz uni yoningizga chaqirasiz. U sizga yaqin borganida, qo‘li bilan burnini to‘sib oladi.

Podshoh unga:

– Ketaver, men o‘ylab ko‘raman, – dedi.

U kimsa podshoh oldidan chiqiboq nasihatgo‘y kishini o‘z uyiga mehmonga chaqi-

rib, sarimsoq solingan taomlar bilan siyladi. Mehmondorchilikdan so'ng u podshoh huzuriga bordi va odatdagidek, uning ro'parasida turib:

– Senga yaxshilik qilganga yaxshilik qil, yomonlik qiluvchiga esa yomonlik qilma, zero, qilgan yomonligi o'ziga qaytgusidir! – dedi.

Shunda podshoh:

– Yonimga yaqinroq kel! – dedi.

U podshohning yoniga bordi, sarimsoq hididan podshoh ozorlanmasin deb, qo'li bilan og'zini to'sdi. Podshoh ichida:

– Falonchining gapi rost ekan-da, – dedi. Lekin hech narsa sezmaganday qo'liga qalam olib, unga bir xat yozib berdi va amaldorlaridan biriga olib borishni tayinladi. Bu shohning shunday odati bor edi: birovga hadya yoki mukofot bermoqchi bo'lsa, unga o'z qo'li bilan xat yozib berardi. Ammo bu safargi xatning mazmuni o'zgacha edi: «Xatimni olib borgan kimsani so'yib, terisini shil va ichiga somon tiqib, mening oldimga jo'nat!» U kishi xatni olib chiqayotib, haligi tuhmatchiga duch keldi. Uning ko'zi xatga tushib:

– Bu qanday xat? – deb so'radi.

– Bilmadim, podshoh biror mukofot yozib berdilar shekilli, – dedi nasihatgo'y.

– Shuni menga hadya qilgin, – deb yalindi tuhmatchi. Bu kishi yaqindagina unikida mehmon bo‘lganini o‘ylab, ichida: «Yo‘q desam, uyat bo‘lar!» – deb o‘yladi va:

– Mayli, bu mukofot senga bo‘la qolsin, – dedi.

U xatni oliboq, amaldorning oldiga chopdi. Xatni ochib, o‘qib ko‘rgan amaldor uni so‘yib, terisini shildi va ichiga somon tiqib, podshoh saroyiga jo‘natdi.

Ertasiga nasihatgo‘y kishi podshoh huzuriga bordi va odatda aytadigan gapini yana takrorladi. Podshoh uni tirik holda ko‘rib, taajjubga tushdi va:

– Men bergan xatni nima qilding? – deb so‘radi.

U aytdi:

– Falonchi yo‘limdan chiqib, xatingizni hadya qilishimni so‘ragan edi, unga hadya qildim.

Podshoh aytdi:

– U kimsa odamlarga: «Podshohning og‘zi badbo‘y», deb yurganingni menga yetkazgan edi.

– Men bunday demaganman, – javob berdi nasihatgo‘y kishi.

– U holda nima sababdan o‘tgan gal mening yonimga kelganingda burningni to‘sib olding? – deb so‘radi podshoh.

– O’sha kimsa meni sarimsoq solingan taomlar bilan mehmon qilgan edi. Shu hid sizga yetishini istamagan edim.

Bu so‘zlarni eshitgan podshoh:

– Yomonlik qiluvchining yomonligi o‘zi-ga qaytgusidir, – degan so‘zlaring chin ha-qiqat ekan, sen o‘z martabangga munosib ekansan, – deya nasihatgo‘y kishini muko-fotladi.

SOTIB OLINGAN DO‘STLIK

Buxorolik bir savdogar Chimboyga kelib yurib, bir mulla bilan tanishib qolibdi va qiyomatli do‘st tutinibdi.

Bir safar savdogar Chimboy bozoriga olib kelgan molini sotolmay xunob bo‘lib, qaytarib olib ketishni o‘ylab o‘tirgan ekan, yoniga do‘sti kelib debdi:

– Bunaqa ovora bo‘lib yurguncha, o‘tmagan molingni menga qoldirib keta qolsang-chi?

– Do‘stim, men sotishga o‘rgangan odam-man. Evaziga nima berasan? – debdi savdo-gar.

– Mabodo o‘lib qolsang, janozangni o‘zim o‘qiyman, – debdi mulla.

Savdogar rozi bo‘lib, sotilmagan molini unga qoldirib ketibdi.

Savdogar bu safardan ko'rgan zararini qoplash maqsadida Hirot shahriga borib kelishni niyat qilibdi. Hirot yo'lida kallakesar yo'lto'sarlar ko'p ekan, degan ovoza tarqalibdi. Savdogarning yoniga yo'ldosh, tuyalariga bosh-qosh bo'lib boradigan odam topilavermabdi. Topilganida ham, ko'p pul talab qilibdi. Ana shunda savdogar to'ppa-to'g'ri chimboylik mulla do'stining oldiga borib:

– Men bilan birga Hirotga borishingga to'g'ri kelib turibdi, – debdi.

– Nega? – deb so'rabdi mulla ajablanib.

– Hirot yo'lida kallakesarlar ko'p deyishyapti. Mabodo meni yo'lda o'ldirishsa, janozamni o'qiysan-da, – debdi savdogar.

Mulla noiloj rozi bo'libdi...

OTA QARG'ISHI

Bir o'g'il g'azabga minib, otasiga qo'l ko'taribdi. Ota ham jahl ustida uni qar-g'abdi:

– Iloyo, to'ng'izga aylan!

Qarg'ish qabul bo'libdi. Ota har qancha faryod chekmasin, foydasi bo'lmabdi. Noiloj o'g'lini og'ilga – mollar qatoriga bog'lab, parvarish qila boshlabdi.

Yillar o'tib, nevarasi ham ulg'ayibdi. U o'z otasining og'ilda bog'liq turganini bilmas ekan. O'limi oldidan chol nevarasini yoniga chaqirib, bor haqiqatni oshkor qilibdi:

– Jahl ustida bolamni la'natlaganim uchun ko'zim ochiqligida uni qayta odam qiyofasida ko'rolmadim. Solih farzandning sidqidildan qilgan iltijosigina uni asliga qaytarishi mumkin. Shuni yodingdan chiqarma.

Shu kundan e'tiboran nevara ham to'ng'izga mehr qo'yib, uni parvarish qilishga kirishibdi. Har kuni ovqatning oldini unga kiritib beradigan bo'libdi.

Kunlardan bir kuni yigitning eshigini bir musofir taqillatibdi. Yigit uni hurmat bilan kutib olib, uyining to'ridan joy beribdi. Ovqat suzilganida esa mezbanning birinchi tovoqni mehmon oldiga qo'ymay, og'ilxonaga olib o'tganini ko'rgan mehmon hayron bo'lib so'rabdi:

– O'g'lim, mehmon otangdan ulug' deganlar. Nima uchun birinchi tovoqni dasturxonga qo'ymay, og'ilxonaga olib kirib ketding?

Yigit ming xijolat bilan o'tgan voqeani hikoya qilib beribdi:

– Bobom o'g'lining hajrida dunyodan o'tdi. Ehtimol, otamni odam qiyofasida ko'rish menga ham nasib qilmas...

Shunda musofir:

– Kuyinma, o‘g‘lim, iloyim, otangga bo‘lgan bu mehr-u muhabbating murodingga yetkazsin, – deb duo qilibdi.

Yigit mehmonni kuzatgach, bo‘shagan tovoqni olay deb og‘ilga kirib qarasa, otasi asl qiyofasida turgan emish. Yigit yugurib borib, otasini bag‘riga bosibdi.

KIM ONAM DEYDI, KIM BOLAM

Kunlardan bir kuni bir to‘yda bo‘ldim. Yosh hofiz yigit «Onam derman» degan ashulani aytib qoldi. Bu qo‘shiqni eshitgan qariyalar ko‘zlariga yosh olib, hofizning chakkasiga dasta-dasta pul qistirishdi. Ammo mening ensam qotib, na pul qistirdim va na chapak chaldim. Mening beparvo o‘tirganimni sezgan yonimdagi yigitlardan biri «qizim senga aytaman, kelinim eshit» qabilida sherigiga:

– Hoy shoir aka, sizda ham zavq degan narsadan bormi? Yoki quloqdan Xudo berganmi? – deb menga piching qilib qo‘ydi. Lekin o‘zimni bilib-bilmaslikka solib qo‘ya qoldim. Chunki xayolimda boshqa narsa

edi. Bu bolaning ishi ashulasiga butunlay ters edi.

U: «Onam derman», – deb ashula aytardi-yu, ammo tong otgunicha ostonada buning yo'llariga ko'z tikib, «Bolam derman» deb qon yig'lab o'tirgan onasining dard-u alamlarini unutgan, uning holidan umuman bexabar edi.

SAXOVATNING FOYDASI

Hasan, Husayn va Abdulloh ibn Ja'far haj qilish uchun ketayotganlarida oziq-ovqatlarini yo'qotib qo'ydilar. Ochlik va suvsizlikdan qiynalib borayotib, yo'l chetidagi bir chodirda yolg'iz o'tirgan kampirga duch keldilar va undan tashnalikni qondirgani biror narsa so'rashdi. U:

– Bor, – dedi.

Lekin ular chodirning yoniga bog'lab qo'yilgan bir qo'ydan boshqa narsani ko'rmadilar.

– O'shani sog'ib, sutini ichinglar, – dedi kampir.

Ular sut ichib, biroz o'zlariga kelgach:

– Yegulik uchun nimangiz bor? – deb so'rashdi.

Kampir dedi:

– Shu qo‘ydan boshqa hech narsam yo‘q. Birortangiz shuni so‘yib bersangiz, men sizlarga yegulik pishirib berar edim.

Ulardan biri turib qo‘yni so‘yib, terisini shilib bergan edi, kampir taom tayyorladi. Ovqatlanib, biroz dam olganlaridan keyin mehmonlar kampirga shunday dedilar:

– Biz quraysh qabilasidanmiz. Haj safariga ketmoqdamiz. Salomat qaytsak, biz tomonlarga o‘tishingizni kutamiz va biz ham sizning xizmatangizda bo‘lishni orzu qilamiz.

Ular ketganlaridan keyin ko‘p vaqt o‘tmay, kampirning choli keldi. Kampir unga bo‘lgan voqeani aytib berdi. Chol uning soddaligidan fig‘oni chiqib, dedi:

– Holingga voy bo‘lsin! Tanimagan-bil-magan odamlarga bitta-yu bitta qo‘ying-ni so‘yib berib, yana «qurayshliklar ekan» deysan.

Bir qancha muddat o‘tganidan keyin chol-kampir tirikchilik vajidan Madinaga qatnay boshladilar. Ular u yerda tergan o‘tinlarini sotib, o‘shaning puli bilan kun o‘tkazardilar. Bir kuni kampirni Madina ko‘chalaridagi bir uyning oldida o‘tirgan Hasan ibn Ali ko‘rib, tanib qoldi. Kampir o‘zini tanimay o‘tib ketganini ko‘rgan

Hasan uning ortidan xizmatkorini yubordi. Kampir qaytib kelgach, undan:

– Meni taniyapsizmi? – deb so‘radi.

– Yo‘q, – deb javob qildi kampir.

– Men Hasanman, falon kun sizning mehmoningiz bo‘lgandim.

– Sen o‘shami? – hayron bo‘ldi kampir.

Hasan tasdiq ishorasini qilib, uning hol-ahvolini so‘radi va bozordan mingta qo‘y sotib olib, bu qo‘ylarga yana ming dinor pul qo‘shib, kampirga berdi. Keyin uni ukasi Husaynning oldiga jo‘natdi. Husayn ham kampirga mingta qo‘y bilan ming dinor hadya qildi. So‘ng uni Abdulloh ibn Ja‘far huzuriga yubordi. Abdulloh kampiridan Hasan va Husayn qanday hadya berganlarini so‘ragan edi, kampir:

– Ikki ming qo‘y va ikki ming dinor, – deb javob qildi.

Abdulloh bir o‘zi unga ikki ming qo‘y va ikki ming dinor berib, dedi:

– Agar mendan boshlaganingizda, ularni qiynab qo‘ygan bo‘lar edim.

Shunday qilib, kampir cholining yoniga to‘rt ming qo‘y va to‘rt ming dinor pul bilan qaytdi.

ANTIQA SAXOVAT

Abu Marsad nihoyatda saxovatli kishi edi. Bir shoir uni madh etib she'r yozdi. U shoirga dedi:

– Xudo haqqi, senga beradigan hech vaqoim yo'q. Lekin sen meni qozining oldiga olib bor-da: «Unda o'n ming tanga haqqim bor», – deb da'vo qil. Men iqror bo'laman. Keyin meni hibs qiladilar, qarindoshlarim esa meni shu holatda tashlab qo'yishmaydi.

Shoir uning aytganini qildi va o'sha kuni kech kirmasidanoq unga o'n ming dirham berilib, Abu Marsad ozodlikka chiqarildi.

SABRSIZ MO'MIN

Qadim zamonlarda Mo'min ismli bir bechora yigit durustroq ish axtarib ko'p ellarni keza-keza, axiri bir yurtning podshosi saroyi oldiga kelib qolibdi.

Shu kunlarda xonning yolg'iz qizi xas-talanib yotgan ekan. Tabiblar fikricha, qizning qoshidan jilmay, kun-u tun uni yelpib o'tira oladigan chidamli, ahdiga sodiq, xolis niyatli odam kerak ekan. Qancha tuhfa atalsa-da, bu mushkul ishga hech kimning

yuragi dov bermay, yuragi dov berganlarga esa halollik yetishmay turgan joyi ekan. Mo‘min bu mushkul ishni bajarish istagini bildiribdi. Xon uni sinab, sabrli va pok niyatli ekaniga ishonch hosil qilgach, qizining oldida o‘tirishga ruxsat beribdi. U qizning boshida o‘tirib, uni yelpiy boshlabdi.

Oradan bir yil o‘tibdi, ikki yil o‘tibdi, uch yil o‘tibdi, qiz esa sira tuzalmas emish. Qizining sog‘ayavermaganidan kuyuna-kuyuna xon ham xastalanibdi.

Ajali yetganini sezgan xon:

«Qizim, hushingga kelsang, yuzingni yelpib o‘tirgan kishiga turmushga chiq, u mening o‘rnimga taxtga o‘tirsin, butun mol-dunyom ikkovlaringga nasib qilsin», – deya vasiyatnoma yozib, qizining ko‘ksiga qo‘yibdi. Mo‘min vasiyatnomani ochib ham ko‘rmasdan, avvalgidek qizni yelpib o‘tiraveribdi. Oradan yana yetti yil o‘tibdi.

Kunlardan bir kuni Mo‘minning ko‘chaga chiqqisi kelibdi. Eshik oldida turgan devonadan bir muddat qizning yuzini yelpib turishini so‘rabdi. U tashqariga chiqqach, qiz kutilmaganda ko‘zini ochibdi. Hushiga kelib, ko‘ksida turgan vasiyatnomani ochib o‘qibdi. O‘qibdi-yu, o‘zining anchadan beri behush yotganini anglab:

– Mening qoshimdan jilmay yelpib o‘tirgan senmisan? – deb so‘rabdi devonadan.

– Ha, menman, – debdi devona ham.

– Unda men sening jufti halolingman! – debdi qiz va toj-u taxt devonaga nasib qilibdi.

DILOZORNING QISMATI

Qadimda Qardo’s degan kishi yashagan ekan. G‘ilay ko‘zi uchun emas, qing‘ir ishlari uchun odamlar unga «qiyshiq» degan laqab qo‘yishgan ekan. O‘ziyam «qiyshiq» deganlaricha bor ekan. O‘taketgan toshbag‘ir, ayon ko‘rinib turgan aybini aytsangiz ham, bo‘yniga olmaydigan suvyuqmas, tirik jonga ozor berishdan rohatlanadigan tengi yo‘q dilozor ekan. Ovuldoshlari uning ustidan arz qilib, ovuldan quvib yuborishlarini so‘rab borishganida, oqsoqollar:

– Yana biroz sabr qilaylik, tarbiyalab ko‘raylik, balki insofga kelib qolar, – deyishibdi.

Xullas, uni yig‘in va to‘y-ma‘rakalarga qo‘sha boshlabdilar. O‘sha paytlarda shahar olis bo‘lgani uchun ovuldagilar besh-olti odamni tanlab, ularga topgan-tutganlarini topshirib, bozorga yuborishar ekan. Bir sa-

far ovuldoshlar: «Qardo's qiyshiqqa ham ishonch bildiraylik-chi, qani, ishonchimizni oqlarmikin», – deb, uni besh odamga qo'shib, Xiva bozoriga jo'natishibdi. U bozorga ketayotib, yo'lni kesib o'tib qatnayotgan chumoli galasiga duch kelibdi-da:

– Bu qumursqalar nega mening yo'limni kesib o'tadi? Hammasini o'ldiraman! – deya g'azablanib chumolilarni bir chekkadan toptayveribdi. Hamrohlari:

– Qo'y endi, yur, bozordan kech qolamiz, – desa ham quloq solmabdi.

Axiri hamrohlari uni qoldirib, yo'llarida davom etishibdi.

Xiva bozorida savdo-sotiqni bitirib, ortlariga qaytayotib qarashsa, Qardo's qiyshiq chumoli uyasi ustiga yiqilib tushib o'lib qolgan, qumursqalar esa uning og'izburnidan kirib-chiqib yotgan ekan...

XIZMAT HAQI

Bir kuni bir odam bog'dagi to'nkalarni yordirish uchun bozordan ikkita sarjinchini olib kelibdi. Ishi bitib, haq to'lashga kelganida, qora terga tushib, quchoqqa sig'mas to'nkalarni yorganiga bir tanga, unga maslahat berib yonida turganiga esa besh tanga beribdi.

Buni ko'rganlar hayron bo'lib:

– Hamma mehnatni qilganiga kam haq berib, yonida turganiga ko'p berib, yanglishmadingizmi? – deb so'rashsa, u: – Agar sherigi boltani qayerga solishni, ponani qayerga qoqishni ko'rsatib bermaganida, buning o'zi bir oyda ham buncha ishini qilolmasdi. Yo bolta sinardi, yo boshini yorardi, – deb javob bergan ekan...

HOTAMNING UKASI

Hotam olamdan o'tgach, ukasi uning o'rnini egallab, ishini davom ettirmoqchi bo'libdi. Hotam bir gumbaz soldirgan bo'lib, bu gumbazning yetmishta darchasi bor ekan. Tilanchilar har kuni gumbaz atrofida tizilishib, har biri darchaga qo'l cho'zar va Hotam ularning qo'liga biror nima berarkan.

Hotamning vafotidan so'ng ukasi shu gumbaz ichiga kirib o'tirmoqchi bo'libdi. Onasi unga:

– Bolam, bu niyatingdan qayt, sen ikki dunyoda ham Hotamdek bo'lolmaysan, – desa ham quloq solmabdi.

Shundan keyin ona bolasini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Eski kiyim kiyib, gumbaz-

ning avval birinchi, keyin ikkinchi, so'ng uchinchi darchasiga qo'l cho'zibdi. Hotamning ukasi qo'lni tanib:

– Hoy kampir, hozirgina qo'l cho'zgan eding-ku, uchinchi marotaba tilanchilik qilishga uyalmaysanmi? – deb urishib beribdi.

Shunda onasi o'zini tanitib:

– Bolaginam, sening qo'lingdan bu ish kelmaydi demaganmidim?! Bir kuni akangni sinab ko'rish maqsadida men yetmish darchadan yetmish marotaba qo'limni cho'zib, sadaqa so'rgananman va akang mening qo'limni tanigan bo'lsa ham, biror marta uni bo'sh qaytarmagan va meni mulzam qilmagan edi.

HOTAMNING OTI

Hotamning uchqur tulpori bo'lar ekan. Hotamning saxiyligi rostmi, yolg'onmi, sinash maqsadida bir-ikki odam o'sha tulporni so'rab oldiga boribdi. Hotam ularni kechasi bilan mehmon qilibdi, ertasiga ertalab mehmonlardan biri:

– Biz sizning huzuringizga katta iltimos bilan keldik. Ukamiz uylanmoqchi edi, ammo qiz poygada yutib chiqqan odamga tegaman deb shart qo'ygan. Sizda uchqur-

likda tengi yo'q tulpor bor deb eshitdik, shuni so'rab kelgan edik, – desa, Hotam:

– Bir emas, o'nta shunday otim bo'lsa ham sizlardan ayamas edim. Lekin sizlar kecha tunda keldingiz. Oyoqlaringiz ostiga jonliq so'yay desam, ularning hammasi yaylovda ekan, mehmonning hurmati, ilojim bo'lmaganidan o'sha siz aytgan tulporni so'yib yuborgan edim, – deya javob bergan ekan.

MEROSGA KIM MUNOSIB?

Qadim zamonlarda bir mo'ysafid voyaga yetgan besh o'g'lini yoniga o'tqizib, o'g'rilik, kishi haqiga xiyonat, tuhmat kabi gunohlar haqida tushuntirib, bunday ish qilganlar jazoga tortilishi va merosdan mahrum qilinishini aytibdi.

Kunlar o'tib, farzandlarini sinab ko'rish niyatida ularni shahar tashqarisiga olib chiqibdi. O'zi oldinroq kelib, har yer-har yerga oltin solingan hamyonlarni tashlab qo'ygan ekan.

Ba'zi bir farzandlari oltinlarni ko'rma-gan bo'lsa, ko'rganlari otam bu ishni bizni sinash uchun qilgan bo'lsa, ko'rib qolib, merosdan mahrum etmasin, deya olishga jur'at etmabdi.

Ammo kenja o'g'il yerda yotgan hamyonni ko'rishi bilanoq olibdi-yu, darhol ko'zdan g'oyib bo'libdi. Buni ko'rib qolgan akalaridan biri darhol otasiga bo'lgan voqeani ma'lum qilibdi.

Bu gapni eshitib hayron bo'lgan ota sukutga cho'mibdi, biror gap aytishga shoshilmabdi.

Kechqurun hamma jam bo'lganida kenja o'g'il:

– Sizlardan ajralib, kech qolishimning boisi shuki, yerdagi hamyon ichida oltin tangalar borligini ko'rishim bilanoq yo'qotgan odamning bu pullarni ne mashaqqatlar bilan topib, ne niyatlarda yig'gani-yu, yo'qotgan chog'idagi holati xayolimga kelib, uni tezroq topish uchun yugurdim. Egasi chiqmagach, ko'pchilik ichida bir faqirga xayr qildim, – debdi. Buni eshitgan ota:

– Barakalla, ofarin, butun meros senga bo'lsin! – desa, katta o'g'il:

– Ota, bu ishingiz to'g'ri emas. Yerdagi hamyonni men ham ko'rgan edim, lekin birovning haqi harom, deb olmagandim! Meros menga tegishi kerak, – debdi.

Shunda ota:

– Sening olmasliging birovning haqidan qo'rqishing tufayli emas, olganimni kimdir ko'rib, bundan otam xabar top-

sa, meni merosdan mahrum qiladi deya o'ylashing tufaylidir. Qonun sust joyda sendek odamlar jinoyat qilishdan ham tap tortmaydi. Kimdandir qo'rqib jinoyat qilmaslik to'g'rilik degani emas. Ukang esa e'tiqodi, insonga mehri tufayli shunday yo'l tutdi, – deya javob bergan ekan.

O'G'RINING QISMATI

Bir kishining ko'ngliga o'g'rilik havasi tushibdi va shu «hunarni» o'zlashtirishga jazm qilibdi. Unga Nishopur shahriga bor-sang, pixini yorgan bir o'g'ri bor, o'sha senga ta'lim beradi, deb maslahat berishibdi.

Havaskor o'g'ri Nishopurga yo'l olibdi, o'sha odamni topib:

– O'g'rilik «ilmini» mukammal o'rganish uchun huzuringga keldim, – debdi.

«Ustoz» o'g'rilikdan bir muddat «dars» beribdi, keyin «shogirdining» oldiga taom keltirib qo'yib:

– Qani, chap qo'ling bilan yeb ko'r-chi, – debdi.

Havaskor o'g'ri umrida chap qo'li bilan taom yemagan ekan, ovqatni yeyolmabdi.

Buni ko'rib nishopurlik o'g'ri shunday debdi:

– Tanlagan «hunaring» tufayli qoʻlga tushib qolsang, albatta oʻng qoʻlingdan ayrilasan. Oʻshanda qiynalmaslik uchun hozirdanoq chap qoʻl bilan taom yeyishni mashq qilishing kerak.

Bu soʻzni eshitib, havaskor oʻgʻri oʻziga kelibdi va: «Togʻni tolqon qiladigan shunday qoʻldan mahrum boʻlish xavfini tugʻdiradigan bunday hunarning bahridan kechish kerak», – debdi.

UCH NARSA VA TOʻRT VOSITA

Bir badavlat savdogar bor ekan. Uning farzandlari katta boʻlganlarida ham hech ishning boshini tutmabdilar. Otalarining molini sovura boshlabdilar. Bir kuni ota ularni yigʻib nasihat qilibdi:

– Oʻgʻillarim! Odam bu dunyoda uch narsaga intiladi: biri – yaxshi yashash, ikkinchisi – odamlar orasida yuksak mavqega ega boʻlish, uchinchisi – oxirat savobini topish. Bu uch narsaga esa quyidagi toʻrt vosita bilan erishiladi: halol mehnat bilan davlat toʻplash; qoʻlga kiritilgan davlatni saqlay bilish; isrofga yoʻl qoʻymasdan, davlatini oʻzi, oilasi, aka-ukalari va xayr-ehson

uchun xarjlash, nihoyat, mumkin qadar ziyon keltiradigan ishlardan tiyilish. Bu to'rt shartdan bittasini ham bajarmagan odam o'z maqsadiga yetolmaydi. Chunki odamning davlati bo'lmasa, boshqalarga yaxshilik qila olmaydi; agar davlati bo'lsa-yu, lekin uni xarjlashni bilmasa, sal o'tmay bor-budidan ajrashi ham hech gap emas.

OLIJJANOB KISHILAR

Misrda beva-bechoralar uchun davlat-mandlardan sadaqa to'plash bilan shug'ullanadigan bir kishi bor edi. Odatda, faqir-miskinlar har xil ehtiyojlari tufayli o'sha kishiga murojaat qilar edilar. Bir kuni uning oldiga bir kambag'al kishi kelib, farzand ko'rganini, lekin bolaning kam-ko'stini sotib olishga puli yo'qligini aytib, yordam berishini so'radi. U:

– Men bilan yur! – dedi-da, yordam so'rab kelgan odamni yetaklab bir necha boylarning oldiga olib bordi. Lekin ulardan hech narsa chiqmadi. Shundan keyin u bir saxovatli zot dafn qilingan qabrning oldiga kelib dedi:

– Oллоh seni rahmat qilgay, doimo o'zgalarga yaxshilik qilar eding. Bugun men ne-

cha odamning oldiga borib, go'dak uchun ehson so'radim, lekin ularning hech qaysisi javob qilmadi.

Keyin o'rnidan turib kissasidan bir dinor chiqardi-da, yarmini muhtoj odamga berdi va:

– Mana bu qo'lingga pul tushgunicha senga qarz, – dedi. Hojatmand rahmat aytib, pulni oldi va ketdi. Shu kecha ehson yig'uvchi kishining tushiga marhum saxovatli zot kirib, dedi:

– Hamma gaplaringni eshitdim. Sen uyimga borib bolalarimga ayt, o'choqning tagini kavlashsin. U yerga besh yuz dinor ko'mib qo'ygan edim. Shuni olib senga bersinlar, sen esa pullarni o'sha bechoraga eltib bergin!

Ertasiga u kishi marhumning uyiga borib, uning bolalariga bo'lib o'tgan voqeani va ko'rgan tushini so'zlab beribdi. Ular aytilgan joyni kavlab, o'sha pullarni topishibdi va keltirib berishibdi. U kishi:

– Bu asli sizlarning molingiz, mening ko'rgan tushimning hech qanday ahamiyati yo'q, – desa ham, ular:

– Otamiz marhum holida saxovat qilsa-yu, biz tirik holimizda baxillik qilamizmi? – deb javob qilishibdi.

Ehson yig'uvchi kishi noiloj pullarni olib, haligi faqirga eltib, bo'lgan voqeani

aytib beribdi. Shunda faqir u puldan bir dinor olib, yarmini qarziga to'labdi, yarmini o'ziga olib: «Shu menga kifoya», – debdi va qolganini o'zidan ham kambag'alroq oilalarga sadaqa qilib yuboribdi.

MAYMUNLAR

Tog'da bir to'da maymunlar yashar edi. Qish kelib sovuq kunlar boshlandi. Bechora maymunlar sovuqdan titrar va isinish uchun chora axtarar edilar. Nogoh bir yaltiroq qurtni ko'rib qoldilar. Uni cho'g' deb o'ylab, atrofiga o'tin qaladilar va puflay boshladilar. Yaqinroqdagi daraxtga qo'nib turgan bir qush:

– Bu olov emas, yaltiroq qurt xolos, – deb qichqirar, maymunlar esa uning gapiga e'tibor bermas edilar. Shu asnoda bir o'tkinchi ahvolni ko'rdi va qushga:

– O'zingni ko'p urintirma. Ular so'zingga quloq soladigan, foydasiz ishdan voz kechadiganlardan emas. Ularga nasihat qilish – qilichni toshga urish bilan barobardir, – dedi.

Qush o'tkinchining so'zlariga e'tibor bermay, maymunlarning xatosini tushuntirish uchun daraxtdan tushib, ularning

yoniga keldi. Maymunlar esa qushni o‘rab olib, boshini uzib tashladilar.

DUSHMANINI MENSIMAGANNING AHVOLI

Tom bo‘g‘otiga ikki chumchuq in qurgan edi. Ular navbatma-navbat bolalarini boqish uchun ovqat izlab ketar edilar.

Kunlardan bir kuni oziq izlab ketgan nar chumchuq qaytib kelsa, ona chumchuq in atrofida o‘zini qo‘yarga joy topmay uchib yurgan ekan.

Ona chumchuq dedi:

– Bir lahzaga ketib qaytsam, bir ilon bolalarimizga qasd qilayotgan ekan. Shuncha yalinib-yolvordim bo‘lmadi, keyin tahdid qilishga o‘tdim: «Bu niyatingdan qayt, yo‘qsa, bolalarimning otasi bilan birga sendan qasd olamiz», – dedim. Faryod-u zorimga qaramay, inimizga kirib, bolalarimizni yedi. U hozir ham o‘sha yerda yotibdi.

Ota chumchuq g‘azabdan yonib, nima qilishini bilmay turgan ekan, shu payt uy egasi moychiroqni yoqmoqchi bo‘libdi. Piliqni yondirib, endi chirog‘donga qo‘ymoqchi bo‘lganida, chumchuq uchib kelib,

yonib turgan pilikni olib qochdi va uni bo'g'otdagi inga otdi.

Uy egasi o't ketishidan qo'rqib, darhol tomga chiqdi va bo'g'otni ochib, o'tni o'chirishga urina boshladi. Shu payt ilon olovdan qutulish uchun bo'g'ot ochilgan tomondan boshini chiqargan edi hamki, uy egasining ketmoni uning boshini chirt uzdi.

NADOMAT

Qadim zamonlarda bir xonning yengilmas polvoni bo'lgan ekan. Xon uni tinmay maqtar va: «Uylansang, polvonlik uchun kuching qolmaydi», – deya aldar ekan. Maqtovsuyar polvon oxir-oqibat uylanmaslikka ont ichibdi. Do'st-birodarlarining ham maslahatlariga quloq solmay: «Doimo kuchliligimcha qolaman», – deb ahdida qattiq turib olibdi. Shunda nimjonroq bir do'sti polvonning oldiga kelib:

– Polvon jo'ra, mayli, sen uylanmay kuchingni o'zingda saqlayver, men sen bilan yigirma besh yildan keyin kurash tushaman, – debdi. Polvonning ham qaysarligi tutib:

– Yaxshi, yigirma besh yildan keyin sen bilan kurash tushib, suyaklaringni sindir-

masam, otimni boshqa qo'yganim bo'lsin, – debdi.

– Ko'ramiz, o'shanda nima bo'lishini, – debdi nimjon jo'rasi ham. Ular shartlarini qog'ozga tushirib, xon huzurida ahdlashibdilar.

Ko'z ochib-yumguncha yigirma besh yil ham o'tib ketibdi. Shartlashilgan kuni soch-soqoli oppoq oqarsa-da, hali beli bukilmagan polvon yo'g'on bilaklarini ko'rsatib maydonga chiqib kelibdi.

Narigi tarafdin uning nimjon jo'rasi ham alpqomat uch yigit qurshovida o'rtaga chiqibdi. U avvalgidan ham nimjonlashgan, soch-soqoli oqarib, qaddi yoydek egilgan edi. Buni ko'rgan polvon xoxolab kulib:

– Yoningdagi yigitlarni sochilajak suyaklaringni terdirish uchun ergashtirib kelyapsanmi? – debdi.

– Yo'q, sen mana shu yigitlar bilan kurashasan! – debdi nimjon do'sti.

– Nega endi?! – deya polvon hayron bo'libdi.

– Sen xonning maqtoviga uchib: «Men kuchimni saqlayman», deya uylanmagan-ding. Men esa uylanib, o'z kuchimni yetti bolamga taqsimlab berdim. Haliyam to'rtovini uyda qoldirib, uchovini ergashtirib keldim, xolos. Hozircha shu uchovini yengib ko'r-chi!

– Yasha, azamat! Yutuq seniki! – de-yishibdi atrofdagi odamlar.

Bu gaplarni eshitgan polvon afsus-nadomat bilan peshonasiga mushtlaganicha qolavergan ekan.

O'ZIGA QOLGANDA...

Bir kabutar juda baland daraxt ustiga zo'r mashaqqatlar bilan uya solgan edi. Palaponlari tuxumdan chiqib, uchirma bo'lish vaqtida bir tulki kelib, bolalarini tashlamasang, chiqib hammangni yeyman, derdi. Undan qo'rqqan kabutar har gal tulki aytganidek qilardi. Kabutarining ikki palaponi uchirma bo'lishiga yaqin qolganida bir laylak uchib kelib, o'sha daraxtga qo'ndi. Kabutarni g'amgin ko'rib, hol so'radi.

– Nega xafa ko'rinasan?

Kabutar dedi:

– Bir tulki meni hol-u jonimga qo'y-mayapti. Qay vaqt bola ochsam, u meni qo'rqitib, bolalarimni olib ketadi.

Laylak dedi:

– Bu safar tulki kelganida, endi senga bolalarimni bermayman, qo'lingdan kelsa, daraxtga tirmashib chiq, degin.

Laylak kabutarga shu soʻzlarni uqtirgach, uchib ketibdi. Tulki bu gal ham daraxtning ostiga kelib, oʻz odati boʻyicha doʻq qila boshlabdi. Kabutar esa laylak oʻrgatganidek javob beribdi. Bunday javobni kutmagan tulki soʻrabdi:

– Buni senga kim oʻrgatdi?

Kabutar:

– Laylak oʻrgatdi, – debdi.

Tulki darhol daryo qirgʻogʻiga laylakni izlab kelibdi. Unga qarab debdi:

– Ey laylakjon, shamol oʻng tomondan esganida boshingni qayoqqa oʻgirasan?

Laylak dedi:

– Soʻl tomonga oʻgiraman.

Tulki soʻradi:

– Soʻldan esganida-chi?

Laylak javob berdi:

– Oʻng tomonga.

Tulki dedi:

– Agar shamol har tomondan essa, nima qilasan?

Laylak:

– U vaqtda boshimni qanotim ostiga berkitaman, – debdi.

Tulki:

– Bunday qilish mumkin emas, men ishonmayman. Sen boshingni qanoting ostiga ololmaysan, – deya laylakni avray boshlabdi.

Laylak dedi:

– Olaman.

Tulki dedi:

– Siz bir soatda qiladigan ishni biz bir yilda ham bajara olmaymiz. Siz shunday ishlar qilasizki, unga bizning sira aqlimiz yetmaydi. Siz boshingizni qanotlaringiz ostiga olib, sovuqdan va shamoldan saqlana olar ekansiz. Ana shu mahoratingizni bir ko'rsam edi.

Laylak maqtovdan erib ketib, gapini isbotlash uchun boshini qanoti ostiga olgan ham ediki, tulki bir sapchib uni tutib oldi. Patlarini yula turib, dedi:

– Ey ahmoq! Sen kabutarga yo'l ko'rsatib, hiyla o'rgatding-u, lekin o'z joningni dushmanidan qutqara olmading.

Tulki shu so'zlarni aytib, laylakni yedi-qo'ydi.

CHARXPALAK DUNYO

Qadim zamonlarda Sirdaryo sohilida bir boy yashagan ekan. Bir kuni suv toshqini ro'y beribdi. Boyning to'plab qo'ygan davlati ham, mol-qo'yi ham oqib ketibdi. Boy bir iloj qilib, omon qolibdi. Dir-dir titrab:

– Xudoyim, qolgan umrimni munosib o‘tkazish uchun madad ber! – deb nola qilibdi.

Uni kuzatib turgan yosh bir yigitcha:

– Oqsoqol, yoshingiz yetmishdan oshib ketdi. Shu paytgacha yiqqan-terganingizdan ajraldingiz. Yana qanday munosib umr haqida gapiryapsiz? – debdi piching aralash. So‘ng otiga qamchi urib, ketib qolibdi.

Oradan ancha yillar o‘tibdi. Bir yili qattiq qurg‘oqchilik bo‘libdi. Piching qilgan o‘sha yigitning mol-qo‘ylari qirilib ketibdi, yaqinlari ham ochlik tufayli halok bo‘lishibdi. O‘zi esa qorin to‘ydirish uchun daydib yurishni odat qilibdi. Bir kuni Sirdaryo yoqasida daydib yursa, bir uydan chiqayotgan tutunga ko‘zi tushib, o‘sha tomonga yo‘l olibdi va bir o‘tov qarshisidan chiqibdi. Tovush bersa, bir ayol eshikni ochibdi. Mehmonning ochligini ko‘rib, unga ovqat beribdi.

Birozdan so‘ng o‘tovga soqoli ko‘ksiga tushgan chol kirib kelibdi. Yigit cholni darhol tanibdi. Ovqatlanib bo‘lgach, chol mehmonga yuzlanib:

– Siz meni kalaka qilib ketganingizdan keyin sohil bo‘ylab yo‘lga chiqdim va mana shu ovulga yetib keldim. Bu yerda meni

yaxshi qabul qilishdi, ovqat, issiq kiyim berishdi, yordamlarini ayashmadi.

Ushbu o'tovning sohibasi beva ekan. Biroz o'tgach, ikki yortidan bir butun bino qildik. Tirikchilik bir navi o'tib turibdi. O'shanda men Xudodan shu narsalarni so'ragan edim. Niyatinga yetdim. Yaratganga shukur! Ming marta roziman.

Mana, ko'rib turganingizdek, umrimning qolganini munosib o'tkazyapman. Chirog'im, o'shanda adashgan edingiz. Bundan keyin odamning xatosi sopqonday o'ziga qaytib kelishini unutmangiz bo'ldi.

MUNOFIQ DO'STLAR

Zog', bo'ri va shag'ol sherning xizmatida bo'lib, ularning maskani yo'l ustida edi. Bir kuni bir tuya adashib o'rmonga kelib qoldi. Sherni ko'rgach, unga bosh egib salom berdi. Sher ham muloyimlik bilan bu yerga qanday kelib qolganini surishtirdi. Tuya ahvolini gapirib bergach, sher:

– Endi nima qilmoqchisan? – deb so'radi.

Tuya dedi:

– Shohim nimani ixtiyor etsalar, shu bo'ladi.

Sher dedi:

– Xohlasang, mening yonimda qolib, rohat-farogʻatda yashashing mumkin.

Tuya buni eshitib, shod-u xurram boʻldi, oʻsha oʻrmonda oʻtlab, semirib yuraverdi.

Kunlardan bir kuni sher ovda mast filga duch keldi. Oʻrtalarida shiddatli jang boʻldi. Sher ogʻir yarador boʻlib, ingray-ingray oʻrmonga qaytdi. Bir necha kun ovga chiqa olmadi. Sherning oviga sherik boʻlib yurgan boʻri, zogʻ va shagʻol och qoldilar. Buni sezgan sher ularga dedi:

– Och qolib qiynalayotganga oʻxshaysizlar, yaqin-atrofdan biror ov koʻrsangiz, xabar beringlar, men uni ushlab parchalay. Sizning ham qorningiz toʻyadi, mening ham.

Ular tashqariga chiqib, maslahat qildilar:

– Tuya bizning oramizda ortiqcha. Uning sherga nima naf-u bor-u, bizga nima foydasi? Hech birimizga oʻrtoq boʻla olmaydi. Sherga aytaylik, uni yesin, qoldigʻi bizga tegsin.

Shagʻol dedi:

– Bu gapni sherga aytib boʻlmaydi, chunki sher unga omonlik berib, oʻz xizmatida olib qolgan. Kimki podshohni xiyonatga yoʻllab, ahd-paymonni buzishga daʼvat etsa, oʻzini balo tuzogʻiga tashlagan boʻladi.

Zogʻ dedi:

– Bu yerda shunday hiyla ishlatish kerakki, podshohning oʻzi ahdini buzishga majbur boʻlsin. Sizlar shu joyda tek turinglar, men hozir kelaman.

Zogʻ uchib sher qarshisiga bordi va taʼzim qilib turdi. Sher soʻradi:

– Biror narsa topdingizmi?

Zogʻ dedi:

– Ochlikdan koʻzlarimiz hech narsani koʻrolmayapti. Agar podshoh rozilik bersa, hammaga yetadigan bir narsa bor.

Sher soʻradi:

– U nima ekan?

Zogʻ dedi:

– Tuya oramizda begona. Uning bu yerda yurishidan sizga hech foyda yoʻq.

Shoh gʻazab bilan dedi:

– Bu gaping insof va muruvvatdan emas, buni vijdon qabul qilmaydi. Men tuyaga bergan vaʼdamni qanday buzaman?

Zogʻ dedi:

– Buning ham yoʻlini oʻylab qoʻydim. Donishmandlar aytibdilarki, falokat yuz berganida bir kishini bir oila uchun, bir oilani bir qabila uchun, bir qabilani bir shahar uchun, shahar aholisini esa mamlakat uchun fido qilsa boʻladi. Mening aytganimni qilsangiz, ahd ham buzilmaydi siz ham ochlik tahlikasidan qutulasiz.

Sher uning gaplarini boshini quyi solib eshitdi.

Zog' o'z do'stlari qoshiga qaytib kelib dedi:

– Sher boshida g'azablanib, gapimga quloq solgisi kelmadi, oxirida indamay qoldi. Endi maslahat shuki, hammamiz tuyaning oldiga borib, sherning ochlikdan azob chekayotganini gapirib beraylik. «Sherning davlati soyasida to'q va shod-xurram kun kechirdik. Agar endi boshiga og'ir kun kelganida shoh uchun jonimizni fido qilmasak, nonko'r bo'lamiz». Keyin sherning yoniga boramiz-da, uning bizga katta iltifotlar ko'rsatganini e'tirof etib, jonimizni unga qurbon qilishga tayyorligimizni aytamiz. Har birimiz navbat bilan: «Shoh bugun meni yesinlar», – deymiz. Boshqalarimiz: «Yo'q, meni yeng», – deb turib olamiz. Shunday qilib, biz ham sherga bo'lgan minnatdorchiligimizni izhor etamiz, ham omon qolamiz.

Ular aldab-suldab tuyani ham o'z so'zlariga ko'ndirdilar. Tuya sher huzuriga borishga rozi bo'ldi. Hammalari podshohning qoshida bosh egib ta'zim qildilar.

So'zni zog' boshladi:

– Shohning umri uzun, davlati boqiy bo'lsin! Bizning tirikligimiz shohning

sog'lig'iga bog'liq. Shohning boshiga musibat tushganidan keyin bizning yashashimizning nima ma'nosi bor? Bo'yim kichkina va vujudim zaif bo'lishiga qaramay, men o'zimni shoh hazratlariga fido qilishga qaror qildim. Agar shoh mening go'shtimni yemoqchi bo'lsalar, marhamat, tayyorman.

Boshqalar dedilar:

– Sening go'shting bilan kim to'yadi?

Shag'ol so'z boshladi, u ham zog'ga o'xshab o'zining fidokorligidan lof ura boshladi. Sheriklari unga:

– Sening go'shting sassiq va zararli, shohga loyiq emas, – dedilar.

Undan keyin bo'ri gap boshlab, o'z go'shti yaxshiroq ekanini aytdi. Sheriklari bo'riga ham e'tiroz bildirib:

– Sening go'shting qattiq, tomoqqa tiqilib qoladi. Seni ham yeb bo'lmaydi, – dedilar.

Navbat bechora tuyaga yetdi. U makkor sheriklarining «samimiy»ligiga ishonib, o'z go'shtining lazzatliligini maqtay ketdi. Hammalari bir ovozdan uning so'zini quvvatladilar. Keyin esa:

– Juda to'g'ri va chin yurakdan gapiryapsan, o'zing chiroylisan, go'shting mazali, podshoh hazratlarining mijoz-

lariga juda mos kelasan, – deya tuya ustiga yopirilib, bechorani nimta-nimta qildilar. Shu tariqa tuya hiyla tuzog'iga ilinib, halok bo'ldi.

ADABINI YEGAN MUTTAHAM

Bir kishi shahardan chiqib, shakarqamish dalasiga duch kelibdi. Shirin poyalardan shimgisi kelibdi va o'zini tutolmay dalaga qarab debdi:

– Ey dala, menga uch-to'rtta poyangdan bersang-chi?!

Keyin yana o'zi dala nomidan javob beribdi:

– Mayli, besh-oltita olaqol.

Shu tariqa u o'ziga-o'zi ruxsat berib, besh-oltita poyani sug'uribdi-da, yo'li-da davom etibdi. Shakarqamish poyalari unga yoqib qolibdi va har kuni keladigan bo'libdi.

Dalaning egasi esa kimdir shakarqamish o'g'irlayotganini sezib qolibdi. «Kim bo'ldi ekan u ablah? Berkinib poylayman-da, la'nati o'g'rini tutib olaman», – deya niyat qilibdi u.

Shunday qilib, dala egasi o'g'rini poylay boshlabdi.

Ertasiga boyagi kishi kelib, odatdagiday daladan «ruxsat so'rabdi».

Shunda dala egasi berkinib turgan joyidan chiqibdi-da, unga qarab baqira ketibdi. Haligi kishi esa o'zini yo'qotmay xotirjam javob qaytaribdi:

– O'zingni bos, bekorga g'azab qilma. Har gal poyadan sug'urib olishdan avval dalangdan ruxsat so'rayman.

Dala egasi hayron bo'libdi:

– Qanday qilib ruxsat so'raysan?

U ham har gal nima qilsa, to'la-to'kis bajarib ko'rsatibdi. G'azablangan dala egasi uning qo'l-oyog'ini bog'lab, quduq oldiga sudrab kelibdi-da, so'rabdi:

– Qudug, hoy quduq, ayt-chi, mana bu tentakni necha marta sho'ng'itay – uch martami yo to'rt marta?

Keyin o'zi quduq nomidan javob qilibdi:

– Besh-olti marta.

Shunday qilib, dala egasi «ruxsat so'raydigan» o'g'rining toza adabini beribdi va boshqa bunday qilmaslik sharti bilan qo'yib yuboribdi.

MULOYIMLIK

Bir kuni vazirdan so‘rashibdi:

– Podshohlarga qaysi sifatlar zarur?

Vazir aytdi:

– Muloyimlik, xushmuomalalik va xushxulqlik. Chunki xalq bu sifatlarga ega podshohni maqtab, duo qiladi. Qo‘l ostidagilari esa uni rozi qilishga intiladi.

Podshohlik – xalq duosi va intizomli lashkarlar bilan mustahkam bo‘ladi. Xushmuomalalik vositasida gunohkorlarga qo‘pollik va qo‘rqitish bilan berib bo‘lmaydigan tarzda hikmatli jazo bersa bo‘ladi.

Aytishlaricha, xushmuomala va muloyim podshoh bo‘lgan ekan. U bir kuni oshpaziga:

– Falon ovqatni pishir! – deb buyuribdi. Oshpaz aytilgan taomni pishirib, yana boshqa taomlar bilan podshohning oldiga keltiribdi. Podshoh o‘zi buyurgan ovqat ichidagi pashshani ko‘rib, sekin olib tashlabdi. Taomdan bir luqma olgan ekan, undan yana pashsha chiqibdi. Keyingi luqmada ham yana o‘sha hol takrorlanibdi.

Podshoh bu ovqatdan qo‘l tortib, boshqa taomlardan tanovul qilishga kirishibdi.

Dasturxon yig'ib olingach, u oshpazni chaqirib, shunday debdi:

– Men uchun tayyorlagan ovqating juda shirin bo'libdi. Ertaga ham shu ovqatdan pishir. Faqat bu safar ichidagi pashshasi kamroq bo'lsin!

Hozir bo'lganlar podshohning hech bir qo'polliksiz, muloyim so'zlar bilan oshpazini jazolaganiga qoyil qolibdilar.

MULOYIMLIK BELGILARI

Bir vazirdan so'rashibdi:

– Muloyimlik qanday bo'ladi?

U javob beribdi:

– Muloyimlik nishonalaridan biri shuki, qovoq solib, qattiq gapirgan odamga ochiq yuz va shirin so'z bilan javob beriladi. Yomon fe'li bilan qalbgaga ozor bergan odamga yaxshi fe'l bilan javob qaytariladi.

Muloyimlikning ikkinchi nishonasi – g'azab o'ti lovullab, uning dahshati had-dan oshsa-da, o'zini tutib, uni o'chirishdir. Shunday qilinganda kishining ruhi ham taskin topadi. Uchinchisi – gunohkorni jazolash paytida g'azab o'tini so'ndirib, chuqurroq o'ylab ish tutishdir.

Shuni ham bilmoq kerakki, ba'zi vaqtlarda g'azab muloyimlikdan yaxshiroqdir. O'zidagi tama va hirsni yo'qotish uchun qilingan g'azab foydalidir. Oqil kishi g'azab hamda muloyimlik qayerda va qaysi paytda ish berishini bilishi, ularni o'z joyida ishlatishi lozim.

UCH BALIQ

Yo'ldan uzoq, o'tkinchilardan holi bir yerda ko'l bo'lib, unda uch baliq yashar, ikkisi aqlli va ehtiyotkor, biri esa yosh va tajribasiz edi.

Kunlarning birida tasodifan ikki ovchi ko'l yonidan o'tib qoldi. Ko'zlari uchta baliqqa tushdi va ertaga kelib ularni tutishga va'dalashib, jo'nab ketdilar. Bu holdan baliqlar ham xabardor bo'ldi.

Ularning biri tadbirli bo'lib, hayoti davomida keraklicha tajriba orttirgan edi.

U darhol ehtiyot chorasini ko'rди: suv kelar tarafdin chiqib, boshqa ko'lga borib oldi. Ko'p vaqt o'tmay baliqchilar kelib, suvning kirar va chiqar tomonini mahkam berkitdilar.

Birinchi baliqqa nisbatan tajribasizroq, lekin aql va farosatdan mahrum bo'lma-

gan ikkinchi baliq vaziyatni ko'rib shunday dedi:

– Fursatni qo'ldan berdim, g'ofillikning oxiri shunday bo'ladi. Endi tadbir va hiyla qilish payti keldi. Tipirchilab u yoq-bu yoqqa qochgan bilan foyda yo'q. Umidsizlikka tushmay, najot yo'lini axtarmoq kerak.

Shunday deb, baliq suv yuziga qalqib chiqdi va o'zini o'lganga solib yotdi. Bir baliqchi uni olib, o'lgan gumon qildi va suv chiqib ketadigan ariq bo'yiga tashladi. Baliq sudrala-sudrala oqar suvga tushib oldi, ko'rgan tadbiri tufayli o'z jonini qutqardi.

Nodon baliq esa o'zini yo'qotib, u yoqdan bu yoqqa qochar, goho suv ostiga sho'ng'ir, goho yuzaga chiqar edi. Oxir-oqibat u baliqchilar to'riga tushdi.

TOSHBAQA BILAN CHAYON

Toshbaqa bilan chayon do'st edilar. Ular bir kuni safarga otlandilar. Nogoh yo'lda bir anhorga duch keldilar. Chayon o'ta olmasligini sezib to'xtadi.

Toshbaqa dedi:

– Ey aziz do'stim, senga nima bo'ldi, g'amgin bo'lib turibsan?

Chayon dedi:

– Birodar, men bu anhordan qanday o'taman, deb hayronman.

Toshbaqa dedi:

– G'am yema, orqamga mindirib, seni narigi qirg'oqqa bexatar o'tkazib qo'ya-man.

Toshbaqa chayonni orqasiga mindirib, suvga tushdi. Suzib borayotganida uning qulog'iga bir narsaning tiqirlagani eshitildi va chayondan so'radi:

– Eshitayotganim qanday ovoz? Nima qilyapsan o'zi?

Chayon javob berdi:

– Nishimni qalqoningga sanchib ko'r-yapman.

Toshbaqa dedi:

– Men o'zimni suvga tashlab, seni narigi qirg'oqqa bexatar o'tkazmoqchi bo'lsam-u, sen orqamga nish ursang. Bila-sanki, nayzang mening qalqonimga zarar yetkazolmaydi.

Chayon dedi:

– Mening odatim shu: xoh do'st orqasiga, xoh dushman siynasiga bo'lsin, nish urish.

Shunda toshbaqa:

– Yomonga yaxshilik qilma, deb bekorga aytmaganlar, – deya suvga bir sho'ng'igan ekan, chayon cho'kib ketibdi.

SHOH QIZINING HIYLASI

To'rt o'rtoq safarga chiqishibdi. Yo'lda bir kishi ularga hamroh bo'libdi. Hali-gi odamning yonida qimmatbaho gavhar bo'lib, uni bir qutichaga solib olgan ekan.

To'rt o'rtoqdan biri bu sirdan voqif bo'libdi va qulay fursat topib, qutichani o'g'irlabdi. Gavhar egasi bir mahal qara-sa, quticha yo'q. Bularga har qancha ta-vallo qilmasin, hech biri gavharni oldim, demabdi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushib, bu-larga ergashib boraveribdi. Nihoyat, bir mamlakatga yetib kelishibdi. Gavhar ega-sining safardan maqsadi shu yerga kelish ekan. U darrov podshoh oldiga borib:

– Men xazinangizda yo'q bir gavhar-ni sizga olib kelayotgan edim, yo'lda to'rt kishiga hamroh bo'lib qoldim, ulardan biri gavharni o'g'irladi. Qancha iltimos qilsam ham, qaytarib bermadi, – debdi.

Podshohning amri bilan to'rt gumon-dorni qamoqqa olibdilar. Qancha qiyin qis-tovga olsalar ham hech biri iqror bo'lmab-di.

Podshohning husn-u latofat va aql-u farosatda tengi yo'q bir qizi bor ekan. Dadasining xayol ummoniga g'arq bo'l-ganini ko'rib, qiz shunday debdi:

– Bu to‘rt kishini menga topshiring, men ilm-u hikmat ishlatib, gavhar kimdaligini aniqlayman.

Podshohning amri bilan to‘rtala mahbusni qizning huzuriga olib kelishibdi. Qiz bandilarning oyog‘idan kishanlarni yechib, ularga zarbof to‘n kiygizishlarini buyuribdi. Keyin to‘rtoviga qarab:

– Sizlar jahongashta odamsiz, shuning uchun har kuni mening huzurimga kelib, ko‘rgan-bilgan hodisalaringizdan aytib berasiz, – debdi.

Borib-borib, ular bilan hamsuhbat bo‘lib olibdi.

Bir kuni malika ularga shunday debdi:

– Shu kunlarda mushkul bir muammo chiqib qoldi. Biz juda ko‘p kishiga murojaat etdik, hech kim bu masalani yecholmadi. Sizlar ko‘pni ko‘rgan jahongashta odamsiz, masalani aql-u idrok bilan yecha olasiz, degan umiddaman.

– Marhamat, bajonidil, – deyishibdi ular.

Podshohning qizi gap boshlabdi:

– Bir podshohning qizi bor ekan. Bir kuni uning tushiga olovdek lovvullab turadigan bir gul kiribdi.

Malika menga shunday gul topib kelinglar deya buyruq beribdi. Hech kim bunday gulni topa olmabdi. Oxir-oqibat saroy

bog‘bonining o‘g‘li malika tushida ko‘rgan gulni topib kelibdi.

Xursand bo‘lib ketgan malika bog‘bonining o‘g‘liga:

– Tila tilagingni, – debdi.

Bog‘bonning o‘g‘li yosh va qiziqqon ekan:

– Bilaman, sening vasling menga nasib etmaydi. Shunday bo‘lsa ham, turmushga chiqishdan oldin birgina uchrashuvga meni loyiq ko‘rsang, – debdi. Shoh qizi bu iltimosga ko‘nibdi.

Birmuncha vaqtdan keyin malika turmushga chiqadigan bo‘libdi. Nikoh kechasi eriga shunday debdi:

– Men bog‘bonning o‘g‘liga va‘da berganman. Va‘daga vafo qilmaslik to‘g‘ri ish emas.

Kuyov noiloj ruxsat beribdi. Qiz yo‘lga tushibdi. Bir mahal ro‘parasidan bir sher chiqibdi va malikaga hamla qilmoqchi bo‘libdi.

Qiz unga shunday debdi:

– O sher, bilaman, ajalga chap berib bo‘lmaydi. Ammo bog‘bonning o‘g‘liga va‘da berganman. Hozir o‘sha va‘damga vafo etgani ketyapman. Ozgina fursat bersang, berib kelsam, keyin o‘zimni sening ixtiyoriga topshiraman, – debdi.

Sher rozi bo'libdi. Birmuncha yo'l yurganidan keyin malika qarshisidan bir o'g'ri chiqibdi. O'g'ri qizning husn-u jamoli va zeb-u ziynatini ko'rib, uning yo'lini to'sibdi.

Qiz unga shunday debdi:

– Agar mard bo'lsang, ahdiga vafo qilish uchun ketayotgan qizga ruxsat ber. Keyin men sening ixtiyoringda bo'laman. Istasang zeb-u ziynatlarni, istasang jonimni olishing mumkin bo'ladi.

O'g'ri ham uni qo'yib yuboribdi.

Va nihoyat malika manzilga yetib kelibdi. Bog'bonning o'g'li uni ko'rib, oyog'i ostiga bosh qo'yibdi.

Malika unga:

– Men o'sha ahdimga binoan keldim, – debdi.

Bog'bonning o'g'li yer o'pib:

– Men yoshlik, nodonlik qilibman. Sizdek ahdiga vafoli qiz qayoqda-yu, men qayoqda! Eson-omon uyingizga boring va bunday iltimos uchun meni kechiring, – debdi.

Malika o'g'rining oldiga qaytib boribdi.

O'g'ri:

– Bu qiz, ahd-u paymon borasida aql bovar qilmaydigan jasorat ko'rsatibdi. Nahot men erkak bo'la turib mardlik qila olmasam? – debdi-yu, qizni qo'yib yuboribdi.

Qiz sherning oldiga kelibdi va bo'lgan voqeani aytib beribdi. Sher tilga kirib, shunday debdi:

– Men sher emas, sher suratiga kirib, olgan bir devman. Modomiki, ahdingga go'zal tarzda vafo qilibsan, endi seni o'ldirolmayman. Bor, eson-omon uyingga qayt!

Shunday deya hikoyasini tugatgan malika to'rtovlonga qarab debdi: – Men shu to'rt kishidan qay biri mardroq ekanini bilmoqchiman.

Birinchii o'rtoq:

– Bog'bonning o'g'li mard ekan, o'z oyoq'i bilan kelgan malikadan uzr so'rab, ketkazib yuboribdi, – debdi.

Ikkinchisi:

– Sher qiyofasidagi dev mardroq ekan, bo'lmasa och bo'lishiga qaramay, shunday ovdan voz kecharmidi, – debdi.

Uchinchisi:

– Malikaning eri mard ekan, mard bo'lmasa, ko'ra-bila turib, o'z xotinini bog'bonning o'g'li oldiga yuborarmidi, – debdi.

To'rtinchisi:

– O'g'ri mardroq ekan, bo'lmasa shuncha zeb-u ziynatning bahridan osongina o'tarmidi, – debdi.

Suhbat tugaganidan keyin podshohning qizi otasi huzuriga borib, shunday debdi:

– Bu to‘rt kishining tabiatini bilib oldim, otajon. Bog‘bonning o‘g‘lini maqtagan odam xotin-xalajga moyilroq kishi. Sherni maqtagan kishi nafs bandasi, uning xayolida yeyish, aysh-ishratdan boshqa narsa yo‘q. Qizning erini maqtagan odam – hamiyatsiz erkak. O‘g‘rini mardga chiqargan odam esa gavhar o‘g‘risi, chunki har kim o‘z hunarini maqtaydi. O‘g‘rilik va xiyonat uning hunari bo‘lgani uchun ham o‘g‘rining bu qilmishi uning ko‘ziga mardlik bo‘lib ko‘rindi.

Shundan keyin o‘g‘rini maqtagan odamni qaytadan tintuv qilishibdi va gavharni topishibdi.

ILON – ILONLIGINI QILADI

Karvonlar yoqib ketgan gulxanning uchqunini shamol uchirib, dashtga o‘t ketgan edi. Ot mingan bir kishi o‘sha yerdan o‘ta turib, olov o‘rtasida bir ilonning to‘lg‘anib yotganini ko‘rdi. U o‘t balosidan qutula olmay, zaharli ko‘zlaridan qonli yosh to‘kib, suvoriyga yalindi:

– Marhamat qilib, meni bu do‘zaxdan qutqar – savob bo‘ladi.

Suvoriy rahmdil kishi edi. U ilonning zorini eshitib, bechoraga yuragi achidi. Garchi odamzodga dushman bo'lsa ham, hozir qiyin ahvolda qolibdi, uni bu balodan qutqarsam, savob bo'lar, deb o'yladi. To'rvasini nayza uchiga bog'lab, ilon tomonga uzatdi. Ilon sevinib, to'rvaga kirdi. Suvoriy to'rvani olovdan oldi va ochib, ilonga dedi:

– Bor, eson-omon qutulganingga shukur qilib, uyingga ket. Bundan buyon hech kimga ozor berma.

Ilon dedi:

– Ey yigit, bu so'zlaringni qo'y. Men seni va otingni chaqib, zahrimni solmay ketolmayman.

Suvoriy dedi:

– Axir, senga yaxshilik qildim, seni olovdan qutqardim, shumi gunohim?

Ilon dedi:

– Ha, sen yaxshilik qilding, ammo o'ringiz yaxshilik qilding. Bilasanki, men zarar keltiruvchi maxluqman. Boshqa narsani mendan kutish mumkin emas. Nima uchun meni qutqarding? O'ldirish kerak edi, sen esa odamzod dushmaniga rahm qilding. Yaxshilikka yomonlik mening kasbim. Yomonlarga yaxshilik qilish yaxshilarga yo-

monlik qilish demakdir. Endi men seni zaharlasam, bu ishim senga jazo, o'zgalarga ibrat bo'ladi.

Suvoriy dedi:

– Ey noinsof, kim yaxshilikka yomonlik qiladi?

Ilon dedi:

– Odamzod. Men sening ijozating bilan o'z kosangda o'zingga zahar ichirmoqchiman. Tezroq javob qil, avval o'zingni chaqaymi yo otingni?

Suvoriy dedi:

– Meni ham chaqma, otni ham.

Ilon dedi:

– Nega endi?! Odamzod ham yaxshilikka yomonlik qiladi-ku!

Suvoriy ilonning bu gapini inkor qildi va dedi:

– Bu da'voga guvoh kerak.

Shu orada sigir ko'rinib qoldi.

Ilon dedi:

– Ey sigir, yaxshilikning jazosi nima?

Sigir dedi:

– Odamzod uchun yaxshilikning jazosi yomonlik. Men bir necha yildan beri ularnikida turaman. Har yili bola tug'ar va ularini sut bilan qaymoqqa to'ldirar edim. Hozir sutdan qoldim, qaridim, o'tlab semirsin deb meni dalaga haydab qo'ydilar.

Kecha egam keldi va biroz semirganini ko'rib, qassobga sotdi. Mana, bugun so'yishga olib ketayotirlar. Yaxshiligimning jazosi shu bo'ldi. Ilon dedi:

– Ey yigit, eshitdingmi?

Suvoriy dedi:

– Eshitdim, ammo bir guvohning aytgani kamlik qiladi. Yana bir guvoh kerak. Ilon atrofga qarab, bir daraxtni ko'rdi va yoniga keldi.

U so'radi:

– Ey daraxt, yaxshilikning mukofoti nima?

Daraxt dedi:

– Odamzod uchun yaxshilikning mukofoti yomonlik. Dalil shuki, men shu dashtda ko'kargan birdan-bir daraxtman. Odamlar issiqda horib-charchab kelib, soyamda dam olishadi. Nafaslarini rostlab olgach, yuqoriga qarab: «Anavi shoxi arraga dasta bo'ladi, manavisi teshabop ekan», – deb shoxlarimni kesib oladilar. Mendan foyda ko'rsalar ham, azobni ravo ko'radilar.

Ilon dedi:

– Ikki guvoh bo'ldi. Endi tan ber, seni chaqay.

Suvoriy dedi:

– Jon juda shirin narsa. Yana bir guvoh bo'lsa, uzrga o'rin qolmaydi.

Ittifoqo, o'sha yerdan bir tulki o'tib qoldi. Bularni ko'rib to'xtadi-da, so'zlariga quloq soldi, keyin savolni kutmasdanoq:

– Yaxshilikning jazosi yomonlikdir. Sen bu ilonga nima yaxshilik qilib eding? – deya suvoriydan so'rab qoldi.

Suvoriy bo'lgan voqeani aytib berdi.

Tulki dedi:

– O'zing aqlli odamga o'xshaysan, lekin nega yolg'on gapirasan?

Ilon dedi:

– Rost aytyapti, bu odam meni to'rvaga solib, olovdan chiqardi.

Tulki hayron bo'lib so'radi:

– Bu so'zga qanday ishonsa bo'ladi, axir, shunday katta ilon bir kichik to'rvaga sig'ishi mumkinmi?

Ilon dedi:

– Ishonmasang, to'rvaga kirib ko'rsatay, shubhaga o'rin qolmasin.

Suvoriy to'rva og'zini ochdi, ilon to'rva-ga kirib, kulcha bo'lib oldi.

Tulki dedi:

– Ey yigit, dushmaning tuzoqqa tushdi, fursatni qo'ldan berma.

Suvoriy to'rva og'zini mahkam bog'lab, yerga bir urdi, ilon majaq-majaq bo'lib ketdi.

Ilgari zamonda ovni yaxshi ko'radigan bir podshoh bo'lgan ekan. Uning bir lochini bo'lib, parvozi baland, ko'zi o'tkir va panjasi temirdek edi. Podshoh uni juda qadrlar va doim o'zi parvarishlar edi. Bir kuni shoh lochinini olib, ovga jo'nadi. Cho'lda oldidan bir ohu qochib o'tdi. Uni quva-quva charchagan podshoh chanqab, bir tog'dan oqib tushayotgan zilol suv yoniga keldi. Shu suvdan ichmoqchi bo'lib, suvdonni to'latgan ham ediki, lochin qanot qoqib, suvni to'kib yubordi. Shohning jahli chiqib, yana suvdonni to'ldirdi. Bu safar ham lochin qanoti bilan idishni ag'darib yubordi. Podshoh darg'azab bo'lib, lochinni o'ldirdi. Shu payt bir mulozimi kelib qoldi. Podshoh unga dedi:

– Tog'dan tushayotgan suv tomchilari-dan suvdonning to'lishi uchun ancha vaqt kerak ekan. Sen yuqoriga chiqib, buloqning o'zidan tezda suv olib tush.

Mulozim toqqa chiqdi. Qarasa, u yerda kichkina bir buloqcha bo'lib, uning labida bir bahaybat ilon o'lib yotgan ekan. Uning og'zidan qatra-qatra zahar suvga tomayotgan ekan. Mulozim darhol tog'dan tushib, ko'rganlarini podshohga aytib berdi. Shoh uning so'zini eshitib, yig'lay boshladi.

Mulozim soʻradi:

– Yigʻingizning sababi nima?

Podshoh chuqur oh tortib, boʻlgan voqeani soʻzlab berdi.

Mulozim dedi:

– Ey shohim, bir ish qilishdan oldin shoshilmaslik lozim edi.

Shoh dedi:

– Qilib qoʻygan ishimdan afsusdaman, lekin endi buning foydasi yoʻq.

AQL, HARAkat, MANSAB VA OMAD HAQIDA

Bir kuni toʻrt kishi yoʻlda hamroh boʻlib, bir-birlari bilan doʻstlashib qoldilar. Ulardan biri – podshohning, ikkinchisi – amaldorning, uchinchisi – savdogarning va toʻrtinchisi – dehqonning oʻgʻli edi.

Ancha vaqt oʻtib, ularning boshiga ogʻir kunlar tushibdi va ustlaridagi kiyimlaridan boʻlak hech narsalari qolmabdi.

Shahzoda:

– Bu dunyoning butun ishlari taqdirning qoʻlidadir. Oʻzingni oʻtga-suvga urganing bilan biror narsa chiqmaydi, – degan fikrda ekan.

Amaldorning oʻgʻli esa:

– Baxt-saodatning asosi nasab va mansabdir, – deb o‘ylar ekan.

Savdogarning o‘g‘li:

– Yaxshi o‘ylab, to‘g‘ri tadbir ko‘rish saodatning kalitidir. Baxtsizlik yuz berganida odamga aqldan boshqa narsa yordam bera olmaydi, – deb hisoblar ekan.

Dehqonning o‘g‘li esa:

– Har narsaga sa‘y-harakat orqali erishiladi. Zahmat chekib, mehnat qilish insonni orzulariga yetkazadi. Qat‘iyat bilan bir ishga bel bog‘laganlar, ertami-kechmi, o‘z maqsadlariga yetadilar, – deya ta‘kidlar ekan.

To‘rt o‘rtoq uzoq yo‘l yurib, bir shaharga kelibdilar va joy topib, istiqomat qila boshlabdilar. Birinchi kuni sheriklari dehqon o‘g‘liga:

– Hammamiz juda charchadik, butun umidimiz sening sa‘y-harakatingga bog‘liq bo‘lib qoldi. Bor, bugunga yetadigan biror ovqat topib kel. Damimizni olib, ertaga biz ham navbat bilan biron narsa topib kelarmiz, – deyishibdi.

Dehqonning o‘g‘li shaharga boribdi va shaharliklardan nima ish qilsam, ko‘p pul topa olaman, deb so‘rabdi.

– Hozir o‘tin pul, – deb javob berishibdi unga.

U darhol toqqa chiqib, o'tin yig'ib, shaharga keltirib sotibdi va puliga ovqat olib, jo'ralari yoniga qaytibdi. Ketayotganida shahar darvozasiga: «Bir kunlik mehnat to'rt odamning ovqatiga barobardir», – deb yozib qo'yibdi.

Ertasi kuni amaldorning o'g'liga shunday deyishibdi:

– Qani bor, bugun sen biror narsa topib keltir, biz esa biroz dam olaylik.

Amaldorning o'g'li keta turib, o'z-o'ziga dedi: «Qo'limdan hech qanday ish kelmaydi, o'rtoqlarim oldiga qo'lim bo'sh qaytsam, sharmanda bo'laman-ku». O'ylab-o'ylab, shaharga yetib keldi va g'amgin holda bir daraxtga suyanib, xayol surib qoldi. Shu vaqt bir badavlat kishi uning yonidan o'tib qoldi. Yigitning ahvolini ko'rib dedi: «Ey o'g'lim, bu yerlarda nima qilib yuribsan? Kimsan, kimning avlodidansan?»

Yigit u kishiga boshidan o'tkazgan kulfatlar haqida so'zlab berdi. O'zining nasl-nasabli ekanini aytib, otasini tanishtirdi. Boy odam yigitning otasidan ko'p yaxshiliklar ko'rgan ekan. Uni rosa mehmon qilib, yana qo'liga besh yuz dinor berib jo'natibdi. Amaldorning o'g'li bu pulga ovqat olib, o'rtoqlari yoniga qaytar ekan, shahar darvozasiga: «Nasl-nasabning bir

kunlik bahosi – besh yuz dinordir», – deb yozib qo'yibdi.

Ertasi kuni savdogarning o'g'liga navbat kelibdi.

Savdogarning o'g'li yo'lga tushibdi. Ko'p yurmay, daryo bo'yidagi katta kemaga ko'zi tushibdi va uning yoniga boribdi. Shahar aholisi mollarning egasi bahosini pasaytirar, degan maqsadda hech narsa xarid qilmay, kutib turgan ekanlar. Savdogarning o'g'li yashirincha kemaga chiqib, hamma molni nasiyaga olibdi. Keyin shu yerning o'zidayoq ularni pullab ming dinor foyda qilibdi. So'ngra o'rtoqlari yoniga qaytayotib, shahar darvozasiga: «Aqlning bir kunlik bahosi – ming dinor», – deb yozib qo'yibdi.

To'rtinchi kuni o'rtoqlari shahzodaga qarab shunday deyishibdi:

– Bor, bugungi xarajatimizni sen qilib kel.

Shahzoda tavakkal qilib, shaharga yo'l olibdi. Shu kuni amir qazo qilib, jamoat motam ichida edi. Shahzoda tevarak-atrofga qarab, saroy darvozasi yoniga borib o'tirdi. Darvozabon uni ko'rib, ta'ziyada ishtirok etmayotgani uchun koyidi. Hamma amirni dafn etishga ketib, saroy bo'sh qoldi, lekin shahzoda o'tirgan yeridan qimirlamadi. Darvozabon shubhalanib, uni josus gumon qildi va qamab qo'ydi.

Ertasi kuni saroy ahllari yig'ilib, mam-lakatni boshqarishni kimga topshirish ha-qida bahslasha boshladilar. Amirning vori-si yo'q edi. Bahs juda qizib ketdi. Shu payt darvozabon dedi:

– Baland ovozda bahslashmang, men bir josusni tutganman, agar u sizlarning oran-gizdagi ixtilofdan xabardor bo'lib qolsa, yaxshi bo'lmaydi.

So'ngra bor gapni ularga aytib beribdi. Yig'ilganlarning hammasi josus kim eka-nini oydinlashtirish kerak, degan qarorga kelibdilar. Shahzodani zindondan chiqarib keltirdilar. Uning kim ekanini, qayerdan kelib, qayerga ketayotganini surishtirdi-lar. Shahzoda o'zini dadil tutib, hamma savollarga oqilona javob qaytaribdi. Uning oqil, hushyor va shijoatli ekanini ko'rgan a'yonlar shahzodaning tug'ilgan yeri va nasl-nasabiga qiziqibdilar.

Shahzoda debdi:

– Otam vafot etishi bilanoq aka-uka-larim toj-taxtgga ega bo'lib, saltanatni zabt etdilar. Men hayotimni saqlab qolish maq-sadida yurtimni tark etib, sizning mam-lakatingizga keldim.

Shu yerlik savdogarlar shahzodani ta-nibdilar, ota-bobolarining sha'n va shav-katidan so'z ochibdilar. A'yon-u amal-

dorlar shahzodaning bu yerlarga kelib qolganidan juda sevinib, debdilar:

– Bu yigit amir bo‘lishga loyiq. Tomirida shoh qoni bor. Mamlakatni idora etishda o‘z ota-bobolarining xayrli rasm-rusumlari va odatlarini bu yerda ham joriy qilishi aniq.

Shu kuniyoq shahzoda nomiga xutba o‘qittirib, uni amir qilib ko‘taribdilar. Bu shaharda shunday odat bor ekan: birinchi kuni yangi amirni oq filga mindirib, butun shaharni aylantirib chiqar ekanlar. Shahzodani ham filga mindirib, shahar kezdira boshlabdilar. U shahar darvozasi yoniga kelganida do‘stlarining yozuvlarini o‘qibdi va tagiga «Sa’y-harakat, nasl-nasab va aql – omad kelgandagina samara beradi. Mening taqdirim bunga misol bo‘la oladi», deya yozdirib qo‘yibdi.

So‘ngra saroyga qaytibdi va do‘stlarini chaqirtirib kelibdi. Aql egasini vazir qilib tayinlabdi. Hamma narsa sa’y-harakatga bog‘liq, degan o‘rtog‘ini mamlakatning barcha xo‘jalik ishlariga bosh qilib qo‘yibdi. Mansabga ishonadigan o‘rtog‘ini esa saroy amaldorlariga bosh etib tayinlabdi.

QIZG'ANCHIQ KO'R

Bir ko'r bilan ko'zi ochiq kishi hamroh bo'lib, safarga chiqibdilar. Ko'rning qamchisi qo'lidan tushib ketibdi va u qamchisini qidira boshlabdi. Yerda bir zaharli ilon tun sovug'i ta'sirida karaxt bo'lib, qotib yotardi. Ko'r uni o'z qamchisi deb o'ylab, qo'lga oldi va otga mindi. Ko'zi ochiq uning qo'lidagi ilonni ko'rib dedi:

– Do'stim, qamchi deb olganing zaharli ilon-ku! Tashla uni!

Do'stim qamchini mendan olib qo'ymoqchi, deb o'yladi ko'r.

Shuning uchun ham dedi:

– Do'stim, men eski qamchi o'rniga yangisini topdim. Uni mendan tortib olmoqchimisani?

Ko'zi ochiq dedi:

– Ey aziz do'stim, sendan qamchi tama qilayotganim yo'q. Ammo hamrohlikning shartlaridan biri yo'ldoshi xatarda bo'lsa, unga yordam berishdir.

Qizg'anchiq ko'r baribir uning maslahatini olmabdi. Birozdan keyin havo isib, ilon jonlanibdi va ko'rning qo'lini chaqibdi. Shu zahotiyok qizg'anchiqning joni uzi libdi.

Bir o'g'ri boynikiga o'g'rilikka tushibdi. Uy egasi shovqindan uyg'onib ketibdi va tomda o'g'ri borligini sezibdi. Xotinini asta uyg'otib, unga debdi:

– Men o'zimni uxlaganga solib yotaman, sen baland tovush bilan mendan buncha mol-dunyoni qanday topganimni so'ray-san. Men javob berishni istamasam ham, sen qattiq turib, javob berishimni talab qil.

Xotini eriga kelishilgandek savol beribdi. Eri debdi:

– Ey xotin, meni tinch qo'y, bunaqa savollar beraverib, boshimni qotirma. To'g'ri-sini aytsam, odamlar eshitib qoladilar va biz beobro' bo'lamiz.

Xotin uni qo'yardi-qo'ymay, so'rayveribdi. Eri debdi:

– Bu mol-dunyoning hammasi o'g'rilik bilan topilgan. Men bir vaqtlar abjir o'g'ri edim. Oydin kechalarda davlatmand odamlarning tomiga chiqib, yetti marta «Sholem, sholem» derdim-da, oy shu'lasiga o'tirib, uy ichiga hech qiynalmasdan tushardim. Ishimni bitirib, yana yetti marta «Sholem, sholem», deya oy shu'lasiga minib, darchadan chiqib ketardim. Mana shu afsun tu-fayli hech kim meni ko'rmas va mendan

badgumon ham bo'lmas edi. Lekin sen bu afsunni hech kimga o'rgata ko'rma.

O'g'ri buni eshitib, afsun o'rganib olgani uchun juda quvonibdi. Biroz poylab, uy egalarining uxlaganiga ishonch hosil qilgach, yetti marta «Sholem, sholem» debdida, tomdan sakrabdi. Oyog'i singani yetmagandek, uy egasi ham darhol o'rnidan turib, to'qmoq bilan o'g'rining boshiga tushiribdi. Keyin u:

– Umrinni sarf qilib topgan davlatimni osonlikcha o'g'irlab ketaman deb o'yladingmi? Sen kimsan? Aytmasang, hoziroq o'ldiraman, – debdi.

Shunda o'g'ri:

– Men sendek ayyor odamning so'ziga aldangan laqma va nodon bir o'g'riman, – debdi afsus bilan.

DEHQON VA O'G'RI

Bir kishi dalasida aylanib yurib qarasa, o'g'ri bir talay piyozni qoplab qo'yganmish.

– Bu yerda nima qilib yuribsan? – deya so'rabdi dehqon o'g'ridan.

– Ko'chadan o'tib ketayotgan edim, qattiq shamol turib meni shu yerga keltirib tashladi, – debdi.

– Piyozlarni nega sug‘urding?

– Shamol yana uchirib ketmasin deb piyozlarning bandidan ushlagan edim, tagi yumshoq ekan, ildizi bilan sug‘urilib ketdi.

– Bu gapiingga ham ishondim, deylik. Endi ayt-chi, ularni qopga kim soldi?

– Juda ko‘p savol berar ekansan. Men ham bu savolga qanday bahona topsam ekan, deb hayron bo‘lib turgan joyim edi...

MEHNATNING TAGI ROHAT

Qadim zamonda bir serfarzand kishi bir boyning eshigida ishlab, bazo‘r ro‘zg‘or tebratar ekan.

Og‘ir mehnatdan charchab-toliqib, bolalarining qornini to‘ydirolmay boshi qotib yurganida, allaqanday tog‘dan oltin topilgan emish degan gapni eshitib qolibdi-da, o‘sha tarafga yo‘l olibdi. Ro‘zg‘or tebratish o‘n ikki yashar to‘ng‘ich o‘g‘lining gardaniga tushibdi. U ukalari bilan birga to‘qaydan o‘tin yig‘ib, sotib, jamg‘argan puliga eshak xarid qilibdi. Keyin o‘sha eshak bilan o‘tinni shaharga ham olib borib sotadigan bo‘libdi.

O‘tin chopish barobarida to‘qayning bir chetidan kunda-yu tomirlarni tozalab bo-

raveribdi. Erta bahorda jamg'argan puliga omoch, ho'kiz va urug'lik sotib olib, o'sha ochilgan yerga bug'doy ekibdi. Shunday qilib, yigit bug'doy sotadigan savdogarga aylanibdi.

Ota o'sha ketganicha uch yilcha ovora-yu sarson bo'lib, hech qayerdan oltin topmay, qaytayotsa, shahar bozorida bug'doy sotib turgan o'g'liga ko'zi tushibdi.

Bola ham otasining qaytganidan xursand bo'lib, bor gapni aytib beribdi.

Shunda ota: «Iye, oltin shundoqqina uyimizning yonida ekan-ku!» – deya benihoya hayratga tushibdi. Keyin o'g'liga ergashib uyiga qaytibdi va yangi yerlar ochib, dalalarini kengaytirishga kirishibdi.

MANSAB SEHRI

Qadim o'tgan zamonda bir boyning arzanda, ishyoqmas o'g'li bo'lgan ekan.

Boy ko'zim ochiqligida buning ovul boshqarganini ko'ray, deb xon huzuriga boribdi-da, o'g'lini ovulga biy qilib tayinlangani haqida farmon olib kelibdi. Oradan ko'p o'tmay, boy dardga chalinibdi va o'limi oldidan o'g'lini chaqiribdi.

– O‘g‘lim, bir nasihat aytsam, bajara-sanmi? – debdi boy.

– Bajaraman, – debdi o‘g‘li ham.

– Mabodo qo‘l ostingdagilar to‘g‘ri gapingga ishonmay, seni mensimay qo‘ysa, bunday ko‘rgan kunimdan o‘lganim yaxshi degin-da, narigi uyning to‘siniga o‘zingni osgin, – debdi ota.

Yosh biy befarosat-roq ekan, otasining o‘limidan keyin-oq bor-budini so-vurib, ka-fangado bo‘libdi. Uning xazinaga qo‘sh-gulik mol-dunyosi qolmaganini bilgan xon sa-royga chaqirib, mansabidan bo‘shatibdi. Yosh biy xafa bo‘lib kelayotgan ekan, ol-didan bir yo‘lbars chiqib, unga hamla qilib-di. Uzoq olishuvdan so‘ng yigit yo‘lbarsni o‘ldiribdi. Ovulga yetib kelsa, ulfat-jo‘ralari bazm qurib o‘tirishgan ekan. Ularning ol-diga kirib, andak nafas rostlagach, xon sa-royidan qaytishda yo‘lda yo‘lbarsga ro‘para kelganini, uni qanday qilib o‘ldirganini ay-tib beribdi.

– Yolg‘on ham evi bilan-da! Odamni laqil-latmoqchi bo‘lasan-a! – deyishibdi jo‘ralari biri olib-biri qo‘yib. – Yo‘lbarsning yolg‘iz odamga bo‘y berishi osonmi!

Yigit har qancha tushuntirmasin, bari-bir ularning ishonmasligiga ich-ichidan

iqror bo'lib, uyiga qaytibdi. Ota vasiyatiga ko'ra ichkari xonaga kirib, to'singa arqon tashlab, o'zini osmoqchi bo'libdi. Uning og'irligidan to'sin ham sinib ketibdi. To'sinning ichi kovak bo'lib, tillo va kumush tangalarga to'la ekan.

Yigit tangalarining bir qismini xonga olib borib, biylik lavozimini qaytarib olibdi. Xonning oldidan kelib, bazm qurib o'tirgan yor-birodarlarining oldiga kirib boribdi. Saroyga nima maqsadda borganini, xondan biylik mansabini qanday qaytarib olganini aytib beribdi. Bu gaplarni eshitib, hamma uni o'zidan yuqoriroqqa o'tkazish ilinjida o'rnidan tura boshlabdi.

– Yo tavba, hadeb menga yo'lbars ro'para kelaveradi-ya! – debdi yigit to'rga chiqib o'tirgach. Bu yoqqa qaytib kelayotganimda, yo'lda naq yettita yo'lbars oldimdan chiqsa bo'ladimi! Otdan tushdim-u, unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa uloqtirdim. Yettovi ham yer tishlab qoldi!

– Mardligingizga tasanno! – deyishibdi o'tirganlar uning gaplarini ma'qullab.

Shunday qilib, yigit birodarlarining kimligini bilib olibdi. Mansabingga qarab ish ko'radiganlardan sodiq do'st chiqishi qiyin, deb o'ylab, ulardan voz kechibdi.

Bir odam bog'ga o'g'rilikka kiribdi va qo'lga tushibdi.

Bog'bon:

– Bu ishni qilgani Yaratgandan qo'rq-maysanmi? – debdi.

O'g'ri:

– Nega qo'rqay? Axir, meva ham Yaratganniki, men ham. Demak, Yaratganning quli Yaratganning mevasidan yeyapti, – debdi.

Bog'bon arqon bilan o'g'rini bir daraxtga bog'labdi-da, tayoq bilan kaltaklay boshlabdi. Shunda o'g'ri baqiribdi:

– Bu ishing uchun Yaratgandan qo'rq-maysanmi?

Shunda bog'bon:

– Axir, sen Yaratganning quli, bu esa Uning tayog'idir. Shu tayoq bilan seni kaltaklayapman. Men nega qo'rqay? – deb javob beribdi.

G'YBATDAN QO'RQADIGAN ODAM

Bir kishi choyxonaga hammadan oldin kelib, hammadan keyin ketar ekan. Buning sababini so'rganlarida shunday javob beribdi:

– Birga o'tirgan ulfatlar ketgan sherikning ortidan darhol g'iybat boshlashadi. Meni hech kim g'iybat qilmasin deb, hammadan oldin kelib, hammadan keyin ketaman.

MUHABBATNING KUCHI

Qadim zamonda Orol dengizi bo'yida yashovchi bir elatning oqsoqoli yolg'iz qizi bilan yashar ekan. Qizi juda go'zal bo'lib, oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, suqsurday suluv ekan.

Urug' oqsoqoli qizi erga tegib ketsa, o'zi yakka-yolg'iz qolishidan qo'rqib:

– Kim Orol dengizining suvini qirg'oqqa tashib quritsa, qizimni o'sha odamga bera-man, – deb e'lon qilibdi.

Bu g'alati shart hammani o'ylantirib qo'yibdi. Axir, bir odam butun umr tinim

bilmay ishlasa ham, Orol dengizining suvini tashib tugatishi mumkinmi sira?!

O'sha elatdagi bir kambag'alning yolg'iz o'g'li urug' oqsoqolining suluv qiziga oshiqi beqaror ekan. Shartni eshitgan zahoti otasiga:

– Ota, men bugundan boshlab Orol dengizining suvini tashib tugatishga kirishmoqchiman, – debdi.

Otasi uning qat'iyatini ko'rib:

– Bolam, avval qizning otasiga uchrashsak bo'larmidi, – debdi.

– Vaqtni o'tkazib nima qilamiz, ota? Dengizning suvini quritib, shartini bajaray, keyin siz birato'la sovchilikka borasiz. Oqsoqol va'dasidan tonmas, – debdi o'g'li.

– Unday bo'lsa, bolam, yolg'iz o'zingga bu ish og'irlik qiladi. Men senga yordamlashaman, – deb otasi ham qo'liga chelak olib, o'g'liga ergashibdi.

Shunday qilib, ular Orol dengizining suvini chelaklab olib tashqariga to'kishni boshlab yuboribdilar. Oradan ancha-muncha vaqt o'tib ketibdi. Ota-bola tinim bilmay dengiz suvini chelaklab qirg'oqqa to'kaverishibdi.

Hech kimning sovchilikka kelmayotganidan mamnun oqsoqol qizini yigitlardek kiyintirib, ovga o'rgatibdi. Ovchilik hayotning tashvish-u g'alvalarini unutishning

bir yo'li ekan-da. Bir kuni keng dalada quyundek uchib yurgan bir kiyikka duch kelibdilar.

Ota-bola kiyikni tutish niyatida ortidan ot qo'yibdilar. Kiyik jon-jahdi bilan Orol dengizi yoqalab qochibdi. Bir chakalakzorga o'zini uribdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Ikkovlon kiyikni tuta olmay dengiz yoqasiga kelsalar, ikki odam ko'rinibdi.

Tikilib qarasalar, ikki kishi qo'lida ikki chelak, parvoyi falak, xuddi o'zaro musobaqalashayotgandek, Orol suvini qirg'oqqa chiqarib to'karmish. Oqsoqol bilan qizi: «Bular qanaqa odamlar o'zi?» – deya ajablana-ajablana, ularga yaqinlashishibdi.

– Hormanglar, nima qilyapsizlar? – deb so'rabdi urug' oqsoqoli.

Ota-bola ularni tanimay:

– Ko'rib turibsiz-ku, dengizning suvini qirg'oqqa to'kib quritmoqchimiz, – deyishibdi-da, yana shosha-pisha ishlarini davom ettirishibdi.

Urug' oqsoqoli oshkora mazax bilan:

– Dengiz suvini chelaklab tashib quritib bo'larkanmi sira? – debdi.

– Nega bo'lmasin? – ajablanib so'rabdi yigit.

– Mumkin bo'lmasa, elatimizning atoqli oqsoqoli qizini uzatish uchun bunday shart qo'ymasdi, – debdi otasi ham.

Urug' oqsoqoli hayron bo'lib qolibdi.

Shu payt qiz otidan tushib:

– Otajon, meni ularning yonida qoldirib ketishingizni o'tinib so'rayman, – deb yolvoribdi.

Urug' oqsoqoli gap nimadaligini fahmlab:

– Nimaga? Bular hali dengiz suvini tashib tugatmadi-ku! – debdi.

– Ota! – debdi qiz. – Orolning suvini hech kim hech qachon tashib quritolmasligini bila turib, mana shunday shart qo'yganingizda, so'zingizga ishonadigan oqko'ngil, muhabbatiga sodiq yigit qidirgansiz. Mana, o'shanday yigit ro'parangizda turibdi-ku!

Oqsoqol qizining gaplariga qanday javob berishni bilmay, ikki yoshga oq fotiha berishga majbur bo'libdi.

DONO AYOL

Tinchgina tirikchiligini qilib, mehnat bilan mashg'ul bo'lib yurgan qoraqalpoq yurtiga kutilmaganda yov bostirib kelibdi. El orasidagi o'n yoshdan ellik yoshgacha jamiki erkaklarni asir olib, qul qilish uchun o'z yurtlariga haydab ketish taradduga tushibdi. Bibioysha ismli jasur bir ayol yov lashkarboshisining oldiga dadil

kirib borib, undan elga zug‘um qilmay, mehr-shafqatli bo‘lishini iltimos qilibdi.

Lashkarboshi hech yurtida bunday jasur ayolni ko‘rmagan ekan. Andak taraddudlanib turib:

– Asirlar ichida kiming bor o‘zi? – deb so‘rabdi.

– Erim bilan o‘g‘lim bor, – debdi ayol.

– Jasur ayol ekansan. Mayli, senga bittasini qoldira qolay. Xo‘sh, ering qolsinmi yo o‘g‘lingmi? – deb so‘rabdi lashkarboshi.

– Erimni qoldiring. Erim omon bo‘lsa, o‘g‘illik bo‘laveramiz, – debdi ayol tap tortmay.

Lashkarboshi ayolning farosatiga tan berib:

– Agar o‘g‘limni qoldiring, deganingda boshingni olmoqchi edim. Senday erga sadoqatli, dono ayol borligi uchun ovulingdan hech kimni asir olmaganim bo‘lsin! – deb hamma bandilarni ozod qilib yuboribdi.

ISHTAHA OCHADIGAN DORI

Bir xon qarigan chog‘ida o‘g‘lining yurtini qanday idora qilayotganini ko‘rib, bu dunyodan xotirjam ko‘z yumish niyatida tirikligidayoq unga toj-taxtni topshirib-

di. Taxtga o'tirgan kunining ertasigayoq shahzodaning ishtahasi bo'g'ilib, taom yeyolmay qolibdi.

– Menga ishtaha ochadigan dori kerak, – debdi o'ziga o'zi.

Yosh xon o'ylana-o'ylana, qo'shni mamlakatlardan bo'lsayam shunday dorini topib kelaman, deb yo'lga ravona bo'libdi. Shahardan chiqaverishda terlab-pishib ariq qaziyotgan bir kishini ko'rib qolibdi.

– Xon hazratlari, yo'l bo'lsin? – ajablanibdi qazuvchi.

– Taxtga o'tirdim-u, ishtaham yo'qoldi. Ishtaha ochadigan dori axtarib ketyapman, – debdi xon.

– Bunday dori menda bor, – debdi ariq qazuvchi.

– Iye, bor bo'lsa, meni sarson qilib nima qilasan, o'sha doringni menga ber-da, – debdi xon.

– Mayli, beraman. Biroq uyda edi. Borib kelishga esa vaqt yo'q. Manovi ariqni tezroq qazimasam bo'lmaydi. Ekin-tikin vaqti o'tib ketyapti, – deb zorlanibdi qazuvchi.

– Sen uyga borib o'sha dorini olib kelguningcha o'rningga men qazib tura qolay, – deya xon otdan tushibdi-da, uning qo'lidan ketmonini olibdi.

Qazuvchi xonning ketmon urishini andak kuzatib, ixlos bilan ishlashiga ko'zi yetgach, uyiga ketibdi.

Xon tinim bilmay ariq qazibdi. Kunbortarga yaqin ishni bitirib, peshona terini sidirganicha nafas rostlayotganida, qazuvchi yetib kelibdi.

– Dori qani? – deb so'rabdi xon.

– Qancha olib kelishni bilmadim. O'zingiz uyga borib, xohlaganingizcha ola qolarsiz, – deb u xonni uyiga boshlabdi. Qazuvchining ayoli kechki ovqatga bir qozon jo'xorigo'ja pishirib turgan ekan. Xon ochlikka chidolmay:

– Doringdan avval go'jangdan quyib bermaysanmi? – deb so'rabdi.

Uy bekasi bir kosa go'ja quyib beribdi.

Xon:

– Judayam mazali ekan... – deya maqtay-maqtay yana bir kosa go'ja quyib berishlarini so'rabdi. Ayol darrov quyib beribdi. Xon ikkinchi kosaniyam bir burda non bilan paqqos tushirib, obdan to'yganidan keyin:

– Mayli, endi men boray, doringni ber, – debdi qazuvchiga.

Qazuvchi miyig'ida kulib:

– Mana, ishtaha ochadigan dori, – debdi-da, devorga suyab qo'yilgan ketmonni olib, xonning qo'liga tutqazibdi.

MUNDARIJA

GUNOH – GUNOHGA SABAB BO'LADI	3
OQIBATLI QO'SHNI	5
ZUKKO QOZI	5
MUNOSIB QAYLIQ.....	6
MUNOSIB HUKM.....	10
XASISLAR USTOZI	12
DO'ST HOLIDAN BEXABARLIK	13
SODDA MUG'OMBIR.....	14
VASIYAT	15
TAVBASIGA TAYANDI.....	16
HOTAMDAN SAXIY	16
UCHINCHI AHMOQ.....	18
SOHIBQIRON VA HOFIZ.....	20
NAVOIYNING JAVOB I	21
BIR PULLI SHE'RLAR.....	21
KINOYA TAGIDAGI HAQIQAT	22
BIR SURAT TA'RIFI.....	22
TAMAGIR.....	24
XASISLAR	26
XASISNI DAVOLASH USULI	26
MUTTAHAM DA'VOGAR	26
KUCH YETMASA, HIYLA QIL	28
BADNAFS TULKI	29
ANDISHA	30
BALOYI NAFS	30
O'G'RILAR SULTONI	32
ZIYORAT	34
MAJOZ VA HAQIQAT	35
MAYMUN VA DURADGOR	37
SUVCHI MANTIG'I	37
NAVOIY VA HUSAYN	38
O'RGIMCHAK VA PASHSHA	39
ALDANGAN TULKI	41
TO'TI BILAN PODSHOH HIKOYASI	42

QUYONNING HIYLASI	46
FAROSATSIZ O'RDAK.....	48
TUZOQQA O'ZI TUSHDI	49
BIR KUNDA UCH MARTA HOSIL	
BERGAN DARAXT	50
IKKI DA'VOGAR.....	51
SICHQON BILAN QURBAQA.....	52
JAZOLAR ZANJIRI	54
XAVOTIR.....	56
CHINGIZXONNI MOT QILGAN BAXSHI.....	56
ZO'RAVONNING HALOKATI.....	58
NAFSI YOMON BO'RI	60
LOCHIN ISHINI QILMOQCHI BO'LGAN G'OZ.....	61
TULKINING FAROSATI	62
ONA SUTI.....	63
SABRNING FOYDASI	64
NODONLIK OQIBATI	65
BA'ZAN ROSTDAN YOLG'ON YAXSHI	66
KAKLIKLAR GUVOHLIGI.....	67
MEHNAT BILAN TOPILGAN PUL	69
MARDLIK	71
OVCHI VA QUSHCHA.....	72
QILMISHIGA YARASHA JAZO	74
OTA MEHRI	74
OCHKO'ZLIKNING JAZOSI.....	75
OCHOFAT	76
KO'R KO'ZNING OCHILISHI.....	77
SADAQANING FOYDASI.....	78
MEHR VA QAHR	81
AQL SOLIG'I.....	82
YOMONLIKNING QAYTISHI.....	83
SOTIB OLINGAN DO'STLIK	86
OTA QARG'ISHI	87
KIM ONAM DEYDI, KIM BOLAM.....	89
SAXOVATNING FOYDASI	90

ANTIQA SAXOVAT	93
SABRSIZ MO'MIN	93
DILAZORNING QISMATI	95
XIZMAT HAQI	96
HOTAMNING UKASI.....	97
HOTAMNING OTI.....	98
MEROSGA KIM MUNOSIB?	99
O'G'RINING QISMATI	101
UCH NARSA VA TO'RT VOSITA	102
OLIYJANOB KISHILAR	103
MAYMUNLAR.....	105
DUSHMANINI MENSIMAGANNING AHVOLI	106
NADOMAT	107
O'ZIGA QOLGANDA.....	109
CHARXPALAK DUNYO	111
MUNOFIQ DO'STLAR	113
ADABINI YEGAN MUTTAHAM.....	118
MULOYIMLIK	120
MULOYIMLIK BELGILARI	121
UCH BALIQ.....	122
TOSHBAQA BILAN CHAYON.....	123
SHOH QIZINING HIYLASI.....	125
ILON – ILONLIGINI QILADI	130
SADOQATLI LOCHIN	135
AQL, HARAQAT, MANSAB VA OMAD HAQIDA	136
QIZG'ANCHIQ KO'R	142
LAQMA O'G'RI	143
DEHQON VA O'G'RI.....	144
MEHNATNING TAGI ROHAT	145
MANSAB SEHRI.....	146
MUTTAHAMNING JAZOSI	149
G'ITYBATDAN QO'RQADIGAN ODAM	150
MUHABBATNING KUCHI	150
DONO AYOL.....	153
ISHTAHA OCHADIGAN DORI	154